Фуқаролик ишлари бўйича судларда прокурор иштироки бўйича ҳуқуқшунос олимлар ва амалиётчилар ўртасида бир қатор мунозаралар мавжуд бўлиб, айримлари судларда прокурор иштироки суднинг мустақиллигига таъсир қилишини таъкидласа, айримлари суд қароринг қонуний ва адолатлилини таъминлашда муҳим аҳамият касб этишини эътироқ этадилар.

Ўзбекистон Республикаси прокуратура органларининг судларда фуқаролик ишлари кўрилишидаги асосий вазифалари - қонунда белгиланган ваколатлар орқали суд қарорларининг қонуний, асосли ва адолатли бўлишига эришишдан ҳамда қонунийликни мустаҳкамлаш, қонун устуворлигини, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, жамият ва давлатнинг қонун билан кўриқланадиган манфаатларини самарали ҳимоя қилишни таъминлашдан иборат [10].

Бизнинг фикримизча, айрим ижтимоий жиҳатдан муҳим аҳамиятга эга бўлган ишлар ҳамда фуқароларнинг манфаатлари юзасидан киритилган ишлар бўйича иштирок этиши муҳим ҳисобланиб, мамлакатда қонун устуворлигини таъминлаш ва қонунийликни мустаҳкамлашга ҳамда суд қарорларини қонуний ва адолатли чиқарилишида муҳим аҳамият касб этади.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 2015 йил 17 ноябрдаги “Судларда фуқаролик ишлари кўрилишида прокурор иштирокининг самарадорлиги янада ошириш тўғрисида”ги 124-сонли буйруғининг 4-бандида фуқаролик суд ишларини юритишда прокурорнинг иштироки мажбурий ҳолатлар белгиланган бўлиб, уларга қуйидагилар кириши белгиланган:

- прокурорнинг (даъво) аризаси бўлган кўзғатилган ишларда;
- фуқарони бедарак йўқолган деб топиш ёки фуқарони вафот этган деб эълон қилиш тўғрисидаги ишларда;
- фуқарони муомилага лаёқати чекланган ёки муомилага лаёқатсиз деб топиш тўғрисидаги ишларда;
- фарзандликка олиш тўғрисидаги ишларда;
- ота-оналик ҳуқуқидан маҳрум қилиш, шу жумладан ҳуқуқни тиклаш ёки чеклаш тўғрисидаги ишларда;
- шахсни ғайриихтиёрий тартибда психиатрия стационарига ётқизиш ёки унинг стационарда ётиши муддатини узайтириш тўғрисидаги ишларда;
- сил касаллигига қарши кураш муассасасининг ихтисослаштирилган бўлимига ғайриихтиёрий тартибда ётқизиш ҳақидаги ёки унинг ушбу муассасада ётиши муддатини узайтириш тўғрисидаги ишларда;
- вояга етмаган шахсни тўлқ муомилага лаёқатли деб топиш эълон қилиш (эмансипация) тўғрисидаги ишларда;
- мол-мулкни (ашёни) эгасиз деб топиш билан боғлиқ ишларда.

Шунингдек, прокурор иштироки мажбурийлиги белгиланган ишларнинг апелляция ва кассация инстанцияларда кўрилишида прокурор протести асосида

кўрилаётган барча ишларда прокурор иштироки қатъий таъминланиши белгиланган.

Бундан кўринадики, прокурор иштироки мажбурийлиги белгиланган ишларнинг апелляция ва кассация инстанцияларда кўрилишида ҳамда прокурор протести асосида кўрилаётган барча ишларда прокурор иштироки қатъий таъминланади.

Юридик адабиётларда (В.М.Жуйкова) биринчи инстанция судларида прокурор иштирокининг учинчи шакли, яъни номуайян шахслар доирасига дахлдор масалалар бўйича ҳуқуқий ҳужжатни ғайриқонуний деб топиш тўғрисидаги ишларни қўзғатиш шакли ҳам борлиги айтилади [11].

Прокурорнинг судда фуқаролик ишларини қўзғатиш борасидаги ваколатларининг доираси белгиланмаганлиги судда ишга дахлдор бўлмаган тарафни алмаштириш ҳолатлари кўпайишига, суд процессларида тарафлар фойдаланадиган эркин ҳуқуқ принциплари у ёки бу даражада чекланишига олиб келиши мумкин [12].

Фуқаролик ишларини қўзғатиш бўйича прокурор ишларини яхши йўлга қўйиш, ўз фаолиятини аниқ бир мақсадга йўналтиришни таъминлаш учун прокурор судда қандай тоифадаги ишларни қўзғатиши кераклиги белгиланиши лозим [13].

Фуқаролик ишларида прокурор даъво аризасини киритиш ҳуқуқига эга бўлиши ва бу ваколат унинг ажралмас элементи бўлиши лозим [14].

Юқоридагиларга асосланган ҳолда хулоса қиладиган бўлсак, прокурорнинг фуқаролик ишлари бўйича биринчи инстанция судларида фуқаролар манфаатида даъво ариза киритиши прокурорнинг узвий ҳуқуқларидан бири ҳисобланади. Прокурорнинг биринчи инстанция судида иштирок этиши судья фаолиятига асосиз аралашиб эмас балки, қонунийликни таъминлаш ва суд қорорларини қонуний ва адолатли қабул қилинишида иштирок этиши билан таснифлашимиз мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Фуқаролик суд ишларини юритишда ошкоралик тамойили ва жамоатчилик назоратини таъминлашнинг долзарб масалалари / Монография. Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. Б.Х.Пўлатов. – Тошкент. “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”. 2019. – 140 б.

2. Яшин В.Н., Ақонов В.В. Проблемы стадии возбуждения уголовного дела по новому уголовно-процессуальному Кодексу // Следователь. – Москва, 2004. – №1. – С. 22.

3. Прокуратура органлари томонидан 2022 йил давомида амалга оширилган ишлар тўғрисида маълумот. <https://prokuratura.uz/#/ochiqmalumot/>

4. Прокуратура органлари томонидан 2022 йил давомида амалга оширилган ишлар тўғрисида маълумот. <https://prokuratura.uz/#/ochiqmalumot/>

5. З.Эсанова. Фуқаролик суд ишларини юритишда процессуал мажбурият чоралари: асослари, тартиби, бу соҳадаги янгиликлар. Тошкент давлат юридик университети, Тошкент, 100047, Ўзбекистон. Yuridikfanlaraxborotnomasi-Вестник юридических наук-Review of Law Sciences 4 (2018) 9-15

6. Фуқаролик процессида прокурор иштироки: миллий амалиёт ва хорижий тажриба [Илмий-амалий қўлланма] /М.Мамасиддиқов, Н. Мираҳмедова – Тошкент, “Адолат”, 2016 й. -220 б.
7. Фуқаролик ишлари бўйича судга мурожаат қилиш тартиби [Матн] / Х. Ёдгоров [ва бошқ.] -Тошкент : Vaktria press, 2016. — 224 б.
8. Фуқаролик ишлари бўйича судга мурожаат қилиш тартиби [Матн] / Х. Ёдгоров [ва бошқ.] -Тошкент : Vaktria press, 2016. — 224 б.
9. Фуқаролик ишлари бўйича судга мурожаат қилиш тартиби [Матн] / Х. Ёдгоров [ва бошқ.] -Тошкент : Vaktria press, 2016. — 224 б.
10. Мамасиддиқов М.М., Шайзаков Ш.И., Шамшидинов У.Т. Фуқаролик суд ишларини юритишда прокурор ваколатини таъминлаш масалалари // Илмий-амалий қўлланма. –Тошкент, 2020. 30-бет.
11. Маслова Т.Н. Проблемы участия прокурора в гражданском судопроизводстве: Автореф. дис. соис. учен. степ. канд. юрид. наук. -Саратов, 2002. -16 с
12. Маслова Т.Н. Проблемы участия прокурора в гражданском судопроизводстве: Автореф. дис. соис. учен. степ. канд. юрид. наук. -Саратов, 2002. -16 с
13. Кравцов Б.В. Предъявление прокурорами исков - важная форма защиты прав и интересов граждан Сов. государство и право, 1966. № 1. -С. –67-68.
14. Аргунов В.Н. Участие прокурора в гражданском процессе. –М.: МГУ, 1991. -91

ҲАДЯ ШАРТНОМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ИШЛАРНИ СУДДА КЎРИШ АСОСЛАРИ

Қодиров Соҳибжон

Судьялар олий мактаби тингловчиси

e-mail: s.qodirov@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақолада ҳадя шартномаси билан боғлиқ низоларнинг судда кўриш асослари ёритилган. Низоларни судда кўришнинг ўзига хос хусусиятлари миллий қонунчилик асосида таҳлил қилинган ҳолда назарий ва амалий ҳиҳатдан таҳлил қилинган. Шу билан бирга, мазкур соҳага оид назариётчи олимлар, тажрибали амалиётчи ходимларнинг фикр ва мулоҳазалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: фуқаролик процесси, тарафлар, даъвогар, жавобгар, учинчи шахслар, ҳадя, совға, хайр-эҳсон, хайрия, мажбурият ҳуқуқи, моддий бойликлар, одат нормалари, мулкӣ муносабатлар, даъво муддати.

ПРИНЦИПЫ СУДЕБНОГО РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ, СВЯЗАННЫХ С ДОГОВОРОМ ДАРЕНИЯ

Қодиров Соҳибжон

Студент Высшей школы судей

электронная почта: s.qodirov@gmail.com

Аннотация: В данной статье описаны принципы судебного рассмотрения споров, связанных с договорами дарения. Специфика судебного разбирательства анализируется с теоретической и практической точки зрения, анализируется на основе национального законодательства. При этом были проанализированы мнения и мнения учёных-теоретиков, опытных практиков в данной области.

Ключевые слова: гражданский процесс, стороны, истец, ответчик, третьи лица, дар, подарок, дарение, благотворительность, обязательственное право, материальные блага, обычные нормы, имущественные отношения, срок иска.

PRINCIPLES OF COURT CONSIDERATION OF CASES RELATED TO GIFT CONTRACT

Kadirov Sahibjon

Trainee of the High School of Judges

e-mail: s.qodirov@gmail.com

Abstract: This article describes the principles of court consideration of disputes related to gift contracts. Specific features of court hearing are analyzed from the theoretical and practical point of view, analyzed on the basis of national legislation. At the same time, the opinions and opinions of the theoretician scientists, experienced practitioners in this field were analyzed.

Key words: civil procedure, parties, claimant, defendant, third parties, gift, gift, donation, charity, right of obligation, material wealth, customary norms, property relations, term of claim.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан илгари сурилган “Инсон манфаатлари ҳамма нарсадан устун” [1] деган олийжаноб ғоя негизда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларни таъминлашда ҳар бир соҳасини қонун йўли билан тартибга солиш, инсон манфаатларига зид нормаларни бекор қилиш ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини тўлиқ амалга оширилишини давлат томонидан таъминлаш чораларини кўришни англатади.

Ҳар қандай мамлакатнинг демократик ва инсонпарварлик хусусиятларидан бири – инсонга бўлган муносабат, инсон ҳуқуқи ва эркинликлари қандай ҳимоя қилинаётганлиги билан белгиланади. Шунинг учун ҳам кўпгина мамлакатлар тарихий ривожланиш жараёнида инсон ҳуқуқларига оид ўз қонунлар тизимини яратган [2].

Айниқса, нафақат мамлакатимизда балки, бутун дунёда ҳадя ва хайр-эҳсоннинг аҳамияти ортиб бормоқда.

Хусусан, “COVID-19” пандемияси даврида халқаро ташкилотлар томонидан ҳамда давлатларнинг ўзаро бир-бирларига хайрия ва инсонпарварлик ёрдамларини кўрсатишди. БМТ Жанубий Америка, Африка, Яқин Шарқ ва Осиёдаги 51 мамлакатда COVID-19 га қарши курашиш учун 2 миллиард долларлик глобал гуманитар ёрдамни ишга туширди [3].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 22 июндаги ПФ-6012-сон Фармони билан тасдиқланган Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясини амалга ошириш бўйича “Йўл харитаси”нинг II бобида Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқларни ҳимоя қилиш ҳамда барқарор ривожланиш соҳасидаги устувор йўналишлар белгиланган бўлиб, 30-бандида инсоннинг фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларда вужудга келадиган ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларига оид илғор халқаро стандартларни имплементация қилиш ҳамда хусусий мулкнинг дахлсизлиги кафолатларини таъминлайдиган, жисмоний ва юридик шахсларнинг, айниқса тадбиркорларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қиладиган самарали фуқаролик-ҳуқуқий механизмларни белгилаш

кабилар назарда тугилган Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг янги таҳрири лойиҳасини ишлаб чиқиш вазифаси юклатилган.

Мамлакатимиз мустақилликка эришганидан сўнг барча соҳалар каби мулк ҳуқуқига оид муносабатларда ҳам қатор ислохотлар амалга оширилмоқда. Жисмоний ва юридик шахсларнинг мулк ҳуқуқи дахлсизлиги ва уни тўлиқ тасарруф этиши ҳамда ўзга шахслар томонидан мулк ҳуқуқи бузилишини қонун йўли билан кафолатланиши демократик-ҳуқуқий давлат қуришда муҳим аҳамият касб этади.

Хусусан, Конституциямининг 66-моддасига кўра, “мулкдор ўзига тегишли бўлган мол-мулкка ўз хоҳишича эгаллик қилади, ундан фойдаланади ва уни тасарруф этади” деб конституцион норма орқали мустаҳкамланган бўлиб, мулкдор ўзига тегишли мол-мулкни бегоналаштириш билан боғлиқ барма мутлақ ҳуқуқлардан фойдаланади.

Ҳада шартномаси Рим ҳуқуқида республика даврида маълум бўлган энг қадимги фуқаролик-ҳуқуқий битимлардан биридир. Бугунги кунга қадар ушбу шартнома мулкни бегоналаштириш билан боғлиқ энг кенг тарқалган шартномалардан биридир. Кўпинча бундай шартномалар қариндош бўлган фуқаролар ўртасида тузилади. Шунинг учун хайрия ишончли (ишончли) битим сифатида таснифланади [4].

Хайр-эҳсон фуқаронинг ўз мулкни тасарруф этиш ҳуқуқини ифодалайди, бу қонунчилик даражасида таъминланади. Хайрия ва ушбу ҳаракат билан боғлиқ юзага келадиган ҳуқуқий муносабатлар кўплаб муаммоларни келтириб чиқаради ва бу мавзунини бугунги кунда долзарб қолдиради.

Ҳозирги вақтда кўриб чиқилаётган шартноманинг аҳамияти тобора ортиб бормоқда, чунки амалда сўнгги йилларда жисмоний ва юридик шахсларнинг ўз мол-мулкни ҳада қилиш сони бир неча баробар ошди. Бироқ, шу билан бирга, ҳада шартномасидан кўчмас мулкни олди-сотдиси мақсадида фойдаланишдан суиистеъмол қилиш, ҳада қилиш вақтида мол-мулкни қасддан яшириш, шунингдек, совға сифатида ниқобланган коррупциявий ҳолатлар [5] юзага келмоқда.

Хусусан, фуқаролик ишлар бўйича судлар томонидан биринчи инстанцияда кўрилган битимлар билан боғлиқ кўриб тамомланган ишлар 2019 йилда 41 802 тани ташкил этган бўлса, 2023 йилда 158 548 та [6] ни ташкил этган бўлиб, 2023 йилда кўрилган ишлар 2019 йилга нисбатан 3,8 баравар ошганини кўришимиз мумкин.

Фуқаролик ҳуқуқий шартномалар орасида ижтимоий мақсадларга йўналтирилган, текин манфаат кўришга қаратилган шартномалар ҳам мавжуд бўлиб, уларнинг ўрни ва аҳамияти алоҳида эътибор талаб қилади. Зеро, ҳада

шартномаси меҳр ва мурувватнинг ҳуқуқий воситаси сифатида муҳим ўрин тутди.

Ҳозирги кунда ҳади шартномасининг субъектлари, объектлари, шартномани расмийлаштириш ва унинг шакли, тарафларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, ҳадини ваъда қилиш ва унинг оқибатлари хусусидаги қоидаларда бир қатор ноаниқликлар ва ечими кутаётган муаммолар борлигини ҳисобга олиб мазкур ҳолатларни ечимини топиш зарурияти юзага келади.

Бизга маълумки, кундалик ҳаётимизда турли хид ижтимоий муносабатларга киришамиз. Уларнинг энг кўп қисми фуқаролик ҳуқуқий муносабатлар ҳисобланиб, улар ўз навбатида тарфлар ўртасида ҳуқуқ ва мажбуриятлар вужудга келади. Фуқаролик ҳуқуқий муносабатлар асосан тарафларнинг ихтиёри ва хоҳиш-иродаси билан амалга оширилади. Айниқса, шартномавий-ҳуқуқий муносабатлар натижасида тарафлар ўртасида маълум бир ҳуқуқ ва мажбуриятларни келтириб чиқаради. Агар тарафлар ўртасида низо келиб чиқадиган бўлса, қонунда ёки шартномада белгиланган тартибда низолар ҳал этилади. Фуқаровий ҳуқуқий муносабатлар қонунда белгиланган тартибда ва асосларда амалга оширилади.

Фуқаролик ҳуқуқи томонидан тартибга солинадиган мулкӣ муносабатлар доираси ниҳоятда кенг. Булар жумласига олиди-сотди, ҳар-ҳил буйуртмалар қабул қилиш, турар жойларни ижарага олиш ва бериш, корхоналар, ташкилотларнинг бир-бирига махсулот етказиб бериш, қурилиш ишларини амалга ошириш, транспорт корхоналари орқали юк ва йўловчи ташиш, етказилган зарарни тўлатиш, қонун ва васият бўйича мерос олиш, умуман ҳар қандай шаклдаги мулкни эгаллаш, ундан фойдаланиш ва уни тасарруф этиш билан боғлиқ бўлган муносабатлардан иборатдир [7].

Фуқаролик кодексининг 1-моддасида фуқаролик қонунчилигининг асосий негизлари белгиланган бўлиб, унга кўра, фуқаролик қонунчилиги улар томонидан тартибга солинадиган муносабатлар иштирокчиларининг тенглигини эътироф этишга, мулкнинг дахлсизлигига, шартноманинг эркинлигига, хусусий ишларга бирон-бир кишининг ўзбошимчалик билан аралашшига йўл қўйилмаслигига, фуқаролик ҳуқуқлари тўсқинликсиз амалга оширилишини, бузилган ҳуқуқлар тикланишини, уларнинг суд орқали ҳимоя қилинишини таъминлаш зарурлигига асосланади.

Фуқаролар (жисмоний шахслар) ва юридик шахслар ўз фуқаролик ҳуқуқларига ўз эрқларига мувофиқ эга бўладилар ва бу ҳуқуқларини ўз манфаатларини кўзлаб амалга оширадилар. Улар шартнома асосида ўз ҳуқуқ ва бурчларини белгилашда ва қонунчиликка зид бўлмаган ҳар қандай шартнома шартларини аниқлашда эркиндирлар.

Товарлар, хизматлар ва молиявий маблағлар Ўзбекистон Республикасининг бутун худудида эркин ҳаракатда бўлади.

Хавфсизликни таъминлаш, инсонларнинг ҳаёти ва соғлиғини ҳимоя қилиш, табиатни ва маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш учун зарур бўлса, товарлар ва хизматлар ҳаракатда бўлишини чеклаш қонунчиликка мувофиқ жорий этилиши мумкин.

Барча ҳолатларда фуқаролик ҳуқуқларини суд тартибида ҳимоя қилиш демократик тамойилларнинг фуқаролик қонун ҳужжатларига жорий этилишининг ўзига хос исботи бўлиб ҳисобланади. Ушбу тартиб қуйидаги икки қонидани ўзида мустақамлайди:

а) ФКда ва бошқа қонунларда тегишли кўрсатма бор-йўқлигидан қатъий назар фуқаролик ҳуқуқларини маъмурий тартибда ҳимоя қилиш ҳисобланади (ФКнинг 10-м. 2-қ.). Бироқ бунда ҳам маъмурий тартибда қабул қилинган қарорлар устидан судга шикоят қилиш мумкин, демак маъмурий тартиб устидан ҳам суд назорати мавжуд;

б) суд фуқаролик ҳуқуқларини бузувчи ҳужжатларни, яъни улар давлат органлари ёки фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан қабул қилинганидан қатъий назар, ҳақиқий эмас деб топилиши мумкин [8].

Ўзбекистон Республикаси Конституциянинг 130-моддасига кўра, Ўзбекистон Республикасида одил судлов фақат суд томонидан амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимияти қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимиятдан, сиёсий партиялардан, фуқаролик жамиятининг бошқа институтларидан мустақил ҳолда иш юритади.

Суд тизими Конституциясининг 11-моддасида белгиланганидек суд ҳокимияти уч мустақил ҳокимиятдан бири ҳисобланиши белгиланган.

“Судлар тўғрисида”ги Қонуннинг 1-моддасига асосан, Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимияти қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимиятлардан, сиёсий партиялардан, бошқа жамоат бирлашмаларидан мустақил ҳолда иш юритади.

Ўзбекистон Республикасида суд ҳокимияти фақат судлар томонидан амалга оширилади. Ҳеч қайси бошқа органлар ва шахслар суд ҳокимияти ваколатларини ўзлаштириб олишга ҳақли эмас.

Бундан кўринадики, суд ҳокимияти мустақил ҳисобланиб, фақатгина қонунга асосан фуқароларнинг бузилган ҳуқуқларини тиклаш чораларини кўради. Судлар эса, ишларни Конституция, қонунлар ҳамда процессуал қонун ҳужжатларига асосланиб ишларни кўриб чиқади.

Маълумки, ҳада тўғрисидаги муносабатлар мазмунан шартномавий муносабатлар сирасига кириб, тарафлар ўртасида юзага келадиган муносабатлар

бевосита суд орқали ҳал этилиши мумкин. Ҳады тўғрисидаги низолар асосан ҳады шартномасини бекор қилиш, ваъда қилинган мулкни тақдим қилмаслик ҳамда умумий биргаликдаги мулкни манфаатдор шахсларнинг розилигини олмасдан ҳады қилиш билан боғлиқ ҳолатлардан иборат. Ҳады шартномаси билан боғлиқ низоларни судда кўриш асослари Конституция, Фуқаролик кодекси ҳамда Фуқаролик процессуал кодексида белгиланган.

Хусусан, Конституциянинг 55-моддасига биноан, “ҳар кимга бузилган ҳуқуқ ва эркинликларини тиклаш учун унинг иши қонунда белгиланган муддатларда ваколатли, мустақил ҳамда ҳолис суд томонидан кўриб чиқилиши ҳуқуқи кафолатланади” деб белгиланган бўлиб, мазкур конституцион норма судга мурожаат қилишнинг умумий тартибини белгилаган. Ҳуқуқи бузилган ҳар қандай шахс бевосита судга мурожаат қилиш ҳуқуқи мавжудлигини ва суд ушбу нормага асосан даъвогарнинг даъво талабини кўриб чиқиши шартлигини билдиради. Жисмоний ва юридик шахслар ҳады тўғрисидаги низолар бўйича бевосита судга мурожаат қилиши мумкинлигини аниқлатади.

Шунингдек, Фуқаролик кодексининг 507-моддасига асосан, ҳады олувчи ҳады қилувчининг, унинг оила аъзолари ёки яқин қариндошларининг ҳаёти ёки соғлиғига қарши атайлаб жиноят содир қилган ҳолларда ҳадыни бекор қилишга суд тартибида йўл қўйилади.

Ҳады олувчи ҳады қилувчини қасддан ўлдирган тақдирда ҳады қилувчининг ворислари судда ҳадыни бекор қилишни талаб этиш ҳуқуқига эга.

Агар ҳады олувчининг ҳады қилувчи учун катта номулкий қийматга эга бўлган ҳады буюмга нисбатан муомаласи унинг бутунлай йўқ бўлиб кетиши хавфини солса, ҳады қилувчи ҳады бекор этилишини суд тартибида талаб қилишга ҳақли.

Манфаатдор шахснинг талабига биноан суд яқка тартибдаги тадбиркорнинг ёки юридик ва жисмоний шахснинг тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги қонунчилик қоидаларини бузиб, тўловга қобилиятсизлик ҳақида иш қўзғатилишидан олдинги бир йил ичида ўзининг тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ маблағлар ҳисобидан қилган ҳадысини бекор қилиши мумкин.

Ушбу норма махсус норма ҳисобланиб, ҳады шартномасини суд орқали бекор қилиш бўйича низони суд томонидан кўриб чиқиш учун асос ҳисобланади.

Маълумки, фуқаролик ишлари бўйича одил судлов фуқароларнинг ҳамда юридик шахсларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларига таъсир кўрсатувчи ҳуқуқий масалаларни суд мажлисида кўриш ва ҳал этиш орқали амалга оширилади. Судда фуқаролик ишларини кўриш ва ҳал этиш тартиби фуқаролик суд ишларини юритиш тўғрисидаги процессуал қонун ҳужжатлари билан белгиланади [9].

Хусусан, Фуқаролик процессуал кодексининг 3-модасига кўра, ҳар қандай манфаатдор шахс бузилган ёки низолашилаётган ҳуқуқи ёхуд қонун билан қўриқланадиган манфаатини ҳимоя қилиш учун фуқаролик суд ишларини юритиш тўғрисидаги қонунчиликда белгиланган тартибда фуқаролик ишлари бўйича судга (судга) мурожаат қилишга ҳақли.

Мазкур Кодекснинг 26-моддасига асосан, фуқаролик, оила, меҳнат, уй-жой, ер тўғрисидаги ва бошқа муносабатлардан юзага келадиган низолар бўйича ишлар, агар тарафлардан ҳеч бўлмаганда биттаси фуқаро бўлса, фуқаролик ишлари бўйича судга қуйидаги ишлар тааллуқлилиги белгиланган.

Бундан ташқари, Олий суд Пленуми қарорларида ҳам ишларни суд тартибидеа кўриш асослари ҳақида ҳам нормалар мавжуд.

Юқоридагилардан кўридик, ҳади шартномаси тўғрисидаги низолар бўйича манфаатдор шахслар бевосита судга мурожаат қилиш мумкин. Бундай ишларни ҳал этиш билан боғлиқ ишларни суд тартибидеа кўришнинг асослари моддий ва процессуал ҳуқуқ нормалари орқали тартибга солинган бўлиб, ушбу қонун ҳужжатлари асосида кўриб чиқилади ва ҳал этилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <http://uza.uz/uz/society/prezidentimizning-nutqi-mamlakatimizda-inson-manfaatlari-ham-20-09-2017>
2. А. Хусейнова, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати аъзоси, Бухоро давлат университети профессори, фалсафа фанлари доктори. https://www.uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-va-inson-huquqlari-himoyasi_327572.
3. <https://www.unodc.org/unodc/en/press/releases/2020/March/covid-19-global-humanitarian-response-plan.html>.
4. Р.Ф. Персиянцев. «Договор дарения в российском гражданском праве», Магистерская диссертация. Тольятти-2017.
5. Шульгина Анастасия Григорьевна, студентка магистратуры юридического института НИУ «БелГУ» Россия, г. Белгород. «Договор дарения в российском гражданском праве» «Научно-практический электронный журнал Аллея Науки» №6(57) 2021. Alley-science.ru
6. Фуқаролик ишлар бўйича судлар томонидан биринчи инстанцияда кўрилган битимлар билан боғлиқ ишлар юзасидан статистик маълумот. <https://stat.sud.uz/fib.html>.
7. Фуқаролик ҳуқуқи: миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими йўналиши талабалари учун услубий қўлланма / Топилдиев В.Р., Жамолов Н.К., масъул муҳаррир О.Оқюлов. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z., 2014. -192 б.
8. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ. 1-жилд (биринчи қисм) Адлия вазирлиги. – Т.: «Vektor-Press», 2010. – 816 б. – (Профессионал (малакали) шарҳлар).
9. Мамасидиқов М.М. Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Умумий қисм / Олий ўқув юрти талабали учун дарслик. Масъул муҳаррир ю.ф.д. О.Оқюлов – Тошкент. Vaktria press. 2014. – Б 8.

ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛА ҲУҚУҚЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ХАЛҚАРО-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ВА МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИКНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

Гаппарова Назокат Абдукахаровна

*Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги
Судьялар олий мактаби тингловчиси*

Аннотация: Мазкур мақолада бола ҳуқуқларини таъминлашда халқаро ҳуқуқ нормалари ва миллий қонунчилигимиз ҳужжатлари таҳлил қилинган. Бола ҳуқуқларини миллий халқаро даражада таъминлашга қаратилган муносабатлар назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил қилинган. Шунингдек, бола ҳуқуқлари кафолатлари тўғрисида миллий қонунчиликнинг ўзига хос жиҳатлари ёритилган ҳамда мазкур соҳага оид назарий олимлар, тажрибали амалиётчи ходимларнинг фикр ва мулоҳазалари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: халқаро нормалар, бола, вояга етмаган шахслар, боланинг қонуний вакиллари, муомилага лаёқатлилиқ, ҳуқуқ лаёқати, давлат бошқарув органлари, васийлик, ҳомийлик, оилавий муносабатлар, шахсий номулкий ҳуқуқлар.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ РЕБЕНКА В УЗБЕКИСТАНЕ И ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

ГАППАРОВА НАЗОКАТ АБДУКАХАРОВНА

Студент Высшей школы судей при Высшем совете судей
Республики Узбекистан

Аннотация: В данной статье анализируются положения международного права и нашего национального законодательства в сфере обеспечения прав детей. Теоретически и практически анализируются отношения, направленные на обеспечение прав ребенка на национальном и международном уровне. Также освещены конкретные аспекты национального законодательства о гарантиях прав детей, проанализированы мнения и мнения ученых-теоретиков и опытных практиков в этой сфере.

Ключевые слова: международные нормы, ребенок, несовершеннолетние, законные представители ребенка, правоспособность, дееспособность, органы государственного управления, опека, патронаж, семейные отношения, личные имущественные права.

INTERNATIONAL LEGAL BASIS OF PROVIDING CHILD RIGHTS IN
UZBEKISTAN AND FORMATION OF NATIONAL LEGISLATION

GAPPAROVA NAZOKAT ABDUKANAROVNA

Student of the High School of Judges under the Supreme Council of
Judges of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the provisions of international law and our national legislation in the provision of children's rights. Relations aimed at ensuring child rights at the national and international level are analyzed theoretically and practically. Also, specific aspects of the national legislation on the guarantees of children's rights are highlighted, and the opinions and opinions of theoretical scientists and experienced practitioners in this field are analyzed.

Key words: international norms, child, minors, legal representatives of the child, legal capacity, state management bodies, guardianship, patronage, family relations, personal property rights.

Инсон ҳуқуқлари - ҳар бир инсоннинг миллати, яшаш жойи, жинси, этник келиб чиқиши, танасининг ранги, дини, тили ва бошқа белгиларидан қатъи назар, ажралмас ҳуқуқларидир. Барча одамлар ҳар қандай турдаги камситишларни истисно қилган ҳолда, инсон ҳуқуқларидан бир хилда фойдаланиш ҳуқуқига эгадирлар. Ушбу ҳуқуқлар ўзаро боғлиқ ва ажралмасдир [1].

Жаҳон ҳамжамиятида вояга етмаганларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш энг долзарб ҳуқуқий масалалардан бири бўлиб, умуминсониятнинг диққат марказидаги инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш билан боғлиқ бўлган муаммоларнинг таркибий қисми ҳисобланади [2]. Қайд этиш керакки, инсон ҳуқуқлари бу инсоннинг давлатга нисбатан ҳуқуқий мақомини белгиловчи, унинг иқтисодий, ижтимоий, сиёсий ва маданий соҳаларда қандай имкониятларга эга эканлигини тавсифловчи тушунчадир [3]. “Инсон ҳуқуқлари” тушунчаси кенг қамровли ҳамда комплекс характерга эга бўлиб, у мазмунан бир неча таркибий қисмларни, жумладан, бола ҳуқуқларини ҳам ўз ичига олади [4]. Шу муносабат билан бола ҳуқуқларини ҳимоя қилиш нафақат ҳар бир давлатнинг, балки халқаро даражадаги глобал муаммога айланиб, уларнинг ҳуқуқларини таъминлаш муҳим аҳамият касб этиб, халқаро ҳуқуқнинг долзарб масаласи ҳисобланмоқда ҳамда бола ҳуқуқлари бўйича халқаро стандартлар яратилмоқда.

Бола ҳуқуқлари тоифасининг табиати ёрдамида ҳуқуқ ва ҳуқуқий муносабатларни билиш учун янги имкониятлар очилмоқда. Қонун бутун жамиятнинг тартиблилиги ва барқарорлигининг тизимни ташкил етувчи омили

бўлиб хизмат қилади. Шунинг учун уни амалга оширишнинг асосий масалаларидан бири қонуннинг турли жиҳатларда мужассамланиши ҳисобланади [5].

Болалар ўз ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларини мустақил амалга ошира олмаслиги ва англамаслиги сабабли уларни ҳуқуқларини суд орқали ҳимоя қилиш стандартларидан бири ювенал юстиция тизими яратилган.

Ювенал юстиция – халқаро атама бўлиб, вояга етмаганлар учун одил судлов ёки вояга етмаганлар суди маъносини англатади [6]. Яъни, “ювенал юстиция”ни вояга етмаганлар учун судлов институти дейиш мумкин. Бироқ, ювенал юстициянинг суд органидан фарқли жиҳати шуки, у жамиятнинг вояга етмаганларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилишда, уларга дахлдор масалаларни ҳал этишда кенг қатнашади. Шу жиҳатдан уни давлат ва фуқаролик жамияти ўртасида вояга етмаганларнинг ҳуқуқларини таъминлаш тизими ҳам дейиш мумкин [7]

Бунга мисол сифатида айтиш мумкинки, АҚШ, Франция ва Японияда ювенал юстиция тизими вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлиги билан боғлиқ суд жараёнида юзага келувчи васийлик, ҳомийлик, ота-онага нисбатан санкцияларни қўллаш, мулк ҳақидаги низо каби масалаларни кўриб чиқади. Яъни, мазкур давлатларда вояга етмаганлар билан боғлиқ фуқаровий, маъмурий, хўжалик ва жиной ишларни ҳал этиш мазкур юстиция ваколлати доирасида ҳисобланади. Бу эса ривожланган давлатларда судларнинг ихтисослашгани ва анча самарали тажриба тўпланганини кўрсатади. Бугунги кунда ихтисослашган вояга етмаганлар ишларини кўриб чиқиш ваколлатига эга ювенал судлар дунёнинг 40 дан ортиқ давлатларида мавжуд [8].

Хорижий мамлакатлар тажрибасида ювенал юстициянинг асосан уч шакли кенг тарқалган:

- ихтисослашган судлар (АҚШ, Болгария, Германия, Руминия, Польша, Эстония, Литва, Россия, Қозоғистон ва бошқалар);
- маъмурий ваколлатларга эга ва вояга етмаганлар манфаатларини жинойят, оилавий, фуқаролик, меҳнат ҳуқуқ соҳаларида ҳимоя этувчи ижроия тизими (Австрия, Венгрия, Испания, Латвия, Молдова, Франция, Япония ва бошқалар);
- вояга етмаганлар ҳуқуқ ва манфаатларини умумий юрисдикцияга эга судлар томонидан ҳимояловчи тизим (Белорусия, Украина, Арманистон, Қирғизистон ва бошқалар) жорий этилган [9].

Сўз юритилаётган тизим мураккаб тарихий жараёни босиб ўтган. Тарихан олиб қараганда дастлаб Европа мамлакатлари судлари жинойят содир этган шахснинг ишини кўриб чиқишда унинг ёшига доир хусусиятини инобатга олмаган. Кейинчалик, вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлиги ва жинойятчилиги учун жазо тайинлашда ёш ва психо-физиологик ривожланишга эътибор қаратиш

тенденцияси кузатилди. Жумладан, Наполеон Кодексида вояга етмаганларга нисбатан “Ўз қилмишининг оқибатини тушуниб етган ёки етмаган” каби тушунча келтирилган [10].

Таъкидлаш жоизки, бу борада янги Ўзбекистонда мутлақо янги миллий ҳуқуқий тизим шакллантирилиб, “Инсон, унинг ҳуқуқлари, эркинликлари, айниқса, қадри-энг муҳим қадрият” деган тамойил эътироф этилмоқда. Эндиликда “Тараққиёт стратегиясида йиллар давомида амал қилиб келган “давлат – жамият – инсон” тамойили “инсон – жамият – давлат” тамойилига ўзгартирилмоқда [11].

Давлат сиёсатининг оила ва маънавий-ахлоқий қадриятларни мустаҳкамлашга қаратилган умумий эътиборига қарамай, вояга етмаганлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасидаги қонунчиликнинг ҳолати бу борадаги назоратни янада кучайтириш ва такомиллаштириш зарурлигини кўрсатмоқда [12].

Бола ҳуқуқларини таъминлашда давлат ҳуқуқий сиёсатини амалга оширишда унинг ҳуқуқлари доирасини аниқлаб олиш муҳим аҳамият касб этади [13]. Бола ҳуқуқлари доирасини учта қатга гуруҳга, яъни “шахсий ҳуқуқ ва эркинликлар, сиёсий ҳуқуқ ва эркинликлар ҳамда ижтимоий-иқтисодий ва маъданий-маърифий ҳуқуқларга” ажратиб ҳуқуқ меъёрларини шу изчиллик асосида таъминлаш зарурлигини таъкидлаб ўтади [14].

Бугунги кунда илмий-техника тараққиёти шахсий ва интеллектуал салоҳиятнинг ривожланиши ва ўсишини рағбатлантирмоқда, бу эса ўз навбатида ёшларнинг дунёқараши ўзгаришига олиб келмоқда. Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишда ёшлар муаммоларининг устувор эканлигини ҳисобга олиб, ёш авлоднинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш тизимини такомиллаштириш, шунингдек, уларни ҳимоя қилиш учун бир қатор илғор ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Мамлакатимизда бола ҳуқуқлари кафолатларини таъминлашнинг норматив асослари етарли даражада таъминланган [15].

Хусусан, бола ҳуқуқларининг кафолатлари соҳасидаги муносабатларни тартибга солишга қаратилган асосий қонун “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонун [16] ҳисобланади. Мазкур қонун орқали бола ҳуқуқларинининг асосий кафолатлари, ижтимоий ҳимояга муҳтож болалар ҳуқуқларининг кўшимча кафолатлари ва бошқа асосий қоидалар белгиланган.

Шунингдек, болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш соҳасидаги муносабатлар “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонун [17] орқали тартибга солинган. Мазкур Қонунда болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилишга доир фаолиятни амалга оширувчи ҳамда ушбу

фаолиятда иштирок этувчи органлар ва ташкилотлар, болаларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотни таснифлаш ҳамда ахборот маҳсулотининг ёшга оид таснифи, болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш таъминланишини инобатга олган ҳолда ахборот маҳсулотининг айланишига қўйиладиган талаблар, ахборот маҳсулотининг экспертизаси ва унинг ҳуқуқий оқибатлари белгиланган.

Шу билан бирга, она сути билан озиқлантиришни қўллаб-қувватлаш, шунингдек гўдаклар ва кичик ёшдаги болалар озиқ-овқат маҳсулотларига доир белгиланган талабларга риоя этилиши соҳасидаги муносабатларни тартибга солишга қаратилган “Она сути билан озиқлантиришни қўллаб-қувватлаш ҳамда гўдаклар ва кичик ёшдаги болалар озиқ-овқат маҳсулотларига доир талаблар тўғрисида”ги Қонун [18] қабул қилинган бўлиб, ушбу қонунда она сути билан озиқлантиришни қўллаб-қувватлаш ҳамда гўдаклар ва кичик ёшдаги болаларни озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш соҳасини давлат томонидан тартибга солиш, она сути билан озиқлантиришни қўллаб-қувватлаш ва тарғиб қилишга доир чора-тадбирлар ҳамда гўдаклар ва кичик ёшдаги болаларнинг озиқ-овқат маҳсулотларига доир талаблар белгиланган.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, давлатнинг бола ҳуқуқларини ҳимоя қилишни таъминлаш функцияси Бола ҳуқуқлари бўйича вакил фаолиятида акс этади. Бугунги кунда болаларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, уларнинг қонуний манфаатларини таъминлашда дунёнинг саксонга яқин мамлакатларида Болалар омбудсмани фаолият юритади. Уларнинг асосий вазифаси “Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги конвенция қоидаларини қонунчиликка татбиқ этиш, боланинг шахси, шаъни, кадр-қиммати, ҳуқуқ, эркинлик ва қонуний манфаатлари ҳимоясига бутун жамият ва давлатни фаол жалб этишдан иборат.

Болалар ҳуқуқлари бўйича Омбудсман ёки вакил лавозими биринчи бўлиб Норвегияда 1982 йилда таъсис этилган. Швецияда эса бундай институт 1993 йилда фаолият бошлаган. Ҳозирги кунда дунёнинг кўплаб мамлакатларида болалар бўйича Омбудсман институти фаолият кўрсатмоқда. Жумладан Европада (Австрия, Белгия, Германия, Дания, Исландия, Испания, Люксембург, Россия, Норвегия, Финляндия, Швеция) ва Лотин Америкасида (Гватемала, Колумбия, Коста-Рика, Перу), шунингдек Канада, Исроил ва Янги Зеландияда. Болалар учун омбудсман институти ва унинг яратилиши мамлакатимизнинг БМТнинг Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияси бўйича ўз мажбуриятларини бажаришини назорат қилишнинг ажралмас қисмидир.

Кўпгина хорижий мамлакатларда Болалар омбудсмани фаолияти махсус қонунлар билан тартибга солинади (Полша - 2000 йил 6 январдаги "Бола ҳуқуқлари бўйича омбудсман тўғрисида"; Ирландия - "Болалар бўйича омбудсман тўғрисида" (2002); Франция - "Бола ҳимоячиси тўғрисида" 2000 йил

6 март; Швеция - 1993 йил 1 июлдаги "Болалар омбудсмани тўғрисида"ги қонун; Литва - 2000 йил 25 майдаги "Бола ҳуқуқларини ҳимоя қилиш назорати тўғрисида"ги қонунлар). Ҳаётимизнинг барча соҳалари каби бола ҳуқуқлари, уларнинг қонуний манфаатларини ҳуқуқий тартибга солишга қаратилган ҳуқуқий нормаларнинг ишлаб чиқишига Конституциямиз асос бўлиб хизмат қилмоқда. Мамлакатимизда 1992 йил 9 декабрда БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 1989 йил 20 ноябрда қабул қилинган "Болалар ҳуқуқлари тўғрисида"ги Конвенциянинг ратификация қилиниши болаларнинг ҳуқуқий ва ижтимоий мақомини шакллантириш йўлида муҳим кадам бўлди. Ушбу ҳужжат орқали Ўзбекистон халқаро конвенция қоидалари ва принципларига риоя этиш, бола ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг миллий қонунчилик тизимини такомиллаштириш бўйича мажбуриятларни ҳамда жаҳон ҳамжамияти олдида жавобгарлик масаласини ўз зиммасига олди. Мамлакатимизда бу йўналишда ўтган йилларда изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Айниқса, сўнгги йилларда жамиятимизнинг бошқа соҳалари каби бу жабҳадаги ишлар ҳам янги босқичга кўтарилди.

Мамлакатимизда бола ҳуқуқларини таъминлашда давлат сиёсатини олиб бориш функциясини амалга ошириш мақсадида Президентимизнинг 2019 йил 22 апрелдаги "Бола ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) ўринбосари — Бола ҳуқуқлари бўйича вакил лавозими жорий этилиши натижасида мамлакатимизда бола ҳуқуқлари ҳимоясининг ташкилий ва институционал асослари янада мустаҳкамланди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 майдаги "Бола ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорида Бола ҳуқуқлари бўйича вакилнинг асосий вазифалари ва фаолияти йўналишлари белгиланди [19]. Шунингдек, 2024 йил 29 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Бола ҳуқуқлари бўйича вакили (Болалар омбудсмани) тўғрисида"ги Қонунининг қабул қилиниши бола ҳуқуқларини таъминлашда парламент назоратини амалга ошириш орқали давлатнинг бола ҳуқуқларини таъминлаш функциясини амалга оширишда муҳим аҳамият касб этди.

Бундан ташқари, болаларнинг таълим олиш ҳуқуқи кафолатларига оид Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни [20], Ўзбекистон Республикасининг "Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида"ги Қонуни [21], ҳамда "Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида"ги Қонун [22] лари, вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси соҳасидаги муносабатларни тартибга солишга қаратилган "Вояга етмаганлар

ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги Қонуни [23] лари васийлик ва ҳомийлик муносабатлари эса “Васийлик ва ҳомийлик тўғрисида”ги Қонуни [24] ҳамда бошқа қонуности ҳужжатлар орқали тартибга солинган.

Алоҳида қайд этиш керакки, аҳолида бола ҳуқуқларига оид ҳуқуқий маданиятни шакллантиришда ҳукумат томонидан қабул қилинган қуйидаги дастурий ҳужжатлар ҳам муҳим аҳамиятга эга. Ҳар йили қабул қилинадиган давлат дастурларида болалар, ёшлар муаммолари доимо диққат марказида бўлмоқда. Айниқса, 2008 йилни “Ёшлар йили”, 2010 йилни “Баркамол авлод йили”, 2014 йилни “Соғлом бола йили”, 2016 йилни “Соғлом она ва соғлом бола” деб эълон қилиниши болалар, ёшлар ва уларнинг тарбияси давлат сиёсатининг бош масаласи эканлигини кўрсатиб берди. Айниқса, бу борада мамлакат миқёсида амалга оширилаётган турли тадбирлар ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини, уларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини самарали амалга оширишда муҳим аҳамият касб этмоқда [25].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <http://www.insonhuquqlari.uz/uz/menu/chto-takoe-prava-cheloveka>.
2. Рустамбаев М.Х. Права человека начинаются с прав ребёнка//”Ижтимоий ва ҳуқуқий ҳимояга муҳтож болаларнинг ҳуқуқий ҳолати”мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари. –Т.: Янги аср авлоди, 2006. Б.12.
3. Абдумажидов Ғ.А. Адолат, жавобгарлик, жазо. // Давлат ва ҳуқуқ. -2003.- № 4. –Б.14.
4. Джамбакиев Б. Ёшларга оид давлат сиёсатининг ҳуқуқий асосларини такомиллаштиришнинг айрим масалалари//Фалсафа ва ҳуқуқ.2007.№2.-С.57-58.
5. Абдулхайрзода Джамила. Права ребенка как юридическая конструкция. <https://cyberleninka.ru/article/n/prava-rebenka-kak-yuridicheskaya-konstruktsiya>.
6. Хамидова М.А.Ювенал юстиция у қандай бўлиши керак? Рисола./Масъул муҳаррир ю.ф.д. Х.Бобоев.-Т.ДЮИ.2006.-40б.
7. Хорижий давлатларда умумий ўрта, ўрта махсус ва профессионал таълим тўғрисидаги қонунчилик ижросини таъминлаш ва назорат қилишга оид илғор тажрибалар. М.К.Бобоумарова. Судьялар олий мактаби мустақил изланувчиси. <https://imfaktor.com/index.php/jofs/article/view/785/1365>.
8. [Электрон манба]: <http://lib.sale/yuvenalnaya-yustitsiya-pravo/322-yuvenalnyie-sudyi-dve-33742.html> . (мурожаат вақти: 15.06.2023 й.).
9. Хорижий давлатларда умумий ўрта, ўрта махсус ва профессионал таълим тўғрисидаги қонунчилик ижросини таъминлаш ва назорат қилишга оид илғор тажрибалар. М.К.Бобоумарова. Судьялар олий мактаби мустақил изланувчиси. <https://imfaktor.com/index.php/jofs/article/view/785/1365>.
10. Мак-Клеллан Д. Правосудие по делам несовершеннолетних в США // Уголовная юстиция: проблемы международного сотрудничества. М., 1994. С. 176.
11. Саидов А.Х. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси: “давлат - жамият – инсон” тамойилидан “инсон - жамият – давлат” тамойилига ўтилмоқда // <https://sud.uz/1001-2/>

12. У.А.Азимов. “Фуқаролик ишлари бўйича судларда вояга етмаганлар билан боғлиқ ишларнинг кўрилишида прокурор иштирокини таъминлашнинг мақсади, вазифалари ва ўзига хос хусусиятлари”. “Хуқуқни муҳофаза қилиш соҳасида юридик таълим ва фан: замонавий тенденциялар ва истиқболлари” мавзусида халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. II-жилд // Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. М.М.Мамасиддиқов. – Т.: “Lesson press”. 2024. 465 – б.

13. Н.Н.Дусмухамедова. “Ўзбекистонда бола хуқуқларига оид давлат сиёсатининг хуқуқий асосларини такомиллаштириш”. Хуқуқий тадқиқотлар журнали. 5 жилд, 7 сон. <file:///C:/Users/User/Downloads/administrator,+huquq-2020-7-2.pdf>.

14. ¹ М.В.Матвеева. “Права ребенка в семейном праве: проблемы законодательства, теории и практики” Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва. 2017 г. –С. 47.

15. А.Т.Жалилов: “ЁШЛАР МУАММОЛАРИНИНГ АМАЛИЙ ТАЛҚИНИ: МУНОСАБАТ ВА ЕЧИМЛАР”. Ijtimoiy menejment: [Matn] o‘quv qo‘llanma / N.M.Ziyavitdinova, Sh.N.Xayitov, Y.M.O‘rinov. –Т: “Tafakkur-Bo‘stoni” nashriyoti 2019 yil. 216 b.

16. Ўзбекистон Республикасининг “Бола хуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-139-сон 07.01.2008. <https://old.lex.uz/docs/1297315#1297797>.

17. Ўзбекистон Республикасининг “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-444-сон 08.09.2017. <https://old.lex.uz/docs/3333797>.

18. Ўзбекистон Республикасининг “Она сути билан озиқлантиришни қўллаб-қувватлаш ҳамда гўдақлар ва кичик ёшдаги болалар озиқ-овқат маҳсулотларига доир талаблар тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-574-сон 23.10.2019. <https://old.lex.uz/docs/4566077>.

19. <https://ombudsman.uz/uz/managements/bolalar-ombudsmani-2> .

20. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-637-сон 23.09.2020. <https://old.lex.uz/docs/5013007>.

21. Ўзбекистон Республикасининг “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-595-сон 16.12.2019. <https://old.lex.uz/docs/4646908>.

22. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-406-сон 14.09.2016. <https://old.lex.uz/docs/3026246>.

23. Ўзбекистон Республикасининг “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва хуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-263-сон 29.09.2010. <https://old.lex.uz/docs/1685726>.

24. Ўзбекистон Республикасининг “Васийлик ва ҳомийлик тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-364-сон 02.01.2014. <https://old.lex.uz/docs/2307826>

25. Ш.Амирхўжаев, О.Р.Ғуломжонов. БОЛА ХУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ СОҲАСИДАГИ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal/ISSN: 2181-1601 / Volume: 1, ISSUE: 6. www.scientificprogress.uz.

ISMOIL OLLABERGAN IJODIDA XORAZM SHEVASI ELEMENTLARI

Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorazmlik ijodkor Ismoil Ollabergan asarlarida qo'llangan Xorazmning o'g'uz lahjasiga xos so'zlar adabiy til bilan qiyosan tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm shevasi elementlari, o'g'uz lahjasi, qipchoq lahjasi, adabiy tildagi muqobili.

Аннотация: В данной статье сопоставляются с литературным языком слова, характерные для огузского диалекта Хорезма, использованные в творчестве хорезмийского художника Исмаила Оллабергана.

Ключевые слова: Элементы хорезмийского диалекта, огузский диалект, кыпчакский диалект, альтернатива в литературном языке.

Abstract: In this article, the words typical of the Oghuz dialect of Khorezm, used in the works of Khorezm artist Ismail Ollabergan, are compared with the literary language.

Key words: Elements of Khorezm dialect, Oghuz dialect, Kipchak dialect, alternative in literary language.

Hammamizga ma'lumki, azal-azaldan Xorazm buyuk ijodkorlarga, isde'dodli shoir-u yozuvchilar, turli sohalarning yetuk kashfiyotchilariga boy zamindir. Shunday Turonzamin vohamizning yana bir iste'dodli vakillaridan biri Ismoil Ollabergandir. Adabiyotning turli janrlarida muvaffaqiyat bilan qalam tebratgan ijodkor tilining shiradorligi, o'zining asarlarida serjilo ma'nolar ifodasini ko'rsatganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ismoil Ollabergan zamonaviy o'zbek adabiyotining yetakchi vakillaridan biridir. Adabiyotning turli janrlarida muvaffaqiyat bilan ijod qilgan shoir tilining shiradorligi, o'zining asarlarida serjilo ma'nolar ifodasini ko'rsatganligi bilan boshqa ijodkorlardan alohida ajralib turadi. Ijodkor hikoyalaridagi ifodaning ta'sirchanligi va tasvirning aniqligi satrdagi so'zlarning qo'llanishidagi mohirlik bilan bevosita aloqadordir.

Ijodida adabiy tildagi va shevaga oid bo'lgan so'zlarning qo'llanishidagi mutanosiblik muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir adib o'z ijod namunasini adabiy til me'yorlaridan cheklanmagan holda yozishi mahorat, abatta, ammo shevalardan foydalanish asarni jonli va hayotiy jozibaga ega bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Shevaga oid birliklar adabiy til me'yorlaridan tashqarida, ular milliy til unsurlari sanaladi. Ammo ular oddiy so'zlashuv va badiiy uslubda muayyan bir me'yorda

ishlatiladi. Badiiy uslubda qo'llangan shevaga oid unsurlar yozuvchining uslubiy-estetik maqsadiga xizmat qiladi. Xususan, badiiy asarda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta'kidlash, mahalliy koloritni yaratish, hayotning realistik tasvirini chizishga yordam beradi. Shuningdek, shevadagi so'z va adabiy tildagi so'z ifodalagan tushunchalarda ayrim nozik farqlar mavjud bo'lganda ham yozuvchi shevadagi so'zlarni afzal ko'rishi mumkin.

Shuningdek, Ismoil Ollaberganning "To'y noni" hikoyasining boshlanishidayoq Xorazm shevalaridan eng mashhurlarini o'zida jamlagan o'g'uz lahjasi elementlari ko'rinib turadi.

Ismoil Ollabergan ijodida dialektalizmning grammatik, leksik va fonetik kabi turlarining barchasi mavjud. Ayniqsa, fonetik dialektalizmlar faol qo'llangan. Chunki Xorazm shevasida eng ko'p uchraydigan dialet bu tovushlar o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan fonetik dialektalizmdir. Quyida "To'y noni" hikoyasidagi fonetik o'zgarishda bo'lgan sheva so'zlarni adabiy tildagi muqobilini va xususiyatlarini yoritamiz.

-Galdingizmi, xo'jayin?!

-Galdim, Maralim!

Hikoyadan olingan yuqoridagi dialogda ham fonetik dialektalizmlar ko'rinadi, ya'ni k tovushining g tarzida talaffuzi va e harfining a harfiga almashinishi uchraydi. Bu so'zlar adabiy tilda keldingizmi, keldim kabi so'zlar hisoblanadi. Shuningdek, hikoyadagi bosh qahramonning ismidan ham Xorazm shevasi elementlari sezilib turadi. Jumladan, Ovodon ismi Xorazm hududida tug'ilgan qizlarga qo'yiladi. Bundan tashqari, qahramonning laqabi kabi qo'llaniladigan "Maral go'zli Ovodon" birikmasida ham sheva elementlari mavjud, ya'ni ko'z so'zining go'z deb qo'llanilishi.

Ovodonning ko'zlari ohunikiga mengzalgani uchunmi yo go'zalligi boismi uni "Maral go'zli Ovodon" deb ham qo'yishadi.

Yuqoridagi gapda mengzamoq so'zi Xorazm shevasiga mansub bo'lib, o'xshatmoq so'ziga mutanosib va bu so'z hozirda Xorazm shevasidan adabiy tilga ham ko'chib o'tgan hamda faol qo'llanadi.

Ilon-chayonlarning ham jufti bo'ladi. Qisinma, deydi Durxi momo qiziga ko'ngil bergan bo'ladi.

Asardan olingan yuqoridagi parchada leksik, ya'ni shevada va adabiy tilda so'zlardagi farq bo'lgan dialektalizm uchraydi. Qisinmoq leksemasi Xorazm shevasiga oid so'z bo'lib, adabiy tilda g'am chekmoq, qayg'urmoq so'zlariga to'g'ri keladi.

Ibi-ey, qo'ysangiza shu gaplarni. Men sizga er dedimmi?! – deya norozi ohangda so'zlanadi Ovodon.

Yuqoridagi parchada persanaj ohangida ham Xorazm shevasining tarovati sezilib turadi. Ayniqsa, Xorazm hududida kirish so'z vazidasida qo'llanadigan qo'ysangiza leksemasi orqali bu yaqqol namoyon bo'lgan. Qo'ysangiza so'zi adabiy

tilda unday qilmang, bo'ldi, aytmang, gapirmang kabi ma'nolarni beradi. Shu bilan birga, "To'y noni" hikoyasida govmush, gurunglashgisi kabi sheva so'zlari qo'llangan bo'lib, ular leksik dialektalizmga misol bo'ladi. Xorazm shevasiga mansub govmush so'zi adabiy tilda sigir leksemasiga mos. Gurunglashmoq so'zi esa gaplashmoq, so'zlashmoq leksemalariga mutanosib.

Tog' yonbag'irlarida yelib-yugurib chillak o'ynayotgan bolalar, jiyanlari bilan bozbarak uchirayotgan qo'shni qiz govmushini o'tlatib o'tirgan Kenja bobo...

2. Five essential financial controls every company needs (2023) eftsure. Available at: <https://eftsure.com/blog/processes/five-essential-financial-controls-every-financial-leader-must-implement/> (Accessed: 01 May 2024).
3. What is an audit? - types of Audits & Auditing Certification | ASQ. Available at: <https://asq.org/quality-resources/auditing> (Accessed: 03 May 2024).

AVTOMOBIL DETALLARINI YEYILISHIGA QARSHI METODLAR

To'rayev Shahzod Muyiddin o'g'li

Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti,

Muhandislik texnikasi fakulteti, Transport vositalari

muhandisligi kafedrasi o'qituvchisi

Anotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida avtomobil detallarining yeyilishiga bardoshlilikini oshirish haqida so'zlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Avtomobil, detal, yeyilish, metodlar, bardoshligi, material, ilmiy maktablar, maqolalar. akademiklar.

Annotation: This article talks about increasing the corrosion resistance of car parts in the Republic of Uzbekistan.

Key words: Car, detail, consumption, methods, endurance, material, scientific schools, articles. academics.

Аннотация: В данной статье говорится о повышении коррозионной стойкости деталей автомобилей в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Автомобиль, деталь, расход, методы, выносливость, материал, научные школы, статьи. академики.

Materiallarning ishqalanish va yeyilishini tadqiqot qilish, yeyilishga chidamli materiallarni yaratish bo'yicha qator ilmiy maktablar va yetuk olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormokdalar. Bulardan akademiklar S.S.Negmatov, R.G.Maxkamov, professorlar S.M.Kodirov, A.B.Jumaboev, K.X.Maxkamov, T.S.Xudayberdiev va boshqalarning bu borada olib borayotgan samarali ishlarini ko'rsatish mumkin.*1-2]

Materiallarning ishqalanishida ularning o'zaro ta'sirlashuvining ikki turi, ya'ni mexanik (botib kirish) va molekular (tortilish va ilashib qolish) o'zaro ta'sirlashuvlar sodir bo'ladi. Botib kirish ishqalanuvchi sirtlar mexanik xossalari bir xil emasligi, qattiqligini har xilligi bilan belgilanadi.[15-16]

Molekular o'zaro ta'sirlashuv materialning sirtqi qatlamlari plastik deformatsiyalanganda yuz beradi. Bunday sharoitlarda atom va molekular bog'lanishlar yuzaga keladi. Materiallar xossalarning o'zgarishiga o'zaro tutashuvchi sirtlarning harorati ham ta'sir qiladi. Agar o'zaro ta'sir joyida u rekristallanish haroratidan oshib ketsa, sirtqi katlamlarning qayishqoqligi ortishi mumkin. Ayniksa, material plastik deformatsiyalanganda diffuzion jarayonlar tezlashadi. Metalning sirtqi qatlamlari kislorod bilan to'yinib mo'rt kimyoviy birikmalar yoki yuqori qattiqlikdagi o'ta to'yingan qattiq eritmalar hosil qiladi. Metalning mo'rt oksid pardasi (po'stlog'i)

ishqalanish jarayonida tez yemirilib, metalning yangi qatlamlari ochilib qoladi va oksidlanish jarayoni takrorlanadi.

Qizish va sovish jarayonida sirtqi qatlamda cho'ziluvchi ichki zo'riqishlar yuzaga kelib, ular juda kichkina darzlar paydo bo'lishiga va metalning yemirilishiga olib keladi. Amalda esa yeyilishning har xil turlari bir vaqtda kechadi va ularning har biri o'ziga xos natijani beradi. Ammo jarayonlardan bittasi hamisha ustun bo'lib, yetakchi jarayonga aylanadi va sirtning eng ko'p uchraydigan yeyilishini keltirib chikaradi.*17-18]

Ma'lumki metallarga nisbatan polimerlar elastik modulining, issiqlikka chidamliligi va issiqlik o'tkazuvchanligining pastligi, chiziqli kengayish koeffitsientini yuqoriligi, oquvchanligi, relaksatsiyaga moyilligi va boshqa xossalari bilan ajralib turadi.[4-5] Polimer va metal ishqalanuvchi juftligida ishqalanish koeffitsienti asosan sirtida hosil bo'lgan yupqa pardalarni qirqilishiga qarshiligi bilan aniqlanadi. Metal sirti qancha toza bo'lsa polimerning yeyilishi ham shuncha kam bo'ladi.

Yuqori yuklama va xarakat tezliklarida polimerlarning ishqalanish va yeyilishga bardoshligini oshirish uchun ularning tarkibiga har xil to'ldiruvchilar qo'shiladi. Bunday qo'shimchalar asosan sinchlovchi, antifriksion, issiqlik o'tkazuvchan, issiqlikka bardoshli, yeyilishga bardoshli qilish vazifasini bajaradi. Masalan, antifriksion va yeyilishga bardoshli to'ldirgichlar sifatida grafit, molibden disulfidi, talk, metallar oksidlari, kaolin, fosfagips, qurim, shisha tolasi, asbest va boshqalar ishlatiladi. Polimerlarning issiqlik va elektr o'tkazuvchanligini oshirish uchun mis, alyuminiy, bronza, temir, qurim, grafit kukunlari va boshqalar ishlatiladi. To'ldirgichlar sifatida barcha organik va anorganik moddalar hamda ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik chiqindilari ishlatilishi mumkin.[6-7]Ishqalanish koeffitsienti va yeyilishga nafaqat to'ldirgichning turi, balki uni kompozitsiyadagi mikdori ham katta ta'sir etadi. Buning uchun ularni eng makbul mikdorlari tajriba orkali aniqlanadi.

Polimer tarkibiga to'ldirgichlarni aloxida-aloxida qo'shib zarur xossalarga erishish qiyin, shuning uchun to'ldirgichlarning bir nechtasining aralashmasi ishlatiladi. Masalan, epoksid polimerning ishqalanish koeffitsienti va yeyilishini kamaytirish uchun ma'lum mikdorda grafit va talk, fasfogips, grafit va qurim, asbest va talk kabi qo'shimchalar aralashmalari ishlatiladi.

Antifriksion materiallar sifatida termoplast polimerlar ichida nisbatan ko'p qo'llaniladigani poliamidlardir. Poliamidning kapron P- 66, P-68, kaprolon V va boshqa turlari bor. Ular - 400S dan + 800S gacha haroratda ishlatiladi (1-jadval).Poliamidning po'lat bilan ishqalanish koeffitsienti $f = 0,1-0,2$ (moysiz), moyliishqalanishda $f = 0,05-0,1$ va suvli ishqalanishda $f = 0.08-0.15$ ga teng. Agar uning tarkibiga to'ldirgichlar qo'shilsa xossalari 2-3 barobar yaxshilanadi. Avtomobilsozlik va mashinasozlikda antifriksion materiallar sifatida ftoroplast va uning kompozitsiyasi keng qo'llaniladi. [7-8]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/download/9773/6465/6222>
2. Kosimov I., SHokirov SH. «UzDEU» avto kushma korxonasi avtomobillari dvigatellari detallarining yeyilishiga bardoshlilikini oshirish. // Ma'kuraviy jarayonlar va Uzbekistonda fanlar rivojining dolzarb muammolari. Ilmiy tuplam. Andijon, AndMII. 2002, S. 18-519
3. Usmanov D.I. O'zbekiston respublikasi avtomobil transporti harakatlanuvchi tarkibiga TXK va T to'g'risidagi Nizom.-Toshkent, 1999

ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ

Бозорова Гульзебо Эшмаматовна
учитель русского языка 28-й школы управления
дошкольного и школьного образования
Гузорского района Кашкадарьинской области.

Annotatsiya: Mazkur maqolada sog`lom turmush tarzini inson salomatligiga ta`siri hamda zararli odatlarni to`xtatish haqida fikr yuritildi.

Kalit so`zlar: Sog`lom turmush tarzi,alkagol,chekish,odatlar,sog`lik

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние здорового образа жизни на здоровье человека и отказ от вредных привычек.

Ключевые слова: Здоровый образ жизни, алкоголь, курение, привычки, здоровье.

Abstract: This article discusses the influence of a healthy lifestyle on human health and giving up bad habits.

Key words: Healthy lifestyle, alcohol, smoking, habits, health.

Исторически корни науки о здоровом образа жизни были оформлены в виде традиционных систем поведения, образа жизни, питания, которые в дальнейшем были в той или иной форме отражены в религиозных наставлениях, священных книгах и т.п. В период расцвета греческой и римской культуры сформировалась гигиена, ставшая впоследствии одной из медицинских научных дисциплин. Здоровый образ жизни — образ жизни отдельного человека с целью профилактики болезней и укрепления здоровья. Здоровый образ жизни помогает нам выполнять наши цели и задачи, успешно реализовывать свои планы, справляться с трудностями, а если придется, то и с колоссальными перегрузками. Крепкое здоровье, поддерживаемое и укрепляемое самим человеком, позволит ему прожить долгую и полную радостей жизнь. Здоровье — бесценное богатство каждого человека в отдельности, и всего общества в целом. При встречах и расставаниях с близкими нам людьми мы всегда желаем им хорошего здоровья, потому что это — главное условие полноценной и счастливой жизни. Пристрастие к употреблению психоактивных вещества (наркотиков)- болезненное влечение, которое приводит к тяжелым нарушениям, в первую очередь, психических и физических функций организма. Ни для кого не секрет, что наркотики это яд. Независимо от принимаемого количества, они наносят непоправимый ущерб нашему здоровью. Принято считать, что наркотикам должны быть присущи три признака: это вызывание постепенного привыкания, это физическая и психологическая зависимость.

Физическая зависимость выражается в том, что в отсутствие наркотика состояние наркомана резко ухудшается, появляется боль, тошнота, рвота, нарушения со стороны внутренних органов, то что в просторечии называется «ломкой». Психологическая зависимость проявляется в готовности наркомана пойти на все, лишь бы снова получить наркотик. Главная опасность наркотических веществ в том, что после приема появляется непреодолимая тяга к повторному их употреблению, причем наркоман уже не думает о смертельно опасных последствиях, которые таит в себе наркотик. Все наркотики независимо от пути введения в организм в большей или меньшей степени обязательно повреждают: нервную систему (в том числе головной мозг); иммунную систему; печень; сердце; легкие. В настоящее время курение глубоко вошло в быт многих людей, стало повседневным явлением. Несмотря на борьбу общественности, введением новых требований «антитабачного» закона, часть населения все равно остается активными курильщиками, при этом все осознают, что никотин сильнейший яд. Кроме никотина, отрицательное воздействие оказывают и другие составные части табачного дыма. При поступлении в организм окиси углерода развивается кислородное голодание, за счет того, что угарный газ легче соединяется гемоглобином, чем кислород и доставляется с кровью ко всем органам и тканям. Частое и продолжительное курение сопряжено с проявлениями физического дискомфорта: утреннего кашля, головной боли, резких неприятных ощущений в области желудка, сердца, потливости, колебаниях артериального давления, потере сна, аппетита, снижении памяти. Человек становится нервным, раздражительным. Кроме того, курящие подвергают опасности не только себя, но и окружающих людей. Вдыхание задымленного табачного воздуха (пассивное курение) приводит к тем же болезням, которыми страдают курильщики. Курильщик вдыхает дым, который прошел через фильтр сигареты, в то время как некурящий вдыхает абсолютно неотфильтрованный дым. Этот дым содержит в 50 раз больше канцерогенов, вдвое больше дегтя и никотина, в 5 раз больше окиси углерода и в 50 раз больше аммиака, чем дым, вдыхаемый через сигарету. Поэтому прекращение курения является обязательным условием здорового образа жизни. Физическая нагрузка улучшает общее состояние организма и работу лимфатической системы, выводящей токсины из организма. Согласно исследованиям, люди, регулярно занимающиеся спортом, болеют простудой на 25% реже, чем те, кто не ведет здоровый образ жизни. Тем не менее, не стоит слишком усердствовать. Всего 30-60 минут спорта в день позволяет вас стать здоровее, в то время как более серьезные нагрузки сделают вас слабее. Обязательно включайте в программу отжимания – они способствуют лучшей работе легких и сердца. Обязательно делайте упражнения на пресс — это улучшит работу желудочно-кишечного

тракта и мочеполовой системы Ежедневная утренняя зарядка— обязательный минимум физической нагрузки на день. Необходимо сделать её такой же привычкой, как умывание по утрам. Здоровое питание – понятие очень обширное (об этом написаны объёмные научные труды), однако основные принципы рационального подхода к пище следующие:

- Ограничение животных жиров;
- Включение в меню повышенного количества растительных продуктов;
- Исключение из повседневного рациона «быстрых» углеводов – сладостей, сдобы, газировки, фаст-фуда, чипсов и прочей «мусорной» еды;
- Переход на дробное питание (небольшое количество пищи за один прием);

Какие продукты богаты витаминами – этот вопрос очень часто волнует людей, которые заботятся о своём здоровье. Ведь, как известно, основным источником необходимых человеку веществ, без которых были бы невозможны практически все физиологические процессы в человеческом организме, является пища. А правильно сбалансированное питание может обеспечить организм необходимой нормой витаминов и минералов. Ни один из витаминов не синтезируется организмом человека самостоятельно. К тому же, из полутора десятков витаминов, в которых нуждается человек, лишь пять являются жирорастворимыми (то есть имеют способность накапливаться в печени и жировой части на более продолжительное время), остальные же – водорастворимы, то есть, выводятся водой при избытке, а потому требуют регулярного ежедневного восполнения. Чтобы помочь вам сбалансировать свой рацион, попытаемся подсказать вам, какие же продукты особенно богаты нужными нам витаминами.

Литература

1. Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития / Андреев В.И. - Казань, 2004. – 608 с.
2. Атаханова С. Некоторые факторы формирования сознания здорового образа жизни студенческой молодежи / С. Атаханова // Молодой ученый. - 2011. — №5. Т.2. — С. 118-120.
3. Баянова Л.И. Здоровый образ жизни учащихся как составная часть валеологической культуры / Баянова Л.И. - Актуальные проблемы педагогической науки. – Казань, 2000. – с.121-122.
4. Здоровый образ жизни и его значение для здоровья. // Физическая культура и спорт XXI века: Материалы Регионал. научно-практ. конф. - Красноярск 2002. - С.260-262

MASALALARNI TENGLAMALAR SISTEMASI YORDAMIDA YECHISH

Xusanova Nilufar Eshtemirovna

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani

Maktabgacha va Maktab Ta'lim Bo'limiga qarashli

28-maktab Matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada masalalarni tenglamalar sistemasi yordamida yechish usullari haqida fikr yuritildi.

Kalit soʻzlar: Tenglama, operator, belgilash, taqqoslash, tekshirish, yechim, bajargan ishi, sistema.

Masala — muayyan bilim va tafakkur asosida hal qilinishi lozim boʻlgan narsa, muammo. Masala tushunchasi deyilganda— umumiy oʻrta taʼlim maktablari , oʻrta maxsus oʻquv yurtlari va oliy oʻquv yurtlarida oʻquvchilarga, talabalarga muayyan fanlardan bilim berish, bilimlarni mustahkamlash, tekshirish va ularda koʻnikmalar hosil qilish metodlaridan biri tushuniladi. Har bir masala oʻrganilayotgan mavzu mazmunini oydinlashtirish bilan birgalikda kishini yangi voqea va undagi ichki mantiqiy bogʻlanishlar bilan tanishtiradi. Fan boʻyicha olgan bilimlarini sistemalashtirib, mustahkamlaydi oʻz mazmunini hayot voqealari bilan bogʻlab tushunishga qiziqtiradi. Ularning yechimi kishilarga shingil xabarlar berib, qoʻshni fanlar mazmunini tushunishga yordam beradi. Masalalar yechish ularning mantiqiy fikrlashlarini, keng dunyoqarashni, ijodiy tashabbuskorlik harakatlarini, fahm farosatlarini, ziyaklik, sezgirlik qobiliyatlarini oʻstiradi va ularda amaliy zarur mahorat va malakalar hosil qiladi.

Tenglamalarni qoʻllash koʻpgina masalalarni osonlashtiradi. Bunda masalani yechish odatda ikki bosqichdan iborat boʻladi:

- 1) masalaning sharti boʻyicha tenglama tuzish;
- 2) hosil boʻlgan tenglamani yechish.

Ushbu masalani yechaylik.

Masala. Sayyohlar tushgan kema sohildagi bekatdan daryo oqimi boʻyicha joʻna b 5 soatdan keyin qaytib kelishi kerak. Daryo oqimining tezligi 3 km/soat; kemaning suvdagi tezligi 18 km/soat. Agar sayyohlar qaytishdan oldin qirgʻoqda 3 soat dam olgan boʻlsalar, ular sohildagi bekatdan qancha masofaga suzib borganlar?

Izlanayotgan masofa x kilometr boʻlsin. Kema bu masofani oqim

bo'yicha $18+3=21$ km/soat tezlik bilan o'tadi va $\frac{x}{21}$ soat sarf qiladi. Kema $18-3=15$ km/soat tezlik bilan orqasiga qaytadi va bunda $\frac{x}{15}$ soat sarf qiladi. Sayyohlar qirg'oqda 3 soat dam oladilar. Demak, sayohat $(\frac{x}{21} + \frac{x}{15} + 3)$ soat davom etadi, bu esa masala shartiga ko'ra 5 soatga teng. Shunday qilib, biz noma'lum x masofani aniqlash uchun quyidagi tenglamani hosil qildik:

$$\frac{x}{21} + \frac{x}{15} + 3 = 5$$

2) endi

$$\frac{x}{21} + \frac{x}{15} = 2$$

tenglamani yechamiz.

Bu tenglamaning ikkala qismini 105 ga (21 va 15 sonlarining eng kichik umumiy bo'l uvchisiga) ko'paytirib, $5x+7x=210$, $12x=210$ tenglikni hosil qilamiz, bundan $x=17,5$.

Javob: kema sohildagi bekatdan 17,5 km masofaga suzib boradi.

Masalani yechishning birinchi bosqichida (ya'ni tenglama tuzishda) kema bilan daryo oqimi tezliklari oqim bo'yicha harakatda qo'shilishi, oqimga qarshi harakatda esa ayirilishi va tezlikka bo'lingan yo'l harakat vaqti ekanligini bilish zarur bo'ladi.

Ikkinchi bosqichda (ya'ni hosil bo'lgan tenglamani yechishda) tenglamalarning bundan bundan oldingi paragrafga o'rganilgan xossalarni qo'llash talab etiladi.

Matnli masala mazmuniga mos tenglama tuzish – masala shartini „matematika tili“ ga o'tkazish – masalaning matematik modelini tuzish demakdir. Bitta masalani hal qilish uchun turli tenglama, turli matematik model tuzish mumkin.

Masalaning shartidan foydalanib, yechimning to'g'riligini tekshirish mumkin. Bunda topilgan natijani ma'lum deb qarab, berilgan biror boshqa kattalik topiladi.

➡ Masalan, masala yechimining to'g'riligini bunday tekshirish mumkin.

Sayyohlar sohildagi bekatdan 17,5 kmga suzib bordilar. Demak, ular daryo oqimi

bo'yicha $17,5:21=\frac{5}{6}$ soat suzadilar. Sayyohlar qaytish uchun $17,5:15=$

$1\frac{1}{6}$ soat vaqt sarfladilar.

Ular qirg'oqda 3 soat dam olganliklari e'tiborga olinsa, sayohatga ketgan umumiy

vaqt $\frac{5}{6} + 3 + 1\frac{1}{6} = 5$ soat, ya'ni masala shartidagi kabi bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normatov, A. (2022). SPATIAL OBJECTS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 586-590. <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/180>
2. Normatov, A. (2022). About the emergence of geometry. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(7), 268-274. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/2200>
3. Normatov, A. A., Tolipov, R. M., & Musayeva, S. H. Q. (2022). МАКТАБЛАРДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ О ‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5). 1068-1075.

BIOLOGIYANI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Sulaymonova Dilorom G'ayratovna

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani

Maktabgacha va Maktab Ta'lim Bo'limiga qarashli

28-maktab Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot jarayonida zamonaviy metodlar yordamida biologiya fanini o'qitishning xususiyatlari tahlil qilib o'tildi. Biologiyani o'qitish metodikasi pedagogika fani sifatida didaktika bilan uzviy bog'liqdir. Biologiya o'qitish metodikasi maktab biologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim va tarbiyaning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining nazariy va amaliy muammolarini ishlab chiqadi.

Kalit so'zlar: metod, uslub, o'qitish metodikasi, didaktik usullar, biologiya, botanika, zamonaviy metodlar, pedagogik yondashuv, psixologik holat.

Аннотация: В ходе данного исследования были проанализированы особенности преподавания биологии с использованием современных методов. Методика преподавания биологии как педагогической науки неразрывно связана с дидактикой. Основываясь на уникальных особенностях школьной биологии, методика преподавания биологии разрабатывает теоретические и практические проблемы содержания, форм, методов и средств обучения и обучения.

Ключевые слова: метод, стиль, методика обучения, дидактические методы, биология, ботаника, современные методы, педагогический подход, психологическое состояние.

Abstract: During this study, the features of teaching biology using modern methods were analyzed. The methodology of teaching biology as a pedagogical science is inextricably linked with didactics. Based on the unique features of school biology, biology teaching methods develop theoretical and practical problems of content, forms, methods and means of teaching and learning.

Key words: method, style, teaching methods, didactic methods, biology, botany, modern methods, pedagogical approach, psychological state.

Bugungi kunda rivojlanayotgan umumiy o'rta ta'lim tizimida biologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muammosi ta'lim miqyosida dolzarb hisoblanadi. Biologiyaning rivojlanishi va uning yutuqlarini jamiyat hayotiga tatbiq etilmoqda. Binobarin, maktabda biologik ta'limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Yosh mutaxassisni tayyorlash jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning

qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasi asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq. Biologiyani o'qitish texnologiyalariga didaktik o'yin texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyalari va a'nanaviy texnologiyalar kiradi [1]. Biologiyani o'qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan "Klaster" "Venn diagrammasi" va "Atamalar zanjiri" kabi texnologiyalardan foydalanish zarur. Klasterdan foydalanishda sinf o'quvchilarini teng sonli guruhlariga bo'linadi, o'zlari klaster tuzib himoya qilinadi hamda eng yaxshi klaster tuzgan va yaxshi ta'riflagan guruh g'olib deb aniqlanadi [3]. Venn diagrammasi fakt tushunchalarni tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash ishlari olib boriladi. Atamalar zanjiri bu darslikdagi atamalar ro'yxati va ularning ta'riflari haqidagi texnologiya. Bu texnologiyada o'quvchilar guruhlariga bo'linadi. O'quvchilar atamalarga ta'rif berishlari yoki ta'riflar orqali atamalarni topishi kerak bo'ladi. Bu usul xotirani mustahkamlashda foyda bo'ladi [4]. Biologiyani o'qitishning eng samarali usullaridan biri axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Bularning vazifalari: Ta'limiy vazifasi – bu o'rganilayotgan mavzuni tushunchalar va ularning izohlari jadvallar, diagramma, asosiy qo'shimcha materiallar yordamida tushunishiga yordam beradi. Ko'rgazmalilik vazifasi – animatsiyalar o'quvchilar tomonidan biologiyaviy jarayonlarni harakat va dinamik tasvirlash imkoni mavjud. Nazorat vazifasi – o'quvchining qay darajada o'zlashtirgani, baholash tizimi haqqoniy bo'lishiga zamin yaratadi. Rivojlantiruvchi vazifasi – vazifalar qiyinlik darajisidagi tartibda qo'yilib o'quvchining bilmaganlarini izlab o'rganishiga o'tilgan mavzularni mustahkamlashga zamin yaratadi. Tarbiyaviy vazifasi – aqliy va o'quv ko'nikmalarini o'zlashtiradi. Biologiyani o'qitishda quyidagi axborot texnologiyalari mahsulotlaridan foydalanish mumkin: 1. mavzuga doir taqdimot tayyorlash; 2. qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar tayyorlash; 3. test savollari tuzish; 4. krossvord tayyorlash; Bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri maktablarda axborot texnologiyalarini yetishmovchiligida, laboratoriya jihozlari, kimyoviy

moddalarinig yetishmovchiligidir. Hozirgi muammolardan biri darslarni tashkil etishda o`qituvchi didaktikadan ishlab chiqilgan ta`lim mazmunini o`qitish metodlari va vositalarning uzviyligik prinsipiga amal qilish mavzulari rejada pedagogik texnologiyalarning qaysi turlarini foydalanishi o`quv yili boshida belgilash kerakligidadir [2]. Axborot texnologiyalarining eng qulay tarafi hozir O`zbekistonda ham onlayn ta`lim rivojlanib bormoqda. Bu ta`lim tizimida axborot texnologiyalarning o`rni juda katta bo`lib bunda o`quvchi uydan chiqmagan holda darsni o`zlashtirishi lozim. O`qituvchi dars o`tishida ham o`quvchi darsni tushunishida ham yangi zamonaviy texnologiyalarning mavjudligi juda muhimdir. O`qituvchilar axborot texnologiyalari orqali taqdimot, video, jadval, tarqatma materiallar, multimedia tayyorlashlari va prezentatsiya vositalari yordamida o`quvchilarga yetkaza olishlari ularning pedagogik mahorati nechog`li yuqoriligidan dalolat beradi [2]. Xulosa qilib aytganda biologiya fanlarini o`qitishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda muammolar mavzusida shunday fikrlar kelib chiqadiki, biologiya fanlarini o`qitishda pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalarini birga olib borish o`quvchilarni o`zlashtirish salohiyatini yanada oshiradi. Biologiya tabiiy fanlar qatoriga kirgani sababli biologiya fanini yaxshi o`zlashtirishda tabiiy narsalardan foydalanish misol uchun ra`nodoshlar oilasi mavzusi o`tilayotgan bo`lsa ra`nodoshlar mavzusiga oid meva, gul, barg, poya, ildizlar asosida dars o`tilsa yanada samarali bo`ladi. Bundan ko`rinib turibdiki o`quvchi kitobda o`qigan malumotni, slaydda ko`rgan malumotni, ishlagan testlarda ega bo`lgan tushuncha tabiiy o`z ko`zi bilan ko`rsa o`quvchida o`zlashtirish qobiliyati ikki hissa ortadi.

REFERENCES:

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. -T.: O`z MU. 2003.- 66 b.
2. Rizoqulovna, B. M. T. (2021). BIOLOGIYA FANINI O`QITISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI. Eurasian Journal of Academic Research, 1(9), 21-24.
3. Аминжонова, Ч. А., & Мавлянова, Д. А. (2020). Методика преподавания предмета "биология" в системе высшего медицинского образования. методологические и организационные подходы в психологии и педагогике, 8-11.

HAZRAT FAKIRI - BRIGHT CREATORS WHO APPEARED IN UZBEK LITERATURE

*Sharofa Rashidova branch SamDu Urgut well.
Assistant Pedagogical Faculty Yazykov Yakubova S.Kh.
1 st year student of Urgut branch of Samarkand State University
Alieva Aziza*

Аннотация: В данной статье творчество Фахири является новинкой в литературе, а его наследие своим орифонным содержанием и романтическим духом заполняет страшную брешь в узбекской литературе колониального периода. В конце 19-го и начале 20-го веков в Шахрисабзе родились и жили здесь несколько поэтов и писателей. Среди них добродетельными художниками были Мирза Умрбаки Шахрисабзи-Самарканди (1878-1957), Файзуллахходжа Равнаки (1892-1978), Исмаилхан Факири-Шахрисабзи и др. Среди этих писателей говорят, что литературное наследие Исмаила Хана Факири важно и что примеры его произведений дойдут до литературных людей.

Abstract: In this article, Fakhiri's work is a novelty in literature, and his legacy, with its oriphonic content and romantic spirit, fills a terrible gap in Uzbek literature of the colonial period. At the end of the 19th and beginning of the 20th centuries, several poets and writers were born and lived here in Shakhrisabz. Among them, virtuous artists were Mirza Umrbaqi Shakhrisabzi-Samarkandi (1878-1957), Faizullahkhoja Ravnaki (1892-1978), Ismailkhan Fakiri-Shakhrisabzi and others. Among these writers they say that the literary heritage of Ismail Khan Faqiri is important and that examples of his works will reach literary people

Ключевые слова: создатель, значение орифоны, романтический дух, просветительская поэзия, деванская литература, владелец девана, концепция баяза.

Key words: creator, meaning of oriphon, romantic spirit, educational poetry, Devan literature, owner of the devan, concept of bayaz.

In recent years, in our country, research, translation, interpretation of manuscripts of Uzbek literature, writing scientific conclusions about works, creating critical texts of poets' sofas, studying their linguistic and poetic features have become the most important and urgent task of domestic literary criticism. In literary studies, the study of the influence of mystical literature on classical literature remains one of the main issues. Especially in Muslim countries, the influence of the literature of the Holy Quran, the ideas of Hadith and Tariqa, as well as the expression of many mystical themes through classical poetics are becoming increasingly important in the ideological

improvement of our literary studies. In recent years, the field of literature, along with all other sciences, has received special attention. The great creator of Uzbek enlightened poetry of the twentieth century, a modest representative of Devan literature, Allama and Sheikh, the perfect murshidi of the Naqshbandiya sect, a descendant of the Prophet, poet, creator, poet and patient

In particular, Professor Shodmon Vakhidov and a young scientist Masudkhan Ismaili, the grandson of the writer, wrote a number of scientific articles on the creation of a large amount of information about this writer.

His Highness Fahiri was a contemporary of such writers as Oybek, Ghafur Ghulam, Sheikhzadeh, Habibiy, but since his sheikh, Islamic life and works were based on divine enlightenment, their names and works never appeared. They showed carefree patience: "They will find a buyer for our hazfpora as well." Here, by the grace of God, a buyer was found for the writer's work. At the time of independence, he demanded his inheritance. A clear green peak appeared among the mountains familiar to the eye. Literary critics are also increasingly interested in literary works.

Of course, it can be assumed that the surnames and nicknames of the author, who used his pen in any field of literature, will not leave the reader indifferent. Their full names are Ismail Khan ibn Ibrahim Khoja ibn Hidayatullah ibn Mirza Kalon Abdul

When they met the poet Habibiy in Tashkent, they felt that the nickname "Fakiri" did not correspond to the ideology of that time, so they chose the nickname Khalili for him. Out of respect, Fakiri writes a poem under this pseudonym and dedicates it to Habibi. After that, they will remain faithful to the nickname "Fakiri".

Ismail Khan Fakiri was born in Shakhrisabz in 1910 AD, 1328 AH. They are separated from their fathers at the age of three and from their grandfather at the age of four. Adib died in 1980 in the village of Sariosiya, Kitab district, Kashkadarya region. His descendants currently reside at this address.

The birthplace of His Holiness Fakir is the city of Shakhrisabz, one of the ancient centers of science in Central Asia.

The suffix "Shakhrisabzi" in their names is not a special poetic nickname, but evidence of belonging to this Homeland, the birthplace of His Holiness Fahiri is the city of Shakhrisabz, one of the ancient centers of science in Central Asia. Shakhrisabz maintained its educational position even after

The suffix "Shakhrisabzi" in their names is not a special poetic nickname, but a certificate of belonging to this Homeland. The poet's grandfather was Mufti Inayatullah Khoja Orak ibn Mirza Kalani Shahrissabza. Their father, Ibrahim Khoja Orok, was an imam khatib, the city representative (orokh) of the emir's government and the head of the madrasah in Shakhrisabz, built by Mirza Ulugbek in the XV century. After the death of his father in 1914, three-year-old Ismail Khan remained under the care of his grandfather Inayatullah Khoja. After his death, a loving mother made great efforts in

raising a four- to five-year-old boy, sent him to school and instilled literacy. When the Shura government is formed and Islamic schools are closed, they continue their education. Their mother was an educated woman who wrote poetry under the pseudonym Makhzuna. In the prelude of the Bayaz veteran, they mention their mothers with great respect. When Najmiddin Khoja's brothers were imprisoned under the Soviet regime, they performed musadas on behalf of their parents at the request of their mother. They are in it

When Ismail Khan was nine years old, he began to study Navoi. This is not a joke. To understand Navoi, it is necessary to know the Turkish-Uzbek language, as well as Arabic and Persian dictionaries. Compared to this, the young Ismailkhan Fahiri, although he himself: "What are you doing? Although they modestly call themselves literate, it is clear how talented and mature they are.

If you look at the literary environment of Shakhrisabz of the twentieth century, you will be happy to see that here is pure literature that has protected itself from the quagmire of colonial politics, far from praise and flattery. Even the poor were not interested in pomp and pageantry, titles and positions, they lived steadfastly in faith and are faithful to classical poetry, because poets know well that life does not consist of today. Times are changing. Over time, literary knowledge and passion for creativity will increase. It would be an exaggeration to say that he was among such great people as Haji Mirza Hamiduddin Makhdoom Hamidi, his uncles Shukrullah Khoja Khone, grandfathers Inayatullah Khoja Orokh Jurmi,

Devonian literature does not mean court literature or court poets. Maybe it's the other way around. Devonian literature is an Islamic literature that originated in the 11th century in Movarunnahr (on the territory of modern Uzbekistan) during the Karakhanid period, benefited from Islamic culture and, consequently, was influenced by Arabic and Persian literature. This classical literature, which has absorbed the meanings of the Holy Quran and Hadith, is based on the hadith that "metaphor is the bridge of truth," that is, it sings the truth through metaphor, glorifies divine love as a justification for metaphorical love. .

Fahiri is one of the last outstanding representatives of such literature. The reason why we say "newest" is that Islamic knowledge was banned in the Shura system, mystical poetry was also banned, even in the 1930s, 1940s and 1950s, it was forbidden to write aruz-weight, and gradually sofa literature almost disappeared. . The mystical meaning of usco

But after studying the book, we dared to call him "Sahib Diwan".

Speaking of Devoni Fakiri, it is impossible not to mention his stories. Fahiri Bayozi was composed in 1950-1965 and consists of poems selected and sorted independently. Devon includes almost all types of classical poetic art: ghazal, Muhammad, musaddy, musabba, muzambal, mustakhzad, masnavi, rubayot and kitas.

The book contains a number of tatabbu and tazmin, as well as humorous poems by Muwashshah and Mutayibat. Most of the poems are original works of art.

According to Devonian tradition, just like Navoi, Fuzuli and Nadira, Fakiri also wrote prefaces to his devons. There is a matla in the prelude, which begins with the name of Allah the Merciful and Merciful and continues with the praise of the Almighty and the blessing of His Messenger. In it, with the high manners and modesty characteristic of the keepers, a brief biography of the poet and the desire to leave the monument in the world are described. But even in the modesty of a poet with And there will be a suitable buyer for these things. For example,

Navoi says:

There is a buyer of cypress tulips,

There is also a market in Lek Tikon. In other words, they have a special opinion that the thorn has its place, just as every flower has its buyer. Interest in the work of His Holiness the Fakir has also increased in this place.

The devan begins with ghazals praising the power and art of God, praying to Almighty God and praising the Holy Prophet. Indeed, this is the etiquette and tradition of classical Devan literature.

Turkish gazelles such as "Paido", "Yo Rab", "Boldim" and "Zulfing girihi", "Sunung Sani...", mustahzadi, "Jamil", "Hasrat", "Chi Shudi" in Persian? Musaddasi and Kunand by radifli tazmini musabbas are the royal works of His Holiness Fakir.

Lutfi, Fuzuli, Hilali, Amiri (Amir Umarchan), Furkat, Sayyid Ahmad Wasili, Gulshani, Mullah Arif Gulhani, Mukhlis Namangani, Makhdoom Hamidi, Ulfat (Nusrat), Baki, Tufaili Yusuf Khan Torah Dehlavi, etc. Tazmin, tatabbu and pairava, nap

To prove that Fahiri-Shahrisabzi's literary and aesthetic views consist in presenting Soviet works to readers, promoting morality and religious values in an artistic form;

- the harmony of content and form characteristic of Eastern classical literature, thematic diversity, the positive influence of his literary and aesthetic views on the development of classical poetry in the artist's work, the poetic perfection of the traditions of his predecessors, religious and mystical motifs in the lyrical heritage of the poet, scientific evidence of the consistent continuation of classical literary genres and symbols.

The role of Fakiri's creativity in the history of teaching and the literary environment of that time, copies of the poet's study, their composition, traditions of Zulisanain in the poet's work, mystical and mystical motifs, mystical synthesis of Uzbek ghazals and revealed figurative, religious and philosophical aspects of artistic images, interpretation; a variety of themes in the poet's poetry, genre characteristics,

Used literature:

1. Hasanov A. Urban planning and architecture in the XVI-XIX centuries (on the example of the Kashkadarya oasis): PhD thesis. - Vol.: 2008. p. 200.
2. Ismailov N., Boriev O., Karshi – the ancient city of Uzbekistan. - against: Nasaf, 2006 154
3. Yakubova S.H. Fakiri is a brilliant creator of Uzbek literature as a sheikh, sage and scientist.
– Foreign linguistics and linguodidactics. The home page of the magazine: <https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics>
4. Muhammad Ali Bozhuvani. The history of Nofey. - T.: Academy 2001.284- 5.
Ravshanov P. Sources on the history of Nahab and Kesh. - Against: Nasaf, 2005. p. 120.
6. Ravshanov P. The history of Karshi. Tashkent: - The generation of the new century. 2006. p. 647.7.
Ravshanov P. The history of Kashkadarya - Tashkent; Nauka, 1995. p.784.
8. Ravshanov P. The history of Shakhrisabz. Tashkent: Generation of the New Century, 2011. pp. 548.
9. Kattaev K. Makhdumi Azam and Dahbed. Samarkand Sutdiyan, 1994.- B.73.
10. Fakiri I., Gamidov N. and others. Avlodlar Bayozi-Tashkent Publishing House

О`SPIRINLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Murtazoyeva Gulnora Jovliyevna
Surxondaryo viloyati.Oltinsoy tumani
30-maktab psixologi



Annotatsiya: Ushbu maqolada o`spirinlik davrining psixologik xususiyatlari borasida, shuningdek, ilk o`spirinlar aql–idrokining xususiyatlari haqida atroflicha ma'lumotlar berib o`tildi.

Kalit soʻzlar: O`spirin, aql-zakovat, ma'naviy–psixologik qiyofa, ahloqiy xislatlar–jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mehnatsevarlik, emotsional xislatlar–xushchakchaklik, tetiklik, xazilkashlik va yangilikni xis etish, o`z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar.

KIRISH

O`spirinda o`zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyati hamda imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. Bu yoshdagi o`quvchilarning o`zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular avval, o`zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib qiliqlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo`ladilar. O`spirin o`smirga qaraganda o`z ma'naviyati va ruhiyatining xususiyatlarini to`laroq tasavvur eta olsa ham, ularni oqilona baholashda kamchiliklarga yo`l qo`yadi. Natijada u o`z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, manmanlik, takabburlik, kibrlanish illatiga duchor bo`ladi, sinf va pedagoglar jamoalarining a'zolariga g`ayritabiiy munosabatda bo`la boshlaydi. Shuningdek, ayrim o`spirinlar o`z hatti– harakatlari, aqliy imkoniyatlari va qiziqishlariga past baho beradilar va o`zlarini kamtarona tutishga intiladilar. O`smirlik yoshidagi boladan yana bir xususiyat–murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon xissi, o`z kadrqimmatini e'zozlash, sezish va faxmlashga moyillikdir. Masalan, o`spirin yigit va qiz sezgirlilik deganda nozik, nafis xolatlarning farqiga borish, zaruratni anglash, xolisona yordam uyushtirishni, shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi. O`spirin o`zining ezgu niyatini baholashda jamoada o`z o`rnini belgilash nuqtai–nazaridan yondoshadi, chunonchi, «o`zim tanlagan mutaxassislikka yaroqlimanmi?», «Jonajon Respublikamga, ota-onamga munosib farzand bo`la olamanmi?», «Jamiyatning taraqqiyotiga o`z ulushimni qo`sha olamanmi?» degan savollarga javob qidiradi. O`quvchida o`zining fazilati to`g`risida yaqqol tasavvur hosil qilish uchun o`qituvchi unga juda ustalik,

ziyraklik bilan yordam berishi lozim. Shundagina jamoada ustozga, do`stlariga chuqur xurmat, minnatdorchilik tuyg`ulari uyg`onadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur maqolani yoritish jarayonida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tarixi va ma`naviy merosini o`rganishga oid bergan uslubiy ko`rsatmalari hamda, R.Z. Asomovning “Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi” nomli kitobi tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi bo`lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Ta`lim psixologiyasi va uning xususiyatlari haqida tahlil olib **borildi**.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O`spirin o`quvchida o`zini anglash zamirida o`z-o`zini tarbiyalash istagi tug`iladi va bu ishning yo`llarini topish, ularni kundalik turmushga tadbiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. O`zlariga ma`qul ma`naviy-psixologik qiyofaga ega bo`lish uchun oqilona o`lcham, mezon, vazifalarni bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar.

O`spirinda ideallar bir necha ko`rinishda namoyon bo`lishi va aks etishi mumkin.

Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari timsolida o`zlarida yuksak fazilatlarni gavdalandirishni orzu qiladilar. Bu orzular mazmun jihatidan o`spirin yigitlar va qizlarda farq qilishi mumkin. Masalan, qizlar ko`pincha mehnatkash ayolning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar qahramonining xususiyatlari mujassamlashgan qiyofalarini ideal darajaga ko`taradilar. Ammo ayrim o`quvchilar tarixiy shaxslarning, masalan, baquvvat yo`lto`sar, xiylagar quv josus va boshqalarning salbiy sifatlariga taklid qilishga ham moyil bo`ladilar.

Kuzatishlar va hayot tajribalarining ko`rsatishicha, ba`zi xollarda ilk o`spirinlar o`zlarini qo`rqmas, jasur qilib ko`rsatishga, noo`rin harakatlarga moyil bo`ladilar.

Ilk o`spirinlar ma`naviy xislatlarga, ahloqiy mezonlar mohiyatiga jiddiy munosabatda bo`ladilar. Masalan, burch, vijdon, g`urur, qadr-qimmat, faxrlanish, ma`suliyat, or-nomus kabi tushunchalarni chuqur tahlil qila oladilar. Lekin hammalari emas. ahloqiy ma`naviy qarashlar, tasavvurlar shakllanishi uchun pedagoglar sog`lom muxit yaratish, barqaror shaxsni tarkib toptirish uchun doimo izlanishlari zarur. Ayrim munozarali tadbirlar puxta o`ylab tashkil qilinishi, ayrim chet el filmlari muxokamasi shular jumlasiga kiradi. Ijtimoiy hayotda uchraydigan yaramas yurish-turishlarga, illatlarga zarba berish pedagoglar jamoasining muhim vazifasi hisoblanadi. O`spirinlarda balog`atga etish tuyg`usi takomillashib borib o`zining o`rnini belgilash va ma`naviy dunyosini ifodalash tuyg`usiga aylanadi. Bu xol uning o`zini alohida shaxs ekanligi, o`ziga xos xislatini tan olinishini istashida aks etadi.

Bu yoshda shaxs sifatleri shakllanishida maktab muhiti, ayniqsa sinf jamoasi, rasmiy va norasmiy tengqurlar kuchli ta'sir etadi. Maktab va sinf jamoalari ta'sirida matonatilik, jasurlik, sabr-toqatlilik, kamtarlik, intizomlilik, xalollik, hamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi va xudbinlik, loqaydlik, munofiklik, laganbardorlik, dangasalik, g'ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

O`spirin o`quvchilarning fanlarga munosabatlari asosan har qaysi fanning inson duneqarashidagi roliga, bilish faoliyatidagi va ijtimoiy ahamiyatiga, amaliy xususiyatiga, o`zlashtirish imkoniyatiga va uni o`qitish metodikasiga bog`liq bo`ladi.

O`spirinlarda sezgirlik, kuzatuvchanlik takomillashib boradi, mantiqiy xotira, eslab qolishning yo`l va vositalari ta'lim jarayonida etakchi rol o`ynay boshlaydi. O`spirinlar topshiriqlarni bajarishda, ularning ma'nosi hamda mohiyatini to`la anglab ish tutadilar, eslab qolish, saqlash, esga tushirish jarayonlarining samarali usullaridan unumli foydalanadilar.

Ilk o`spirinlik tafakkurining sifatini uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi tashkil qiladi. Tafakkurning mazmundorligi deganda, o`spirin ongida tevarak atrofdagi voqelik bo`yicha muloxazalar, muhokamalar va tushunchalar qanchalik joy olganligi nazarda tutiladi. Tafakkurning chuqurligi deganda, moddiy dunyodagi narsa va xodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, sifatleri o`zaro bog`lanishi va munosabatlari o`spirinning fikrlashida to`liq aks ettirish tushuniladi. Tafakkurning kengligi esa o`zining mazmundorligi va chuqurligi bilan bog`liq bo`ladi.

O`quvchilar maktabda fanlarning asoslaridan bilim oladilar, har qaysi o`spirin fizika yoki matematika bilan tanishadilar. Biroq ularning hammasi kelajakda fizik yoki matematik kasbini egallashni xoxlayvermaydi. Maktabda er kurrasini o`rganiladi, biroq barcha o`quvchilar sayyox bo`lishni istamaydi.

Katta yoshdagi maktab o`quvchilaridan biror o`quv faniga ishtiyok natijasida ularga har-xil kasblarga qiziqish vujudga keladi.

Yuqori sinf o`quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlari, iste'dodlari asosida tanlagan kasblariga to`g`ri yo`naltirish o`spirinlar uchun katta hayotiy masaladir. O`spirinlarga o`qituvchilar, ota-onalar jamoatchilik, o`z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari kerak.

O`rta maktabni bitirgunicha hamma o`quvchilar kasbini qat'iy tanlaydi deyish mumkin emas. Kasb-hunarga har-xil munosbatlar hosil bo`lishining asosiy sababi maktabda o`qish davrida kasb tanlash bo`yicha turli xil niyatlar paydo bo`lishidir.

XULOSA

Kasb tanlashga yo`llash va kasblarni targ`ib qilish usullaridan yana biri-ko`rsatmali vositalar, ya'ni fotostendlardan, kitoblar ko`rgazmasidan, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulidan, naqqoshlik va texnika to`garagi

ishlaridan foydalanishidir. Bundan tashqari muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali ham ayrim kasblarga qiziqish uyg`otish mumkin.

Mehnat psixologiyasining mutaxassisleri kasbga yo`naltirishning boshqacha usullarini: barcha fanlarni o`qitishning politexnik jihatini chuqurlashtirishni; tabiiy matematik fanlardan atrofda ishlab chiqarishdan ob'ekt sifatida foydalanishni; ijtimoiy turkumdagi fanlarni o`qitishda o`lkashunoslik materiallarini qo`llab o`quvchilarning kasbga qiziqishini oshirishni; mehnatga ishtiyoq uyg`otishni; darslarda kasblar haqida axborotlar berib borishni; mehnat sohalari bilan o`quvchilarning mustaqil tanishishi uchun sharoit yaratishni tavsiya etmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asomova R.Z. Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi. Psix.f.n.....dis.-T., 2002. -137 b.
2. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: Nizomiy, 2003.
3. G`oziev E.«Psixologiya». Toshkent. «O`qituvchi». 1994.
4. Yosh va pedagogik psixologiyadan praktikum. T.1991.
5. G`oziev E. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
6. Ishmuhammedov R.Abduqodirov A.Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.Toshkent -2008.

BOLALARDA TEMPERAMENT XUSUSIYATLARINI SHAKLLANISHI

Tabanbaev Begdulla Sarsenbaevich

Beruniy tumani Qizil-qal'a OFI 44-maktav psixologi

Annotatsiya: Xabarimiz borki, temperament - insonlarning muayyan guruhlarini tavsiflovchi psixik xususiyatlarning yig'indisidir. Ushbu maqolada aynan temperament borasidagi mulohazalar to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlari: temperament tipi, temperament, emotsionallik, individuallik, xolerik, sangvinik, melanxonik, flegmantik, xarakter.

KIRISH

Temperament - bu inson faoliyati va xulq atvorining dinamik va emotional holatini xarakterlovchi shaxs individual xususiyatlarining yig'indisidir. SHunday qilib, temperament 2 qismga bo'linadi. Ular faollik va hissiyotlilik. Xulq atvorning faolligi harakatchanlik, intikuvchanlik tezligi yoki aksincha sustlik va harakatsizlik darajasini xarakterlaydi.

Shaxs – psixologiya fanining asosiy ilmiy tushunchalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shaxsning nimaligini tushunish va uning ruhiy tuzilishini ta'riflash imkonini beruvchi asosiy xossalarni ajratib olish uchun ushbu tushunchani «inson individ shaxs individuallik» qatorida ko'rib chiqamiz. Inson o'ta murakkab mavjudot sifatida cheksiz murakkab dunyoda, aniqrog'i, ko'plab dunyolarda yashaydi, ularning ichidan zamonimizning mashhur faylasuflaridan biri YUrgen Xabermas asosiylari sifatida uch dunyoni: tashqi dunyo, ijtimoiy dunyo («bizning olam»), ichki dunyo («mening olamim»), individuallik va betakrorlilik «mening mavjudligimning» betakrorligi ajratishni taklif etdi.

Tashqi dunyo – bu insonning tabiat qonunlarini bilishda va ularni o'z maqsadlarida tabiatni qayta tuzish uchun qo'llashda egallaydigan tabiat olami. Bu fan, texnika, amaliyot olamidir. Bu barcha narsa isbot talab etuvchi maqsadga muvofiq faoliyat olamidir.

Emotsionallik - hissiyot belgi ijobiy va salbiy, shodlik, qayg'u va g'azabni aniqlagan holda emotional jarayonlar kechishini xarakterlaydi.

Individuallik - bu ma'lum insonning, uning noyoblighi betakrorligi nuqtai nazaridan o'ziga xos bo'lgan ruhiy fiziologik va ijtimoiy xususiyatlar yig'indisidir. Individuallikning asosiy ko'rsatgichlari motivlar temperament, xarakter. Individuallik faqat o'ziga xos xususiyatlar emas balki morfo fiziologiyasi bo'y o'lcham, tana tuzilish, yuz tushirish shu kabi xususiyatlarni o'zida aks ettiradi.

I. P. Pavlov temperamentining quyidagicha ta'riflaydi " Har bir ayrim kishining va shuningdek, har bir ayrim hayvonlarning ham eng umumiy xarakteristikasidir, har

bir individning butun faoliyatlariga muayyan qiyofa beradigan nerv sistemasining asosiy xarakteristikasidir".

Temperament tiplari 4 turga bo'linadi. Xolerik, sangvinik, melonxolik, va flegmatik.

Xolerik - sezgir, tinib - tinchimas agressiv shaxs, ta'sirchan, o'zgaruvchan, umid-ishonchli, harakatchan kishilar. Bunday bolalar o'z istagini qondirish uchun hech narsadan qaytmaydi. Misol uchun, erkalik qiladi, janjal ko'taradi, qaysarlik qiladi, lekin o'z aytganini qoldiradi. Bolaning ko'ngli podsho deb bejizga aytishmagan. U biron voqea hodisadan tasirlansa uni boshidan oxirigacha aytib beradi. Xolerik mijozli bolalarni " olov qalb" deb ataymiz, chunki juda tez qizishib ketishadi.

Lekin u yaxshi ko'rgan insonlariga mehribon bo'lishadi va qo'lidan kelganча yordam berishadi. U hattoki rasm chizganida asosan to'q rangli bo'yoqlardan foydalanishadi.

Sangvinik - tez, harakatchan, barcha taassurotlarga emotional javob beruvchi odam, uning hislari bevosita tashqi xulq atvorida ifodalanadi, lekin ular kuchli emas, va bir birini oson almashtiradi. Sangvinik asab tizimining kuchli muttanosib harakatchan tipidir. Bu turdagi bolalar diqqati o'zgaruvchan bo'ladi. Bir narsaga 1 daqiqadan uzoq vaqt jim kuzatib turolmaydi. Kattalar bu turdagi bolalarning harakatchanligidan havotirlanishadi. Lekin baribir ularni yaxshi ko'rishadi. Kayfiyati o'zgaruvchan bo'ladi va har kuni kun tartibini qiziqarliroq o'tgazishi kerak. Biron narsaga etiborini tezda jalb qila oladi, lekin undan juda tez bezori chiqadi. Biror narsaga qiziqib ketsa dunyodagi barcha narsani tezda unitib yuboradi. Biror narsaga vada bersa uni tezda esidan chiqarib yuboradilar. Lekin ularga ko'proq tanbeh berib turish kerak, ammo ular ko'ngliga hech narsani qattiq olmaydilar.

Melanxonik - emotsional kechinmalar xilma xilligining uncha katta emasligi lekin katta kuchga va davomiylikga egaligi bilan farq qiluvchi inson, u barchasiga ham munosabat bildirmaydi. Agar bildirgudek bo'lsa ham chuqur o'ylaydi, o'z hislarini u darajada namoyon qilmaydi. Melonxolik yoshdagi bolalar asosan g'amgin, tashvishli, qo'rquv, yuvosh, mulohaza yoritishga moyil, kelajakga ishonchi yo'q, umidsiz, og'ir, vazmin va bosiq. Bu turdagi bolalar asosan g'amgin bo'lishadi, ularni kuldirish juda qiyin. Ular ko'proq yolg'iz qolishni istashadi. Asosan shovqin suronsiz tinch o'yinlarni afzal ko'rishadi. Bu yoshdagi bolalar o'z yoshiga nisbatan aqlli ko'rinishadi, lekin ularning o'ziga xos " kichkintoy" odatlarini ham ko'rish mumkin. Misol uchun, tinoqlarini chaynashi bu esa sizning jahlingizni chiqaradi va tanbeh berasiz. Temperament ustida ishlash o'z temperamentining quliga aylanib

qolmaslik, balki uni idora qila bilish imkonini beradi. Iroda va mustahkam xarakterni tarbiyalash bilan uzviy ravishda bog'lanib ketadi.

Flegmantik - so'z va mutonosib hotirjam odam. Uning emotsional tasirlanishi oson emas va o'zidan chiqarish qiyin his tuyg'ulari deyarli tashqarida namoyon

bo'lmaydi. Bu turdagi bolalar ehtiyotkor, aqlli, o'ylab ish qiladi, tinchlikni osoyishtalikni sevadi. Boshqaruvchan, ishonuvchan, nazorat qiluvchan, vazmin va bir tekistda xotirjam qiladi. U o'z diqqatini ma'lum bir narsaga qarata oladi va atrofdagi narsalarga chang'imagdi. Bu turdagi bolalar o'z zimmasiga yuklatilgan ishni shoshilmasdan bajaradi, lekin boshqalarning ishiga nisbatan puxta va pishiq bo'ladi. U yangi joyga va yangi insonlarga moslashib ketishi qiyin kechadi. Tengdoshlari bilan tezda kirishib keta olmaydi. Hamma bunday bolalarni zerikarli deb o'ylashadi. Bu turdagi bolalar kelajakda ota- onasi suyansa va ishonchini oqlaydigan bolalar hisoblanadi. Bunday bolalar ichida tasviriy san'atga qiziqadigan bolalar ko'p bo'ladi.

Характер - har bir shaxsning o'ziga xos xarakterga ega bo'ladi. Misol uchun maktab o'quvchisi o'z o'rtoqlari uchun kutilmaganda arzimagan narsadan jahli chiqib ketadi. O'rtoqlari uning bu hulqidan taajublanadilar, chunki odatda bu bola yuvosh xushmomila edi. Uning uchun qo'pollik umuman begona hodisa edi.

Xulosa qilib aytganda psixologik tadqiqotlar va pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki temperament tiplari turmush sharoiti va tabiat tasirida bir oz o'zgaradi.

Temperamentning o'tish, aralash va oraliq turlari mavjud bo'lib ko'pincha temperament xususiyatlarini birlashtiradi. O'z o'zini tarbiyalash natijasida temperament ham o'zgarishi mumkin. Hattoki, katta yoshdagi insonlar ham o'z temperamentini ma'lum bir yo'nalishda o'zgartirish mumkin. Shuning uchun temperamentning " sof" turlari nisbatan ham uchraydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Polnoye Sobraniye Sochineniy III Tom, 2 kitob, 103 bet.
2. E. G'oziyev. Psixologiya. " O'qituvchi" nashriyot matbaa uyi. Toshkent2008 .
3. M.G. Davletshin, Sh. Do'stmuhammedova, M.Mavlonov, S. To'ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. TDPU. Toshkent- 2004.
4. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
5. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
6. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
7. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. – М., Аспект Пресс, 2002. – 383с.

XAVOTIRLI BOLALARNING PSIXOLOGIK HOLATI VA ULARDAGI QO'RQUVNI BARTARAF ETISHNING DOLZARB MASALALARI

Qo'shaqova Shaxnoza Abdubannonovna

Farg'ona viloyati Beshariq tumani MMTB ga qarashli

30-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqoladan siz quyidagilarni bilib olasiz, qo'rquv qaerdan keladi nega sizni qo'rqitadigan narsadan qochib qutula olmaysiz shuningdek, fobiya va tashvishlardan xalos bo'lishga yordam beradigan asosiy tamoyil. Maqola tashvish muammosini nazariy o'rganishga bag'ishlangan. Qo'rquv tushunchasi, uning turlari, sabablari va uni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar qo'rquv, tashvish muammosi, xavfga reaksiya, qo'rquv sabablari

KIRISH

Qo'rquvlar - bu psixologik xususiyat, odamning tashvish holatini boshdan kechirishga moyilligi. Ko'pincha tashvish uning muvaffaqiyatsizligi yoki muvaffaqiyatining ijtimoiy oqibatlarini kutish bilan bog'liq. Qo'rquv stress bilan chambarchas bog'liq.

Zamonaviy ilm-fan tashvish muammosiga katta qiziqish bildirmoqda. Ushbu qiziqish ko'plab ilmiy tadqiqotlarda namoyon bo'ladi, bu yerda ushbu muammo muhim o'rin tutadi va psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Psixologiyada tashvish muammolari bilan quyidagi olimlar shug'ullangan: V.M. Astapov, V.R. Kislovskaya, E.V. Novikova, A.M. Parishionerlar va boshqalar. Ularning barchasi qo'rquv, qoida tariqasida barqaror xarakterli xususiyat emasligini, lekin bolalikdan yuqori darajadagi xavotirlik o'zgaras bo'lib, shaxsiy xususiyatga aylanib ketishini ta'kidladilar, bu esa tabiiy ravishda ruhiy xavf tug'diradi. Qo'rquvlar bir tomondan, tashvishlanishning o'zi bo'lib, unda odam o'zini noqulay his qiladi va shuning uchun imkon qadar tezroq bu tuyg'udan xalos bo'lishga intiladi. Boshqa tomondan, tashvish haqiqiy va mumkin bo'lgan "nosozliklar" haqida signal beradi. Xavotirli odamlar qayerdan keladi? Nima uchun ba'zi odamlar biron bir sababga ko'ra tashvishlanadilar, boshqalari esa xotirjam bo'lishadi?

Xavotirli odam qanday yashaydi va nima uchun uning hayotida hamma narsa juda qiyin?

Qo'rquvlar - bu yoqimsiz tuyg'u, ba'zida insonni butun hayoti davomida ta'qib qiladi. Bunday odamlar u bilan tug'ilganga o'xshaydi va hech qachon ajralishmaydi.

Xuddi shu xulq-atvor skriptlari avlodan-avlodga o'tdi va qanday qilib o'sishni bilmagan juda ko'p odamlar.

Xavotirli ona - tashvishli bola. Bu qanday ishlaydi? Onaning bolasi uchun tashvishlanish xavfi nimada?

Xavotirli odamning hayoti:

Birinchidan, tashvishli odamga dunyo qanday ko'rinishini tasvirlab beraylik. Bu xavf va tahdidlarga to'la dunyo. Hech narsa aniq bo'lmagan va hamma narsa qo'rqinchli dunyo. Tuzatib bo'lmaydigan, dahshatli narsa sodir bo'lishi mumkinligini kutadigan dunyo va o'zingizni himoya qilishning iloji yo'q. Ojizlik va nazoratsizlik hissi.

Bunday tashvishli odam o'z his-tuyg'ularini dunyoga uzatadi. U boshqa odamlar oldida zaif va ojiz, zaif va o'zini himoya qila olmaydigan sifatida namoyon bo'ladi. U rad etishdan qo'rqadi, nizolardan qo'rqadi.

Bunday tashvishli ona va uning bolasi o'rtasida nima bo'ladi? Ona o'z tashvishini bolaga bildiradi, tashvishli bog'lanishni shakllantiradi.

Umuman olganda, biz hammamiz u yoki bu darajada bolalarimiz haqida qayg'uramiz. Ammo tashvishli ona bo'lsa, bu tajribalar juda ko'p. Giper -vasiylik va giper -nazorat bunday onaning asosiy namoyonidir. Barcha mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni kuzatib borish, bolani uning fikriga ko'ra unga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan barcha narsalardan himoya qilishga harakat qilish kerak.

Xavotirli bola esa tashvishli kattalarga aylanadi. Uning hayoti, u nima bo'lishidan qat'i nazar, muvaffaqiyatga erisha olmasligini his qilish bilan to'yingan. U xato qilishdan qo'rqadi, o'zgarishdan qo'rqadi. U o'zi uchun noqulay bo'lsa ham barqarorlikni tanlaydi, chunki barqarorlik bo'lmagan joyda bu juda qo'rqinchli va xavfli. U yerda g'ayrioddiy, tayanadigan hech narsa yo'q va ichkarida hech qanday yordam yo'q. Agar o'zingizda yordam bo'lmasa, unda siz kimdandir yoki biror narsadan yordam izlashingiz kerak: boshqa odamlarda, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar. Hamma oqibatlar bilan qaramlik shunday shakllanadi. Ma'lumotlarga qaraganda yer yuzi aholisining 10-11 % turli xil fobiyalardan aziyat chekadi. Bu holat insonda kutilmaganda va anglanmagan sababga ko'ra paydo bo'lishi mumkin. Ayniqsa, bolalarda qo'rquv va fobiyalar ularning jamiyatga, o'rab turgan olamga moslashish jarayonlarida ko'proq uchraydi. Ko'rsatilishicha, fobiyalar fantaziyasi yaxshi rivojlangan, xavotirlanuvchan xarakterga ega bo'lgan, o'ziga ishonmaydigan, o'ziga past baho beradigan, muloqatga kirishish malakalari yaxshi shakllanmagan insonlarda ko'proq kuzatilar ekan. Bu jarayonga irsiyat hamda tarbiya ham katta ta'sir ko'rsatadi. Fobiya erkaklarga qaraganda ayollarda ko'proq uchraydi. Bu holat ayollarning hissiyotga beriluvchanliklari va ko'pincha agressiyaning ob'yektiga aylanib qolishlari bilan bog'liqdir.

Fobiyaning juda ham ko'p turlari mavjud: odamlar biror xayvondan, xashoratdan, balandlikdan, yolg'iz qolishdan, kasalikka chalinishdan, ochiq yoki berk bo'shliqdan qo'rqadilar. Xatto insonlarda fobofobiya, ya'ni biror fobiyaga duchor bo'lishdan qo'rqish kabi turi xam uchraydi. Odamlarning doimo qo'rquv hissini ko'zg'atuvchi vaziyatdan qochishlari fobiyaning belgisidir.

Fobiyalar vaqtida inson qo'rquv ob'yektiga nisbagan vegetativ nerv sistemasidagi ko'zg'alishlar natijasida 2 xil usulda javob reaksiyasini ko'rsatishi mumkin:

1 - holatda, simpatik nerv sistemasi qo'zg'alib, yurak urishining tezlashuvi, qon bosimining ko'tarilishi, terining qizarishi kabi belgilar kuzatilsa, 2 - holatda esa parasimpatik nerv sistemasining qo'zg'alishi natijasida yurak urishining sekinlashuvi, qon bosimining pasayishi, teri rangining oqarishi, sovuq ter chiqishi kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, fobiya nasldan-naslga o'tadi. Ota-onada biror fobiya mavjud bo'lgan bo'lsa, farzandga ham shu holatga nisbatan moyillik nasliy yo'l bilan uzatiladi, ammo bu moyillik aynan shu fobiya turiga nisbatan bo'lmasligi mumkin.

Fobiyalar inson hayoliy faoliyatining deyarli hamma jabxalarida uchrashi mumkin:

1) Insonning uyda bo'lish, xo'jalik ishlari, shaxslararo munosabatlar va xokazolar bilan bog'liq fobiyalar: yong'in chiqishidan, gaz bilan zaxarlanishdan, tok zarbasidan (urishidan), suv bosib ketishidan, balandlikdan, ifloslikdan, yuvish vositalaridan, dorilardan, maishiy asboblarni portlab ketishidan, uyning qulab tushishidan, yolg'izlikdan yoki qorong'ulikdan qo'rqish.

2) Ish faoliyati bilan bog'liq fobiyalar (hamkasblar va boshliqlar bilan munosabatlardan, atrof - muhitdan va xokazolardan qo'rqish): ishni boshlashdan, ishni yo'qotib qo'yishdan, yangi mutaxassisligiga mos bo'lmaslikdan, ish joyida shikastlanish yoki baxtsiz xodisadan, nafaqaga chiqishdan, hamkasblari bilan o'zaro bir-birini tushuna olmaslikdan, boshliqlardan, nazorat — tekshiruvchi tashkilotlardan, muhim muzokaralardan, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdan qo'rqish.

3) Insonning shaxsiy, jinsiy hayoti bilan bog'liq fobiyalar: homiladorlikdan, farzandsizlikdan, zo'rlanishdan, jinsiy yuqumli kasalliklar yuqishidan, turli kasalliklar bilan kasallanishdan, qarilikning qiyin kechishidan, soch to'kilishidan, allergik reaksiyalardan qo'rqish va boshqalar.

4) Yashirin fobiyalar: qarama - qarshi jins vakillaridan; biror illatga berilib qolishdan; alkogol, narkotik mahsulotlariga, dori vositalariga va boshqa xil tobelik yuzaga kelishidan; omadsizlikning takrorlanishidan, kimningdir joniga qasd qilishdan;

o'ldirilishdan; yolg'iz joylardan, binolardan, o'zini o'ldirishdan, boyligini yo'qotishdan, aqldan ozishdan, o'zga sayyoraliklar bilan uchrashuvdan, turli ranglardan, rux va arvohdardan qo'rqish.

5) Ota-onalarda kechadigan fobiyalar: o'z bepushtligidan, homiladorlikdan homilaga zarar yetishdan, tug'ruq og'riqlaridan, turmush o'rtog'i bolani sevmasligidan, bolada qandaydir illat aniqlanishidan, unga ziyon yetkazishlaridan qo'rqish.

Xavotirli odamlar o'zlarini past baholaydilar, o'zlarini zaif his qiladilar. Ular kuchli bo'lishdan qo'rqishadi, chunki aks holda ularning yonidagi kimdir o'zini yomon his qiladi. Bu mustaqil yashashga yana bir to'siqdir.

Psixologning tashvishli odam bilan qanday ishlashi. Terapiyada biz ota-onalardan ajralish bilan ishlaymiz. Ajralish - bu ajralish. Inson onasidan ajraladi, mustaqillikni o'rganadi. U bolaligida egallamagan ko'nikmalarni egallaydi. U yangi shaxs bilan tanishadi, o'z shaxsiyatini topadi, onasidan ajralgan, o'z shaxsiy hayoti bilan yashashga qodir.

Stressga chidamlilik rivojlanadi va tashvish uchun o'z-o'ziga yordam berish usullari to'planadi. O'z-o'zini hurmat qilish asta-sekin o'sib bormoqda, chunki endi u ko'p narsani qila oladi va buni o'zi ham biladi. Harakat qilish uchun onasining roziligi va ruxsatiga muhtoj emas. Jarayon uzoq va mashaqqatli, ammo juda qiziqarli. Psixologik jihatdan yetuk shaxsning o'sishi va kattalar erkin hayotiga kirish davri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zaxarov, A.I. Farzandlarimizga qo'rquvdan xalos bo'lishga qanday yordam berish kerak. Sankt-Peterburg: Gippokrat, 1995. 126 b.
2. Parishoniylar A.M. Bolalar va o'smirlardagi tashvish: psixologik tabiat va yosh dinamikasi. M. Voronej, 2000.
3. Anksiyete va tashvish. O'quvchi / komp. V.M. Astapov. - SPb., 2001 yil.
4. Rabbimova U., Khasanova D., Sanaev A. Professional pedagogical ethics of a modern pedagogue // Problems and trends of modern innovation assessment: solutions and perspectives. - 2022. - Volume 1. - No. 1. - S. 422-423
5. Malika Ortikova and Alisher Sanaev. «Human Quality: Signs». Contemporary Innovation Assessment by Problems and Trends: Solutions and Perspectives 1.1 (2022): 415-419.
6. PN Ustin, KB Murotmusayev «Psychological adjustment factors of first-year students» Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. Brussels, Belgium - 2022. P 115-121 <https://geniusjournals.org/index.php/ejhs/index>

О'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Rustamova Hurriyat Abdullayevna

*Farg'ona viloyati Beshariq tumani MMTB ga qarashli
5- umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

ANNOTATSIYA

Maqolada o'quvchilarning o'quv faoliyatiga ijobiy motivatsiyani shakllantirish asosida ta'lim yutuqlariga erishishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Ta'lim jarayonida ta'lim motivlari haqida nazariy va amaliy fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: talaba, motiv, o'quv faoliyati, pedagogik holat, pedagogik fenomen

KIRISH

Maktab ta'limi bugungi kunda inson ta'limining eng uzoq bosqichini ifodalab, individual muvaffaqiyat uchun ham, butun mamlakatning uzoq muddatli rivojlanishi uchun hal qiluvchi omillardan biridir. O'quvchilarning o'quv faoliyatiga ijobiy motivatsiyasini shakllantirish ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bo'lib, xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish maqsadli dasturida o'z aksini topgan.

Bugungi kunga qadar ishlab chiqilgan nazariy tadqiqotlar va maktab tajribasi shuni ko'rsatadiki, motivatsiya - bu turli motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, intilishlar, maqsadlar, intilishlar, motivatsion munosabat yoki moyillik, ideallar va boshqalar. keng ma'no umuman xulq-atvorni belgilashni nazarda tutadi. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda mavjud bo'lgan ijobiy barqaror motivatsiyaning mohiyati haqidagi xulosalarni o'rganish va umumlashtirish tadqiqot jarayonida qo'llanilgan asosiy ta'rifni shakllantirishga imkon berdi.

Ijobiy barqaror motivatsiya-bu o'quvchining o'qishga faol, shaxsiy tarafkashlik munosabatini belgilaydigan, unga hal qilishning umumlashtirilgan usullarini o'zlashtirgan holda, uning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishni tartibga solishga qaratilgan samarali harakatlarning nisbiy davomiyligini ta'minlaydigan motivlar majmui.

O'rta sinflarda ijobiy barqaror motivatsiyaning namoyon bo'lishini belgilaydigan mohiyat va asosiy omillarning tahlili bizga quyidagilarni tasdiqlashga imkon beradi:

ta'lim motivatsiyasi o'ziga xos turtki sifatida murakkab tuzilish bilan tavsiflanadi, uning shakllaridan biri ichki va tashqi motivatsiya tuzilishi; ijobiy motivatsiyaning barqarorligi, intellektual rivojlanish darajasi va ta'lim faoliyatining tabiati bilan bog'liqligi kabi muhim xususiyatlari;

Ijobiy turtki motivatsiyaning namoyon bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar quyidagilardir: muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik, shaxsiy tashvish, past baho, tashqi atribut; shaxsning o'quv faoliyatining asosiy determinantlari yutuq

motivatsiyasi va shaxsning ayrim xususiyatlari, birinchi navbatda, avtonomiya; ijobiy barqaror motivatsiya bu faoliyatga xos bo'lgan bir qancha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, u ta'lim tizimining tuzilishi va ta'lim muassasasining turi bilan o'zaro bog'liq, bu holda ta'lim faoliyati amalga oshiriladigan maktab; ikkinchidan, o'quv jarayonini tashkil etish; uchinchidan, o'quvchining sub'ektiv xususiyatlari (yoshi, intellektual rivojlanishi, qobiliyatlari, intilish darajasi, o'zini o'zi qadrlashi, uning boshqa o'quvchilar bilan o'zaro ta'siri va boshqalar); to'rtinchidan, o'qituvchining maktab o'quvchilari bilan o'zaro ta'sirining sub'ektiv xususiyatlari va birinchi navbatda uning o'quvchi bilan bo'lgan munosabatlar tizimi;

Ijobiy barqaror motivatsiya, boshqa har qanday turdagi kabi, ta'lim faoliyatida yo'nalish, barqarorlik va namoyon bo'lish dinamikasi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagi qoidalarni hisobga olish maktabning pedagogik jamoasiga muhim va murakkab vazifani - o'rta maktab o'quvchilarining o'quv jarayonida ta'lim faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiyani shakllantirishga imkon beradi.

Maktabning o'quv jarayoni o'quvchilarning guruhli shakllarini tashkil etish orqali ijobiy motivatsiyaning shakllanishiga ta'sir qiladi, bu ularning shaxsiyatining sotsializatsiyasiga yordam beradi, bu oila va uy xo'jaliklari bolalariga etarlicha ta'sir ko'rsatmaydi, ularni muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyani shakllantirishga, shu jumladan ta'lim faoliyatiga yo'naltiradi.

Bu fakt maktab o'quvchilarining ta'lim faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiyani shakllantirish modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Maktabda o'qitish jarayonida ta'lim faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiyani shakllantirishning ishlab chiqilgan modeli quyidagi printsiplarga asoslanadi: ilmiy va tizimli, sub'ektiv; ong, faollik va mustaqillik; rivojlanish va faollik, amaliy yo'nalish; kollektivlik; aks ettirish.

Maktab o'quv jarayonida o'quv faoliyatining ijobiy barqaror motivatsiyasini shakllantirish mexanizmi asosiy bosqichlardan iborat: maqsadni belgilash, ta'lim harakatining tuzilishini aniqlash, operatsion-kognitiv, ishning tashkiliy shakllarini asosli tanlash, faollik-operativ, aks ettirish, o'smirlar faoliyatini baholash.

Biz o'quvchilarning guruh faolligini o'quvchilar faoliyatini pedagogik qo'llabquvvatlash holatlarining yig'indisi sifatida qaradik, bunda o'quvchilarning o'qishga ijobiy barqaror motivatsiyasi shakllanibgina qolmay, balki u o'zini namoyon qiladi. SHaxsiy yutuqlar to'g'risida o'quv faoliyati uchun ijobiy turtki motivatsiyasining shakllanishi belgilanadi. O'quv faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiyaning barcha uchta komponenti uchun maktablarning eksperimental va nazorat guruhlarida o'quvchilarning o'quv faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiyasining namoyon bo'lishidagi farqlar aniqlandi;

O'quvchilarni nazorat va eksperimental guruhlardagi test natijalarini solishtirganda shuni ta'kidlash kerakki, ular o'rtasida ichki motivatsiyaning past va o'rta darajadagi namoyon bo'lishida sezilarli farqlar mavjud. Boshqaruv guruhida o'quv jarayonida o'quvchilarga taklif qilinadigan faoliyat turlari uchun odatda past darajali va kamroq o'rtacha darajali bo'ladi.

O'quv faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiya bu faoliyat uchun bir qator o'ziga xos omillar bilan belgilanadi: ta'lim tizimining o'zi, bu holda maktab muassasasi; o'quv jarayonini tashkil etish; o'quvchining sub'ektiv xususiyatlari (yoshi, intellektual rivojlanishi, qobiliyati, intilish darajasi, o'zini o'zi qadrlashi, uning boshqa o'quvchilar bilan o'zaro ta'siri va boshqalar); o'qituvchining maktab o'quvchilari bilan o'zaro ta'sirining sub'ektiv xususiyatlari.

Ijobiy barqaror shaxsiy motivatsiyani shakllantirish - o'quvchilarning tashqi motivatsiyasini ichki holatga o'tkazishga yordam beradigan muayyan sharoitlarda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faol o'zaro munosabatlarning murakkab va uzoq muddatli jarayoni:

o'quvchilarni haqiqiy amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish. guruh faoliyati; darsda ijobiy hissiy tajribalar uchun qiziqishlarning rivojlanishiga hissa qo'shadigan faol o'qitish usullaridan foydalanish; o'quvchilarning o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyojining ortishi.

Aniqlanishicha, maktabda o'quv jarayonida ta'lim faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiyani shakllantirish modelini amalga oshirish natijasida o'rta maktab o'quvchilarida ehtiyoj tufayli ta'lim faoliyati uchun ijobiy barqaror motivatsiya: sinfda intellektual o'zini o'zi anglash, guruhdagi o'quv faoliyatining ko'nikma va malakalari, qobiliyatlarni o'zini baholashga tayyorligi, mashg'ulotlardan qoniqish va sinfdagi muvaffaqiyat darajasi shakllangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Yuldashev, Elyorjon. "Secondary School Students Independent Education." INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES. Vol. 2. 2021.
- 2.Elyorjon. "Secondary School Students Independent Education." INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES. Vol. 2. 2021.
- 3.Secondary School Students Independent Education. INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES, 2, 226–230. ДА ИСМАИЛОВА, ЗА ХОЛМАТОВА, ДШ ВАХОБОВА Будущее науки-2014, 56-63
- 4.To the Definition of the Ethical Tolerance Forms in Works of Thinkers of the East
Z Kholmatova, M Turobjonova

Young Scientist USA, 74-76

5.Azamovna, Ismoilova Gulbaxor. "DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE ON THE BASIS OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.04 (2022): 165-170.

OILALARDAGI PSIXOLOGIK MUOMMOLAR DOLZARB MASALA SIFATIDA

Abdualimova Sarvinoz Dilshod qizi

Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar 1-sonli IDUM psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila, nikoh munosabatlari, yosh oila munosabatlarida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-psixologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va masalalari yoritilgan. Asosiy e'tibor yosh oiladagi muammolarni yechimini topish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash qonunchilikda yosh oilalarga ko'mak berish huquqiy bazasini kengaytirish zarurligiga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: Oila, nikoh munosabatlari, yosh oila, oilaviy muhit, jamiyat, oilaviy muammolar, davlat, ijtimoiy siyosat.

Oila muammosi azaldan insoniyatning diqqat markazida bo'lib kelgan. Chunki oila mustahkamligi jamiyat faravonligining asosiy negizidir. Shu sababli Respublikamiz rahbariyati har bir xonadonning tinchligini, oilalarda farzandlarning baxtli, barkamol o'sishini ta'minlashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.Mirziyoyev aytganlaridek —Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi.

Darhaqiqat jamiyatning kuch-qudratini ta'minlaydigan eng oliy qadriyat oilaning tinchligi va mustahkamligidir. Bizga ma'lumki yurtimizda oila, nikoh masalalari azal azaldan qadrlanib kelinadi. Bu muqaddas qadriyatlar hozirgi davrgacha ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Oilalarning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ro'li beqiyos, chunki har bir shaxs tarbiyasi avvalo kichik bir vatan oiladan boshlanadi.

Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatga har tomonlama sog'lom, barkamol, yetuk shaxslar kerak. Bunda jamiyatda oilaning rolini oshirish uni yanada mustahkamlash, oiladagi sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, yosh oilalardagi muammolar yuzasidan tadqiqot olib boorish asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Shu o'rinda aytishimiz kerakki, O'zbekiston Respublikasi Konstititsiyasining 63-moddasida oila jamiyatning ajralmas bo'g'ini ekanligi e'tirof etilgan: Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Yosh avlodni yetuk shaxs qilib tarbiyalash ularni hayotda o'z o'rnini topishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish uchun albatta, jamiyatdagi endi tarkib topayotgan yosh oilaga e'tibor qaratish lozimdir.

Oila – inson o'z baxti va saodati, orzu-havaslari, maqsadmuddaolarini mushtarak qilgan, o'zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir.

Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo`lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro`y bergan buyuk o`zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o`z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog' omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot- mamotni ular o`rtasidagi o`zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo`lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atash mumkin.

Respublikamizda keyingi yillarda oila-nikoh munosabatlari o`zgarib bormoqda. Bu boradagi o`zgarishlarga:

- 1) oilaning jamiyat oldidagi funksiyalarining o`zgarib borishi;
- 2) oila a`zolari sonining va tug`ilishning kamayishi, murakkab ko`p oilali tipdan, alohida mavjud bo`lgan oilalar tipiga aylanib borayotganligi;
- 3) oilaviy munosabatlar tizimida er-xotin funksiyalarining va oilaviy rollar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning o`zgarib borayotganligi;
- 4) ayollardagi reproduktiv ustanovkalarining o`zgarib borayotganligi kabilarni kiritish mumkin.

Ma'lumki, insoniyat jamiyat taraqqiy etib borgan sari odamlarning o`zlari ham, o`zaro munosabatlar ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo`ladigan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o`ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari, qishloq xo`jaliklari, sanoat ishlab chiqarish, umuman xalq xo`jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo`lgan inson omiliga, inson shaxsiga o`ziga xos yangicha talablar qo`ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o`zlarida ro`y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o`zgarishlar o`zaro muloqat munosabatlari doirasining ma`lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o`tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikning ma`lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo`riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo`lmoqda. Bularning ta`siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda o`z ifodasini topadi. Maxsus adabiyotlarda yozilishicha va o`tkazilgan tadqiqot natijalaridan kuzatilishicha, so`nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko`ra ularning jinsiy, fiziologik balog`atga etishi 2-3 yil ilgari ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarni jinsiy balog`atga etish davri 15-16 yoshga to`g`ri kelgan, hozir esa bu holat o`rtacha 12-13 yoshlarga to`g`ri keladi.

Ilgarigi o`smirlar 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga etuklik talablaridan biri bo`lmish jinsiy etuklikka, balog`atga etar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga

kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan de'qonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bolalarning odatda 13-14 yoshida shogirdlikka berishgan), o'sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayonlar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilinmagan, 2-3 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshida o'zi ish yuritadigan mutaxassisga aylangan. Mabodo u shu vaqtda oila quradigan bo'lsa, o'z hunari orqali me'nat qilib o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigitmahalla -ko'yda, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy etuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbirlar, marosimlarda etuk ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga etganligi jamoatchilik tomonidan tan olingan.

Shaxsning oila va jamiyat oldida o'ziga xos mas'uliyatni his qilishi esa uning psixologik etukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Endi shu xususiyatlarning bugungi kun yoshlarida ko'rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarida jinsiy (fiziologik) etuklikka erishadilar, biroq ular biror -bir kasb-hunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun avvalo maktabni bitirishi, yoki 9 yil maktabda, 3 yil kollej yoki litseyda o'qishi zarur bo'ladi. 12 yillik barcha uchun majburiy ta'limdan so'ng yoshlarimizning ma'lum bir qismi o'qishni oliy o'quv yurtida davom ettiradi. Bundan ko'rinib turibdiki yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma'lum qismi uchun 20-21, boshqalari uchun 23-25 yoshga to'g'ri keladi. Bundan tashqari odamlarning kundalik hayoti o'zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga moddiy farovonlik darajasiga bo'lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda. Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilaning, oila mustahkamligining o'rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog'lomligiga bog'liq bo'lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir.

Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi uni inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog'lom, noqobil va nizoli oilalar, ajrashishlar sonining ortishi, jamiyatgaturli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon etkazishi bilan birga bunday nosog'lom psixologik muhitda, nizo-janjalli, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelgan, shakllangan bola keyinchalik nafaqat otaonasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, qolaversa o'zi yashagan jamiyatga nisbatan mehr oqibatsiz bo'lib, shafqatsiz, zolim, xudbin jamiyat yurt manfaatlariga zid har xil tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxs bo'lib shakllanishi, shu asosda esa o'z oilasi, o'z xalqi, o'z yurti uchun xavfli insonlarning etishib chiqishiga ham asos bo'lishi mumkin.

Demak, oilaning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Oila psixologiyasigadoir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli malakalar va ko'nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Ekspertlar ta'kidlashlaricha, MDH mamlakatlarida yosh oilaning eng katta muammo to'rtta xususiyatga ega:

1. Yosh oilalarga moddiy va ma'naviy xavfsizlikning etarlicha darajasining yo'qligi. Shunday qilib, bugungi kunda yangi turmush qurgan juftliklar umumiy davlatga nisbatan 2 barobar kamroqdir.

2. Yosh oilalarning ijtimoiy muammolari, oilaviy hayotni tashkil etish, o'z yashash joylarini sotib olish va hokazolarni talab qilish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy va moddiy ehtiyojlarning ortishi hisoblanadi.

3. Turmush o'rtoqlarni ijtimoiylashtirish davri (ta'lim, ish joyi). 5. Yosh oilada psixologik moslashish. Shunday qilib, oilalarning 18% mutaxassislariga psixologik maslahat berishga muhtoj. Albatta, yosh oila borasidagi eng muhim masalalardan biri – yoshlarning o'zaro munosabatlari va ularning yangicha munosabatlar tizimiga ko'nikishi masalasidir. Chunki romantik sevgi, bir-birini yoqtirish bosqichidan o'tgan yoshlarning endi yangi oilaviy hayot tamoyillari asosida kundalik hayotni boshdan kechirishiga muayyan qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy. Yigit-ku o'z uyida, ota-onasi yaratib bergan sharoitda yashaydi. Moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarning eng og'iri kelinchakning bo'yniga tushadi. U boshdan kechiradigan muammolardan biri esa – yangi oila a'zolari bilan muomala maromlarini to'g'ri o'rnatishdir. To'g'ri, to'ydan keyin turkona, o'zbekoana urq-odatga ko'ra qizning onasi va uning yaqin qarindoshlari kelinchakni “yo'qlaydi”, ya'ni, pishir-kuydir qilib, qiz o'z xonadonda suygan taomini pishirib, yangi kelin tushgan xonadonda dasturxon yuboriladi. Albatta, bu kabi azaliy urf-odatni asosida yotgan muhim sabablar bo'lib, birinchisi, yangi muhitga tushib qolgan qiz bu erdagi issiq-sovuqqa tez ko'nikib ketolmasligi, taom tanavvul qilishda keskin o'zgarish bo'lmasligi uchun to ko'nikkuncha, bir necha kun o'z xonadonidan ovqat yuborish va shu orqali uni “yupatish” bo'lsa, ikkinchi ma'nosi – ota-ona qizini unutmaganligi, hanuz unga mehrli munosabatda ekanliklarini izhor qilishdir. Bu kabi munosabatlarning saqlanishi qisman bizning hozirgi sharoitimizda ham o'zini oqlaydi, lekin yo'qlov bahonasida tog'oralarda ovqat-oziqning xadeb kuyov uyiga jo'natilishi, ortiqcha dabdabalarga yo'l qo'yilishida umuman mantiq yo'q. Chunki hozir ko'pchilik onalar oila yumushidan tashqari davlat va jamoat muassasalarida xizmat qiladilar. Ular uchun bunday tashvishlar ortiqcha, ikkinchidan, qizlar ilgarigiday juda erta turmush qurmaydigan va o'qish, ish bahonasida turli taomlarni eyishga yoshlikdan o'rgangan sharoitda ularning oshqozonlari yangi xonadonda ham birday ishlayveradi. Ya'ni, yosh oilaning mustahkam bo'lishiga rahna

soluvchi omillardan biri hisoblanmish ortiqcha ovoragarchiliklar, dabdabali tushliklarning ikkinchi xonadonga yuborilishi bugshungi taraqqiyot bosqichida biroz erish tuyulishi tabiiy. O'tkazilgan tadqiqotlardan yana shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, yosh oilaning tinchlik-totuvchilikda yashashiga halaqit berayotgan sabablardan biri – qaynonalar bilan yangi kelinchakning tez kirishib, til topishib keta olmayotganligi. Bu ham oilaviy munosabatlar borasidagi muammolardir. Chunki ayniqsa, shahar sharoitida bitta yoki ikkitagina o'g'il o'stirgan ona ko'pincha yangicha munosabatlar tizimiga o'zi ko'nika olmaydi va kelinchakni ham tezroq ko'nikib ketishiga yordam berish choralarini bilmaydi.

Oila hamjihatlikda yashashi o'zaro hurmat qaror topmog' lozim, lekin hozirgi paytga kelib nikoh ajrimlari soni 2021-yilda Respublikamizda 39 000 dan ortiq oilaviy ajrimlar qayd etildi. "Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tomonidan nikoh ajrimlarining sabablari o'rganilganda, aksariyat holatlarda bu birinchi o'rinda er-xotinlarning o'zaro kelishmovchiliklari, fe'l-atvorning bir-biriga mos kelmasliklari, rashk, xiyonat, kelin bilan qaynona va boshqa yaqin qarindoshlarning chiqishmasliklari, erkakning zararli odatlarga berilib ketishi (ichkilikka, giyohvand moddalarga va shu kabi), moddiy qiyinchiliklar (asosan erning ishlamasligi, mustaqil oilani boshqara olmasligi), qudalarining to'ydan keyin o'zaro kelishmay qolishlari, erning daraksiz ketib qolishi kabilar qayd etiladi."

Xulosa qilib aytganda oilada sog'lom psixologik muhitning yaratilishi, sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Sog'lom psixologik muhit er va xotin o'rtasidagi psixologik jihatdan yetilganlik hamda ijtimoiy jihatdan tayyorlik asosida shakllanadi. Sog'lom turmush tarzining oilaviy muhitga ta'siri ham katta hisoblanadi. Chunki har bir oila a'zosi sog'lom turmush tarziga rioya qilsa, to'g'ri ovqalansa, sport bilan shug'ullansa ushbu jarayonlar ularda psixosomatik o'zarishlarni keltirib chiqaradi. Ya'ni ularning sog'lom turmush tarziga rioya qilishi mental psixologik holatini yaxshilaydi. Sog'lom turmush tarzi oilaviy muhitning ijtimoiy psixologik jihatdan o'zgarishiga ta'sir o'tkazadi. Sog'lom munosabatlar sog'lom turmush tarzidan boshlanadi. Ushbu holatlar oiladagi ijtimoiy psixologik jarayonlarga katta ta'sir o'tkazadi. Oilada sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda sog'lom psixologik muhitning ijtimoiy psixologik ahamiyati ushbu jarayonlarning sinxron ravishda tashkil qilnganligiga bog'liq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev «Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi» Xabar.uz 22.01.2018
2. V.M.Karimova. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: - T.: -Fan va texnologiya, 2008. - 170 b.;
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, - T. O'zbekiston 2014

4. Kamolova, S. (2021). Umuminsoniy qadriyatlar asosida talabalar dunyoqarashini shakllantirishning uzluksizligi. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, (1).
5. Kamolova, S. (2021). Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishning afzaliklari . Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, (2).
6. Sh., Kamolova, Yaxshieva, M Sh., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliev, X. A. (2015). Formirovanie nauchnogo mirovozzreniya studentov. In Aktualnye zadachi pedagogiki (pp. 184-186).
7. Kamolova, Sh. O'., & Munarova, R. O'. (2010). Urovni sovershenstvo lichnosti. Issledovatel nauchny jurnal.–Qozog'iston, 5(49), 100-105.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kenjayeva Shahnoza Ikromjonovna

*Farg'ona viloyati Bog'dod tumani 57-umumiy
o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari, didaktik usul va metodlardan foydalanish haqida ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, maktab, ta'lim, ijodkorlik, didaktik, usul, metod, kreativ, pedagogika, shaxs, faollik, o'quvchi, boshlang'ich ta'lim, qobiliyat.

Kirish. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida xalqimizning hayoti, davlatimizning siyosiy faoliyatida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonda xalqimiz o'zining buyuk kelajagini yaratmoqda. Uni yaratishda ulug' ajdodlarimiz buyuk pedagog-faylasuflar, din arboblari, mutasavvif donishmandlar, ulug' allomalarning ta'limotlarini o'rganish sari yo'l ochildi. Asrlar mobaynida xalqimiz saqlab kelayotgan milliy, umuminsoniy qadriyatlarni ilmiy tadqiq qilib rivojlantirishga yangi imkoniyatlar yaratildi.

Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual potentsiali bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy potentsiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg'or bo'ladi. Shuningdek, davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalari doirasidan tashqari yangi zamonaviy fanlar va axborot texnologiyalariga doir bilimlarni o'zlashtirish zamon talabiga aylanmoqda.

Hozirda boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy vazifalari o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalash maqsadida ularga mustaqil fikrlash, o'zligini anglash, bilimlarni o'rganishda, maktabda va maktabdan tashqari ishlarda faollik, boy ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni o'rgatish, o'z shaxsidagi "men"ni tanitish, yuksak axloqiy fazilatlar va estetik ruhda tarbiyalashdan iborat.[1,570]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ijodiy qobiliyatlar muammosi psixologiya fanida qiziqarli va ma'lum darajada tadqiq qilingan muammolardan biridir. Bu muammo yuzasidan qadimdan to shu kunga qadar izlanishlar olib borganlar. Insonning imkoniyatlarini o'rganishga sharq mutafakkirlari (Farobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino), Rossiya psixologlari (B.M.Teplov, B.G.Ananayev, N.V.Kuzmina, S.L.Rubinshteyn, A.G.Kovalev, V.N.Myasishev), G'arb olimlari (A.Bine, T.Simon, F.Galton, V.Shtern, U.Ollport, K.Rodjers) kabilar katta xissa

qo'shganlar. Ushbu muammo ustida Uzbekiston psixolog olimlari (E.G'oziey, R.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, B.R.Kodirov, V.A.Tokareva va boshqalar) ham izlanish olib borganlar.[2,6]

XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. □Kadrlar tayyorlash milliy dasturi□da ko'zda tutilganidek, pedagogik va taxborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini yangi axborotlar bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda.

Muhokama va natijalar. Ijodkorlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tag zamirida orginallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, ijodiy fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan qaray olishni anglatadi. Ijodiy fikrlash-bu shunday fikrlashki, natijada ma'lum bir muammoni tubdan yangi yoki takomillashtirilgan yechimini topish demakdir.[3,7]

J.Guilfordning fikriga ko'ra ijodiy fikrlashning xususiyatlari quyidagilar:

- O'ziga xoslik, g'ayrioddiy g'oyalar;
- Semantik moslashuvchanlik-ob'ektni turli nuqtai nazardan ko'rish qobiliyati;
- Majoziy moslashuvchanlik-ob'ektning yashirin tomonlarini ko'rish uchun idrokini o'zgartirish qobiliyati;

Noma'lum vaziyatda turli g'oyalarni ishlatish qobiliyati deb sanab o'tgan.

"Inson, o'zi va ruhiyati orasidagi hamda o'zi va boshqa biron orasidagi mavjud narsani tadqiq etishda bor imkoniyatni ishlatib muntazam ravishda mashq qildirib turish kerak. Buni u haqiqat vositalarini egallashda sabot bilan yo o'qitish va murabbiylik usullari yoki bahs va himoya usullari bilan amalga oshirilishi zarur□ deb yozadi, Abu Nasr Farobiyning Fozil odamlar shahri kitobida.[4,195]

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalashning eng muhim nazariy va amaliy jihatlarini bilishimiz kerak. Buning uchun avvalo, quyidagi psixologik - pedagogik muammolarni tushunib olmog'imiz lozim:

- o'quvchi shaxsining psixologik rivojlanganlik darajasi;
- o'quvchi shaxsining shakllanishi va o'quv-mehnat faoliyati mazmuni;
- o'quvchi shaxsi tabiatining tavsifnomasi va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari.[5,478]

O'quvchi shaxsining psixologik rivojlanganlik darajasini to'la yoritish uchun biz uning rivojlanish xususiyatlari borasida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lishimiz lozim.

Biz faoliyatimiz davomida o'quvchilarning psixologik rivojlanishi yosh xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligini kuzatamiz. Ruhii jarayonlar va bola ruhiyatidagi o'zgarishlar, chunonchi, diqqat va xotira darajasi, tafakkur xususiyatlari so'z boyligi hamda nutqning rivojlanganlik darajasi va boshqalar ruhiy psixologik rivojlanishga ta'luqlidir. Bizning maktablarimizda ta'lim-tarbiya ishlari bolalarga faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki bolalarning barcha qobiliyatlarini o'stirishni nazarda tutgan holda olib boriladi.[6,15]

Shuni aytish mumkinki, qobiliyat tushunchasini insonning tabiiy xususiyati deb qabul qilmay, biroq biz ko'p hollarda qobiliyat rivoji asosida ba'zi insonlarda tabiiy hususiyat, ya'ni iste'dod ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ba'zida «haqiqiy», «tabiiy», «tabiatdan berilgan» va shunga o'xshash so'zlar bilan aytilganda - «tabiiy» tushunchasi, - qobiliyat tushunchasi bilan amaliy tahlilda bir-biriga bog'liq. Ko'p hollarda biz tabiiylikni iste'dod rivoji asosida yotgan qobiliyatni tushunamiz.[7,26] Balki kimdir biror joyda amaliy so'z ishlatishda, u yoki boshqa biror narsani - tabiiy xususiyatni qobiliyat deb ta'kidlashi mumkindir. Go'dak tug'ilgan vaqtda mavjud bo'lgan «garmonik his» yoki «musiqaga bo'lgan tuyg'u» haqida o'ylash dargumon. Ehtimol, har qanday idrokli inson, tug'ilgan daqiqadan boshlab, musiqaga bo'lgan tuyg'u yoki o'zaro his-tuyg'uning rivoji asosida faqat iste'dod nishonalari, qiziqish yoki shunga o'xshash tuyg'u mavjud deb o'ylash mumkin.

Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, tabiiy iste'dod nishonalari haqida gap ketganda, biz hali meros bo'lib qolgan iste'dod nishonalari haqida so'zlaganimiz yo'q. [7,30]

Quyidayo'zlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish usullaridan foydalanish haqida na'munalar keltiramiz:

Aql charhi mashqlarini o'tkazish: bunga turli rebuslar, krasovordlar yechish, shaxmat va shashka o'yinlarini musobaqa shaklida tashkil etish kiradi.

Albatta yoshlarning ijodiy barcha ishlarini va iste'dodli mahoratlarini baholash, ularni turli sovg'a va faxriy yorliqlar bilan mukofotlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida keltirilgan nazariy holat va amaliy misollarga qaramay qobiliyat va uning rivojlanish muammosi psixologiya va pedagogikaning eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Qobiliyat sezgi analizatorlari, kuch, harakat hamda asabiy, jismoniy va aqliy jarayonlar muvofiqlashishi kabi nerv sistemasi xususiyatlariga bog'liq bo'lgan tabiiy iqtidor, iste'dod, shuningdek, tashqi ijtimoiy muhit ta'siri ostida rivojlanadi. Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy muhitda ta'lim-tarbiyaga bolaning ozi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod, qobiliyatlarini o'stira oladi. [8,256]

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan munosabatda bo'lishda sabr-toqat, vazminlik zarur.

Bolaning ijodiy imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan vaziyatli omillar

quydagilar:

- vaqt chegarasi;
- stress holati;
- yuqori tashvish holati;
- tezda yechim topish istagi;
- muayyan echim uchun qat'iy chegaralarning mavjudligi;
- oldingi muvaffaqiyatsizliklardan kelib chiqadigan ishonchsizlik;
- qo'rquv; [9,63]

Ijodkor yoshlarni tarbiyalash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

1. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergan kamchiliklarni ham tugatish mumkin.

2. Tarbiya inson faoliyatining istiqbol maqsadini belgilaydi. Shu bois u shaxs kamolotini ta'minlashda yetakchi rol o'ynaydi.

3. Insonning ma'naviy o'sishi sodir bo'ladi, Masalan, bola o'z ona tilini atrofni o'rab turgan muhitning ta'sirida o'rganib olishi mumkin. Lekin o'qish va yozishni maxsus ta'lim yo'li bilangina o'rganadi. Ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar faqat tarbiya jarayonida egallanadi.

4. Tarbiya yordamida hatto kishining ba'zi tug'ma kamchiliklarini ham ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Chunonchi, ba'zi bir bolalar ayrim kamchiliklar bilan tug'iladi (kar, ko'r, soqov va hokazo). Lekin maxsus tashkil etilgan tarbiya yordamida ularning aqli to'la taraqqiy qiladi, tug'ma kamchiligi bo'lmagan kishilar bilan barobar faoliyatda bo'lishi mumkin.

Tabiiyki, o'quvchilarning o'z maqsadlariga erishishlari uchun ta'lim maskanida olgan bilim, ko'nikma va malakalari kamlik qiladi. Ular yuksak maqsad yo'lida o'z ustilarida tinmay izlanishlari, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishlari lozim.

Fanlarda o'zlashtira olmagan o'quvchilarni qobiliyatsiz deyish xato, o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi – har bir o'quvchining yosh va psixologik xususiyatini chuqur o'rganish, uning qiziqishi va istaklarini aniqlash, ularni hisobga olgan holda pedagogik chora-tadbirlarni ko'rishdir. Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy hamda irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Xulosa. Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatni tashkil etadi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, xarakter sifatleri takomillashib, kamol topadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari qanday bo'ladi degan savolga biz quydagicha javob beramiz, tez va turli yo'llar bilan natijaga erishadi, o'zi qarorlar qabul qilishni

o'rganadi va uni takomillashtiradi, o'zining salohiyati va ambitsiyalarini amalga oshiradi, o'qish sharoitlariga osonroq va to'liqroq moslashishadi, duch kelgan muammolarni hal qilishda moslashuvchan, aniq va samarali hal qila olish xususiyatlariga ega bo'ladi. Bola shaxsining ijodkor bo'lishiga o'qituvchi va murabbiylar sharoitlar yaratib berishi lozim, shunda jamiyatimizda yangi ixtirolar, innovatsiyalar paydo bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - T.: O'zbekiston, NMIU, 2018. □ B. 570
2. Raxmatullaeva N.B. Ernazarova M.S Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutqini muloqatini rivojlantirish. "Oriental Art and Culture" □. 6-b.
3. Ochilob F.I. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirish xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ. 2016. 5. -7 s.
4. Murodjon o'g'li, U. I. (2024). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI DARS JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHGA O'RGATISH. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 17(3), 151-154.
5. Safo Ochil, K. Xoshimov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent, O'qituvchi, 1999. 478 s.
6. Davletshin M.G. O'quvchilarda texnik qobiliyatning rivojlanishi. Toshkent. 1991.
7. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent. O'qituvchi.1991.
8. Bobaqulova D.M. Umumiy pedagogika (o'quv qo'llanma). –Toshkent, 2021.-256 s.
9. O'tkir Tolipov. Ustoz shogirt qadriyatlari, □Toshkent, 2015.-63 s.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BILAN KORREKSION ISHLARNI OLIB BORISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ergashova Gulruxsor Qosimovna

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani

37 – umumta'lim maktabi amaliyotchi – psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan korreksion mashg'ulotlarining o'rni va qanday holatlarda qo'lay olishi haqida va psixologik jihatdan uning psixik xususiyatlariga e'tibor bergan holatda tashkil etish. Hamda o'quvchining rivojlanishi va o'zlashtirishi borasida psixologik-pedagogik yondashish va bolani qo'llab-quvvatlash borasidagi fikr-mulohazalarga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: korreksion, psixik xususiyatlar, motiv, pedagog, bola shaxsi.

Biz bilamizki, umumta'lim maktabi o'quvchilarining orasida barcha o'quvchilar ham yuqori darajada o'zlashtirishga ega emas. Bunday holatlarni oldini olish hamda sinfnig barcha o'quvchilarini sifat darajalarini ijobiy olib boorish uchun pedagoglardan mas'uliyat talab qilinadi. Buning uchun o'quvchilar bilimini oshirishga qaratilgan, o'zlashtirilmaslikning oldini olishga yo'naltirilgan bir qator korreksion ishlar amalga oshirish kerak. Asosan, umumta'lim maktab tadbirlariga quyidagilar kiradi.

O'zlashtirilmaslikning oldini olish bo'yicha pedagogika va psixologiyafanlarining ilg'or tajribalarini, tavsiyalarini maktab jamoasida umumiy o'rganishni tashkil etish.

1. Bu masalalarni pedagogik jamoa yig'ilishlarida, o'quvchilar konfrensiyalarida muhokama qilish maqsadga muvofiq metodik birlashmalarning yig'ilishlariga mustaqil o'rganish yo'li bilan muhokama qilinishi mumkin. Bu ishda o'quvchilar o'zlashtirmaslikning oldini olish bo'yicha maktab o'quvchilarining va alohida o'quvchilarning muvaffaqiyatli faoliyati haqida gazeta va jurnallardan maqolalarni targ'ib qiluvchi stendlar, ko'rgazmalar, ota – onalar faol o'quvchilar uchun seminarlar tashkil etish katta yordam beradi.

2. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan hohishi, uni bartaraf etish yo'llari haqida shu sinfda dars beradigan barcha o'qituvchilar va psixologlarning o'zaro fikrlashishi, ya'ni psixologik – pedagogik konsilumni tashkil etish.

3. Barcha maktablar miqyosida sinflararo o'zlashtirilmaslikning sabablarini tahlil qilish orqali umumlashtirish, ular orasidan mazkur maktab uchun xoslarini aniqlash, o'quvchilar o'zlashtirmasligini oldini olish maqsadida o'quv tarbiya

jarayonining takomillashtirish bo'yicha maktabdagi ishlarning bosh bo'g'inlarini va asosiy bosqichlarini ajratish.

4. O'quvchilarni o'qishga munosabatiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va hodisalarni aniqlash maqsadida maktab joylarida joylarni o'rganish. Bunday hodisalarni bartaraf etish uchun hokimiyat va jamoat tashkilotlari bilan aloqa o'rnatish.

5. Birinchi ishga qabul qilishayotgan o'quvchilarni psixologik ko'rikdan o'tkazish, o'qishga tayyorlashlari bilan turli mashg'ulotlar o'tkazish.

6. O'quvchilarning ish qobiliyatlarini mustahkamlash va ularni real o'quv ishtiyoqlarini rivojlantirish uchun maktablarda qishki va yozgi sog'lomlashtirish lagerlari va sport guruhlarini tashkil etish.

7. O'quvchilar o'zlashtirmasligini oldini olish bo'yicha tadbirlar tizimini amalga oshirish uchun maktab ishida doimo nazorat qilish. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim.

A) Psixologik – pedagogik konsilum natijalarini o'quvchilarning qo'shimcha fandan o'zlashtirayotganligini aniqlash yozma ish natijalarini tekshirish.

B) Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan o'zlashtirishning odini olish usullaridan foydalanayotganligiga e'tibor berish, murakkab mavzularga e'tibor berish, muhimini ajratish, o'quvchilarning yangi materiallarini tushunganligini tekshirish. Doimiy mustahkamlash va taqdirlash, xatolar ustida ishlash, o'qishda alohida qobiliyatini, o'quvchilarga individual yondashuv va boshqalar.

V) O'quvchilarning yillik, chorak va har kungi o'zlashtirish yozma ishlari va diagnostik ishlarini doimiy tahlil qilish. Kamchiliklar, ularni yo'qotish bo'yicha tadbirlar tizimini aniqlash.

D) O'quvchilar faoliyatidagi kamchiliklarni o'rganish, o'zlashtirish materiallarini egallash maqsadida o'quvchilarning faoliyatini o'zlari tahlil qilishlarini yaxshilash.

Ilg'or o'quvchilar ishidagi tajribalarni umumlashtirish va eksperimental tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha o'zlashtirmaslikning oshirilishi bo'yicha umumlashtirish ta'birlaridan tashqari dastlabki jamoalardan sinflararo guruhviy va individual profilaktik tadbirlar ham zarur.

Boshlang'ch sinflarda o'zlashtirilmasslikning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqish, avvalo, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar aqliy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishni taqozo etadi.

Bu davrga kelib bola atrofida gilar bilan bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofida gilar unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bog'lanish o'z-o'zidan oilasi, sinfi

vaboshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrdabolaning "Men shuni xohlayman" motividan "Men shuni bajarim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixikzo'riqish kuchayadi. Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xattiharakatidaham, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi. O'zaro munosabatda ma'lum bir natijalarga erishgan, o'zi xohlayotgan narsalarni hamda, o'z oilasida o'zi egallagan o'rnini aniq biladigan bo'ladi.

Bu davrda yozma nutq ham shakllana boshlaydi. Yozma nutq jummalarni to'grituzish va so'zlarni to'gri yozishga ma'lum talablar qo'yilganligi bilan xarakterlanadi. Bola so'zlarni qanday eshitgan bo'lsa, shundayligicha yozilmasligini bilishi, ularni to'gri talaffuz etishga va yozishga o'rganishi zarur. Yozma nutqni egallashi asosida bolalarda turli matnlar haqidagi ma'lumotlar yuzaga keladi. Bu davrda yozma nutq endigina shakllana boshlaganligi bois, bolada hali o'zi yozgan fikrlarni, so'z va harflarni nazorat etish malakasi hali rivojlanmagan bo'ladi. Lekin unga ijod qilish imkoniyati beriladi. Ushbu mustaqil ijodiy ish maktab yoshidagi o'quvchilarga berilgan mavzuni anglash, uning mazmunini aniqlash, fikrini bayon etish uchun ma'lumot to'plash, muhim jihatlarini ajratib olish, uni ma'lum ketma-ketlikda bayon etish, reja tuzish malakasini yuzaga keltiradi. Jummalarni to'gri tuzish, aynan shu mazmunga mosso'zlarni o'qish va ularni to'gri yozish, tinish belgilarini to'gri qo'y ish, o'z holatlarini topa olish va to'grilash aqliy rivojlanishning ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lemi kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faoligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshda bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki yuqoridagi kabi tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z munosabatini bildira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nimatova Z.T, Xalilova N.I. "Psixokorreksiya". Toshkent 2006 y.
2. Sherimbetova Z.SH. Nishonova Z.T. "O'zlashtirmovchi o'quvchilarning tiplari. Maktab va Hayot 2006 №6.

BUGUNGI TA'LIM –TARBIYA JARAYONIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHILARGA PSIXOLOGIK- XIZMATNING O'RNI VA AHAMIYATI

Ergashova Gulruksor Qosimovna
Farg'ona viloyati Bag'dod tumani
37- maktabning amaliyotchi-psixologi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada butun respublikamizda ta'lim sifatini oshirish, uni jahon miqyosida oldingi o'rinlarga olib chiqish uchun kelajak avlodni yetishtirib beruvchi kuchli – pedagog va psixologlar jamoasini mukammal darajaga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Buning uchun bo'lajak pedagoglarni, ya'ni talabalarni yuqori ta'lim texnologiyalari bilan ta'minlash, o'quvchilarga psixologik xizmatning o'rni va pedagog hodimlar bilan o'zaro bog'liqligini ularda ruhiy va ilmiy potensialini oshirish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Pedagog, o'quvchi, kritik, kollabaratsiya, kreativlik, kommunikativlik, shaxs kamoloti, ta'lim-tarbiya, ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, pedagogik faoliyat, psixik jarayon.

Pedagogik faoliyatning tuzilishi o'qituvchining o'ziga xosligi faqatgina uning har tomonlama pedagogik faoliyatidagi fazilatlari bilan bog'liqdir. O'qituvchi faoliyati o'zaro komponentlardan iborat. Pedagogik faoliyatning 3 komponenti farqlanadi: konstruktiv, kommunikativ va tashkilotchilik.

Bu komponentlarning bir-biriga bog'liqligi hammamizga ayon chunki ta'limni –tarbiyadan ajiratib bo'lmagani kabi har ikkisini birdaniga olib ketgan ma'qulroq.

Bugungi ta'lim jarayonida yangi modellarning, jumladan: 4 K modelini misol qilib olishimiz mumkin chunki kritik fikrlash kelajak mevasi bo'lishi uchun bunday metodlarning kirib kelishi va o'quvchilarda kollabaratsiya jarayonini, kreativlikni, kommunikativlikni, tanqidiy fikrlashni o'rgatish va moslashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri.

Bu borada nemis psixologi V.Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg'a surgan edi.

Bu fikrga qarama-qarshi rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo'lib ilgari surdi va uni: ta'lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o'z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab, beradi.

J.Piajening fikricha, bolaning aqliy o'sishi o'zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi.

Bolalar ta'lim-tarbiyasida bo'ladigan kamchiliklarning asosiy sabablaridan biri o'qituvchining psixologiyasiga bog'liq. Lekin bunga ko'pincha e'tibor berilmaydi.

Shuning uchun o'qituvchilar jamoasini psixologik nuqtai nazardan o'rganish, uni muvaffaqiyatli boshqarishning psixologik yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga egadir. Pedagogik jamoani muvaffaqiyatli boshqarish uchun jamoa tarkibini o'rganish, kamchiliklarini korreksiyalash va haqiqiy pedagogik jamoa sifatida shakllantirish lozim. Jamoada ishlash ko'nikmalarining rivojlangan darajasi ham muvaffaqiyatli jamoa uchun asosiy omillardan biridir. Jamoada ishlash muloqot vositasida amalga oshadi. Pedagogik jamoaning rivojlanishida shaxslararo muloqot muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida ham ayni shaxslararo munosabat birinchi o'rinda turadi. Pedagog bo'ladimi yoki o'quvchi biz albatta ularga psixologik yordam berishga har doim tayyor bo'lamiz va psixologik tavsiya va maslahatlar beramiz. Bu borada psixologik xizmatning o'рни va ahamiyati muhim hisoblanadi.

Har qanday psixik o'zgarish yoki yosh va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatlari ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi. Insonning shaxs sifatida tavsiflashning muhim lahzasi, uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiytdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'рни) orqali ifodalanadi.

Status negizida doimiy o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Rolning ijtimoiy funksiyasi muayyan maqsadlarga va qadriyatlarga yo'nalganlik shaxsni faollashtiradi.

Status, roli qadriyatga yo'nalganlik shaxs xususiyatlarining birlamchilarini tashkil etadi va uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning ta'rifi xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l-atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi asosiy shakl-uning jamiytdagi hayot yo'li va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi. Individ, shaxs va sub'ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlariga e'tibor qilishi zarur: - inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari) -insoning o'ziga taalluqli, asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolutsiya bosqichi, barqarorlashuvi -inson yaxlit tuzilishning asosiy tarkiblari, ularning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi kabilar, insonning amaliy va nazariy faoliyatining mezonlari hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. G'oziyev, E. (2010). *Umumiy psixologiya*. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). *Umumiy psixologiya*. TDPU.
3. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. *SCOPE Acad. HOUSE BM Publ.* 103, 41–46.
4. Samarova Shoxista Ravidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. *JCR.* 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69
5. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(1), 272-274.
6. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. *Theoretical & Applied Science*, 53(9), 79-82.
7. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020). Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*, 9(3), 2677-2684.
8. Usarov Djabbar Eshkulovich, & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02), 1337-1346.
9. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences.* 7(8). 16-22.

THE CONDITIONS OF BORROWINGS IN BRAND NAMES

*Payanova Dilbar Kurbanovna,
1st course Master of
Termez University of economics and service*

Annotation: The given article deals to provide stating on the methods and role of borrowing in brand formation, phonetic process, psychological semantic and linguistic characteristics of the name chosen by the Uzbek manufacturers, and essential features of choosing hybrid name to make it more expressive, more attractive and aesthetic.

Аннотация: В данной статье изложены методы и роль заимствования в формировании бренда, фонетический процесс, психосемантические и лингвистические характеристики имени, выбранного Узбекскими производителями, а также основные особенности выбора гибридного имени, чтобы сделать его более выразительным, привлекательным и эстетичным.

Key words: Internationalization, brand, language contact, terminology, borrowings, neologism, hybridization, language game, style.

Ключевые слова: интернационализация, бренд, языковой контакт, терминология, заимствования, неологизм, гибридизация, языковая игра.

One of the noticeable factors determining the state of the Uzbek language at the current stage of its development is the borrowing of words that supplement the various lexical and semantic associations. Scrapbooking vocabulary serving almost the most popular hobby of international scale, as well as the actively developing scrap industry, is of particular interest. This is primarily due to the fact that in this communicative area terminological and professional vocabulary is partly lost in the speech of a non-specialist its socially limited character.

In the conditions of intensive expansion of language contacts and development of global information flows, the question of internationalization of terminology, the role of terminology derivation in the creation of industry-specific dictionaries, namely, scrapbooking dictionary or scrap booker becomes relevant. One of the most striking trends in the process of adaptation of foreign words at the turn of the XX-XXI centuries is the blurring of boundaries between different types (borrowings proper, inclusions (barbarities) and exoticism) and the formation of new «hybrid» varieties. Therefore, the problem of assimilation of borrowed words in the Uzbek language, in particular their word-formation adaptation, is relevant.

The process of assimilation of borrowings leads not only to the appearance of derivatives of neologisms formed by the models of both usual and occasional word formation, but also to the appearance of semantic neologisms created on the basis of metaphorical and metonymic transferences.

The development of normative pronunciation and the identification of trends in this process is closely linked to the evaluation of phonetic variants. The variability arises as a consequence of transliteration and transcription. Spelling variants can generate pronunciation variants.

The accelerated formation of new word-formation nests, the formation of extensive rows of derivatives from the borrowed word indicates a high degree of mastery of a significant number of verbal units of foreign language origin. As studies show, various word-formation models – usual and occasional, form neologisms. Neologisms formed from borrowed roots by productive Uzbek word-formation models are built into the word-formation nest.

In thematic terms, words borrowed cover a variety of areas and are grouped as follows.

Web Money

The company presented WMY-purse in Uzbek sums, which can be replenished through Uzcard, Oson and Paynet in July. With the help of WMY title signs, you can pay for mobile communications, internet, utilities and online games. Global and national services will be connected to the reception of WMY.

Tenge Bank

It is a subsidiary of Halyk Bank of Kazakhstan, which started operations in July. Uzbekistan is the sixth state where Halyk Bank is present.

2GIS

International IT-company, developer of the application, which includes a business directory of the city organizations and a 3D map, came to Uzbekistan in August. Uzbekistan became the tenth country where the service is presented.

Philip Morris International

In early December, Tashkent Tobacco will hold a ceremony to launch licensed production of cigarette brands Marlboro, Parliament and L&M in Uzbekistan. It is reported that this is done in the framework of investment cooperation with international tobacco company Philip Morris International.

Wendy's

The first restaurant of one of the world's largest fast food franchises Wendy's started its work in Tashkent in June. Wendy's fast food chain was founded in 1969 in Columbus, Ohio. The company includes more than 6.7 thousand franchises and restaurants managed by the company around the world.

Baskin Robbins

«Baskin Robbins is known as the world leader in a variety of premium ice cream varieties. Only natural products are used to make a delicacy: fruits, nuts, pastels, caramel and many other components.

Hyundai Auto Kazakhstan/Astana Motors

The company started selling Hyundai in Uzbekistan. The company has «looked into» Uzbekistan for several years, waiting for the country to open its borders for exports. Entering a country with a large economy and population and representing the largest South Korean brand in the company was called a «big challenge».

Black Star Burger

GÖSHT Group signed a contract with Black Star Burger. This is not the first

franchise for GÖSHT Group: in February the first Tashkent barbershop «Топор» from another representative of the label Black Star MC Doni was opened.

Avtoelon.uz (Kolesa Group)

Back in 2018, the Kazakhstan company announced the launch of a site in Uzbekistan to place advertisements for the sale of cars, special equipment and spare parts in Russian and Uzbek languages, which allows you to connect the seller and buyer online - avtoelon.uz.

Alif Tech

A Tajik financial company is recruiting in Tashkent and has launched an online shop selling goods by installments. In early October, “АлифКапитал” established a company in Uzbekistan to take advantage of MUIC's preferential tax treatment.

Mogo Finance

The International Automobile Leasing Company started providing standard and reverse finance leasing/leasing services in Uzbekistan from February. Mogo Finance is one of the fastest growing non-banking car financing companies in the world, which offers its clients standard financial leasing/leasing and reverse leasing/leasing operations.

“Шин-Лайн” ice cream company

“Бахрома”, “Тролли” and “Бомба” brands were the first to go to Uzbekistan. With the development of sales and expansion of distribution geography, other types of ice cream will be supplied. In August, it became known that the company's sales growth in Uzbekistan in 2019 was 280%.

«Амедиатека»

The Russian company came to Uzbekistan in April, when the final season of the series «Game of Thrones» started. Amediateka Home of HBO - is one of the largest online services in the CIS with a legal collection of the best series of the planet from the world's leading studios: HBO, Showtime, Starz, CBS, Fox, Sony, ABC Studios and others.

Ivi

The Russian online cinema, together with Uzbektelecom, provides locally quality licensed media content in Uzbekistan in the form of foreign films, TV series and music. You can pay in sums. The service has also established a partnership with Beeline.

Fix Price

The Russian chain of stores in the format of «fixed price shop» has already started recruiting employees in Uzbekistan. Fix Price chain operates in the format of «fixed price shop», also known as variety store, pound shop, dollar store and under other names, which is a universal retail store selling a wide range of both food and non-food products at one fixed price.

Carrefour

In the first phase, it is planned to open seven stores, including three supermarkets

and one hypermarket in 2020 and two supermarkets and one hypermarket in 2021. They will be located in facilities owned by Akfa Group on a total area of 17.4 thousand square meters. The founder of korzinka.uz

Zafar Hashimov has already greeted the competitor.

TBC Bank

The Georgian bank is already present here after buying 51% of Payme shares, but the company has big plans for Uzbekistan - the bank has already applied for a banking license in the country and plans to develop its neo-bank Space here.

Armani Exchange and Trussardi

Both of them will appear in the Riviera shopping mall in 2020. «Market conditions are getting better, and there is increasing interest from many companies. International brands are closely watching Uzbekistan, and the opening of LC Waikiki in the country has put the country on the map of the global fashion industry» said Pascal Puye, managing director of EurasiaGroup.

Speaking of borrowing, the brand is also a combination of the impression it makes on consumers with the result of their experience in using the brand. In addition, the use of the term «brand» is primarily appropriate for well-known and popular trademarks (*Coca-Cola, Whiskas, BMW*). Thus, the brand is a synthesis of intuition and professionalism of the company's management, who created the ideology of the product, the art of the developer of the designation and psychologist ergonomist to create a corporate identity, the work of a patent and lawyer for the competent registration and legal support of goods.

marks and patents owned by the company multiplied by an effective marketing strategy that¹ permeates all company divisions.

Let's look at the brightest examples. American corporation McDonald`s is one of the largest in the fast food industry, so some firms use the main components of this brand.

In addition, part of the symbolism of the brand McDonald`s is a red-yellow color scheme, which provided the creators of these ergonyms: all these names are decorated in the same range.

The famous brand of ice cream «BaskinRobbins» (logo - abbreviation «BR») is used in the ergonomics of cafe *BR Васъкин Rabbit*. This example is interesting because it refers to two sources at once - the color scheme, the logo and names indicate a direct borrowing of the brand symbols of the popular ice cream, but the word «Rabbit» and the image of the Hare from the Soviet cartoon film «Ну, погоди!» create associations with the Soviet era, childhood and cartoon characters.

Thus, the most common method is to create new words (neologisms) that do not mean anything, but can become real brands. Neologisms have a lot of advantages. First, they have no translation in many languages, that is, they can become international.

Name is one of the most important elements of the so-called marketing mix of

¹URL: <http://fastbb.ru/adv/76-logotip-i-firmennyi-stil-kak-osnova-brenda-lyubogo-produkta.html> (дата обращения – 28.01.16)].

the brand It is the name that plays a huge communicative role and greatly facilitates the promotion, informing the consumer about the consumer properties and positioning of the product In the modern, saturated market information, the consumer experiences continuous pressure from advertising, and therefore the «right name» can play a key role.

The above methods allow you to create brand names that can be classified Descriptive Names.

This category of names represents the advantages and quality of the product in a simple and direct form.

Literature:

1. Аакер Д. Индивидуальность бренда и его характеристики//Бренд-менеджмент. 2001 № 2. С. 228
2. Аакер Д. Создание сильных брендов М., 2003. С.157
3. Аакер Д., Иохимштайлер Э. Бренд-лидерство: новая концепция брендинга. М., 2003. С. 335
4. Арбекова Т. И. Лексикология английского языка (практический курс). М.: Высшая школа, 1977. 240 с.
5. Артёмова. А.Ф. Английские товарные знаки. – М., 2004 с. 157
6. Madiyeva M. “Brendlarning nominativ funksiyasi” //The actual problems of philology Materials of the international scientific conference Fergana. 2022. – P. 225-227.

TARMOQLARARO EKTRAN TEXNOLOGIYALARI

Ilg'orova Dilnoza Ilg'or qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali, talabasi

ANNOTATSIYA

Bu maqolada "Tarmoqlararo Ekran Texnologiyalari" mavzusini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada, tarmoqlararo ekran texnologiyalarining mohiyati, ularning turlari va ularga tegishli yaxshi va yomonligi tahlil qilingan. Tarmoqlararo ekran texnologiyalarining qanday ishlab chiqilishi, qanday ishlaydi va ularning bugungi tarmoq texnologiyasidagi ahamiyati haqida ham muloqot qilinadi.

Kalit so'zlar: Tarmoqlararo ekran, texnologiya, tarmoq texnologiyasi, kompyuterlararo aloqa, ekran qo'llab-quvvatlash, nirkabel ekranlar, qo'shimcha ko'rsatuvlar, jismoniy aloqa, tarmoq protokollari.

KIRISH

Kompyuterlararo aloqa sohasida rivojlanayotgan tarmoqlararo ekran texnologiyalari, eng oxirgi yillarda katta e'tibor qozongan soha bo'lib chiqdi. Bu texnologiyalar, kompyuterlarni va boshqa qurilmalarni bir-biriga bog'lab, o'zaro nirkabel aloqalar orqali ma'lumot almashishga imkon beradi. Tarmoqlararo ekran texnologiyalari, kompyuterlararo aloqa sohasidagi rivojlanishni yanada oshirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu maqolada tarmoqlararo ekran texnologiyalari haqida to'liq tahlil qilinadi, ularning turli turlari va ularni qanday qo'llashning afzalliklari va cheklavlari bayon qilinadi.

TARMOQLARARO EKTRAN TEXNOLOGIYALARI:

TAHLIL VA MAVZU

Tarmoqlararo ekran texnologiyalari, kompyuterlarni va boshqa qurilmalarni birlashtirib, o'zaro nirkabel aloqalar orqali ekran ko'rsatishga imkon beruvchi texnologiyalardir. Bu texnologiyalar, ma'lumotlar almashish, o'zaro ko'rish va ko'rsatuvlar uchun o'zlashtirilgan. Ular o'zlarini turli xil protokollarda ishlatishadi, jumladan, Wi-Fi, Bluetooth, va NFC (Near Field Communication) kabi.

Tarmoqlararo Ekran Texnologiyalarining Turli Turlari: Wi-Fi Direct: Bu texnologiya yordamida kompyuterlar va boshqa qurilmalar o'zaro bog'lanishsiz, nirkabel ekranlarga ega bo'lishadi. Bu, turli xil qurilmalarni bir-biriga bog'lab ekran ko'rsatishga imkon beradi.

Bluetooth ekran ko'rsatish: Bluetooth protokoli yordamida, qurilmalar o'zaro bog'lanadi va ekranlarga ma'lumotlar o'tkaziladi. Bu texnologiya, yaqin masofadagi qurilmalar uchun idealdir.

NFC (Near Field Communication): NFC, yaqin masofadagi qurilmalar o'rtasida o'zaro ma'lumot almashish uchun ishlatiladi. Bunday ekranlar qurilmalar o'rtasida sodda va tezkor aloqani ta'minlash uchun qulaydir.

Tarmoqlararo Ekran Texnologiyalarining Afzalliklari va Cheklovlari

Afzalliklar:

Nirkabel aloqa: Tarmoqlararo ekran texnologiyalari kompyuterlarni nirkabel aloqa orqali bog'lab, o'zaro ko'rish va ko'rsatuvlar uchun qulaylik yaratadi.

Portativlik: Bu texnologiyalar portativ va yengil kompyuterlar uchun idealdir, chunki ularning nirkabel aloqasi yordamida boshqa qurilmalar bilan birlashtirilishi oson.

Ko'p funksiyalar: Tarmoqlararo ekran texnologiyalari ko'p funksiyalarni qamrab oladi, masalan, ekran ko'rsatish, fayllar almashish va boshqa qurilmalar bilan ko'rish uchun imkoniyatlar mavjud.

Cheklovlari:

Tezlik: Nirkabel aloqa tarmoqlararo ekran texnologiyalarining tezligi kabelliy aloqalarga nisbatan past bo'lishi mumkin.

Maxsus protokollar: Ba'zi tarmoqlararo ekran texnologiyalari o'zlariga xos protokollarni qo'llaydi, bu esa qurilmalar o'rtasidagi aloqada cheklanishga olib keladi.

Xavfsizlik: Nirkabel aloqalar xavfsizlik bo'yicha muammolarga olib kelishi mumkin, shuning uchun ma'lumotlar xavfsizligi kafolatlari o'rnatilishi kerak.

Muhokama: Tarmoqlararo ekran texnologiyalari kompyuterlararo aloqani yanada yaxshilaydi va ularning ko'rsatuvlarini nirkabel aloqalar orqali oshiradi. Ularning afzalliklari va cheklovlari, ularni foydalanuvchilarga yo'l qo'yish va tarmoq tizimlarining xavfsizligi bo'yicha muammolar ko'rsatadi. Tarmoqlararo ekran texnologiyalari kiberxavfsizlik sohasidagi yangi chalinganliklarga ega, shuning uchun ularning yanada rivojlanishi va ishlatilishi uchun xavfsizlik usullarini rivojlantirish va ularni amalga oshirishga duch kelish juda muhimdir.

XULOSA

Tarmoqlararo ekran texnologiyalari kompyuterlararo aloqani nirkabel aloqalar orqali yanada o'rganishga yordam beradi. Ular portativlik, ko'p funksiyalar va boshqa qurilmalar bilan ishlov berish imkoniyatlarini ta'minlashda yordam beradi. Bunday texnologiyalar yaxshi aloqalashni oshirishda yordam beradi, ammo ularga xavfsizlik muammolarini duch keltirish ham juda muhimdir. Xavfsizlik muammolari bilan kurashish uchun, maxsus xavfsizlik protokollari va tizimlar ishlatilishi lozimdir.

Bu maqolada tarmoqlararo ekran texnologiyalari haqida umumiy tahlil, ularning turlari, afzalliklari va cheklovlari bayon qilingan. Bundan tashqari, ularning qanday ishlab chiqilishi, qanday ishlaydi va ularning kompyuterlararo aloqani yanada o'rganishga ta'sirini ham ko'rsatildi. Ushbu maqola kompyuter tarmoqlarining so'nggi rivojlanishi va ularning xavfsizligi bo'yicha kritik muloqotlarni o'z ichiga oladi.

Мақоллада тarmoqlararo ekran texnologiyalari, ularning turli turlari, afzalliklari va cheklovlari, xavfsizlik muammolari va ularni yaxshilash usullari to'g'risida to'liq tahlil qilingan. Ular portativlik, ko'p funksiyalar va boshqa qurilmalar bilan ishlov berish imkoniyatlarini ta'minlashda yordam beradi. Bunday texnologiyalar yaxshi aloqalashni oshirishda yordam beradi, ammo ularga xavfsizlik muammolarini duch keltirish ham juda muhimdir.

Xavfsizlik muammolari bilan kurashish uchun, maxsus xavfsizlik protokollari va tizimlar ishlatilishi lozimdir. Tarmoqlararo ekran texnologiyalari kompyuter tarmoqlarining so'nggi rivojlanishi va ularning xavfsizligi bo'yicha kritik muloqotlarni o'z ichiga oladi. Shu sababli, kompyuter tarmoqlarining o'zgaruvchanliklarini ta'minlash va ularning ishlov berishini muhofaza qilish uchun tarmoqlararo ekran texnologiyalarining rivojlanishi va ishlatilishi uchun xavfsizlikni oshirish lozimdir.

Xavfsizlikni oshirishga qaratilgan usullar orqali, tarmoqlararo ekran texnologiyalari kompyuter tarmoqlarini va ularning ma'lumotlarini himoya qilish uchun katta ahamiyatga ega. Bunday usullar orasida ma'lumotlar uchun maxsus shifrlash, autentifikatsiya protokollari, nazorat va xavfsizlik sozlamalari kiritish va tarmoqlararo aloqani nazorat qilish kabi amallar kiritilishi mumkin.

Qisqacha aytganda, tarmoqlararo ekran texnologiyalari kompyuter tarmoqlarini va ularning ma'lumotlarini o'zaro nirkabel aloqa orqali bir-biriga bog'lash imkonini beradi. Ammo, bu aloqa xavfsizlik muammolariga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu texnologiyalarni ishlatayotgan paytda xavfsizlikning yuqori darajada ta'minlanganligiga ishonch hosil qilish juda muhimdir.

Shu maqola asosida, tarmoqlararo ekran texnologiyalari, ularning xavfsizligi, turli turlari va ularni qanday qo'llash haqida to'liq tahlil qilindi. Ular kompyuter tarmoqlarini yanada kengaytirish va ularga portativlik qo'shishda yordam beradi, ammo xavfsizlik muammolari ham mavjud. Ular murakkab shifrlash, autentifikatsiya va nazorat protokollari orqali bu muammolarni yechishga yordam beradi. Yangi texnologiyalar rivojlanishida xavfsizlikga katta e'tibor berilishi lozim, shuning uchun tarmoqlararo ekran texnologiyalari xavfsizlikning muhim qismi sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Wireless Network Security: A Beginner's Guide" - Tyler Wrightson
2. "Network Security Essentials: Applications and Standards" - William Stallings
3. "Computer Networking: Principles, Protocols and Practice" - Olivier Bonaventure
4. "Wireless Communications & Networks" - William Stallings

TARMOQLARNING TURLARI (LOKAL TARMOQLAR, MINTAQAVIY TARMOQLAR, GLOBAL TARMOQLAR)

Ilg'orova Dilnoza Ilg'or qizi

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali, talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola kompyuter tarmoqlarining turlari, ya'ni lokal tarmoqlar (LAN), mintaqaviy tarmoqlar (MAN) va global tarmoqlar (WAN) haqida umumiy ma'lumot beradi. Har bir tarmoq turi o'zining xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari bilan ajralib turadi. Maqolada ushbu tarmoqlarning ta'rifi, ishlatilish sohasi va ularning o'zaro farqlari batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Lokal tarmoqlar (LAN), mintaqaviy tarmoqlar (MAN), global tarmoqlar (WAN), kompyuter tarmoqlari, tarmoq infratuzilmasi.*

KIRISH

Axborot texnologiyalari sohasida kompyuter tarmoqlari muhim rol o'ynaydi. Kompyuter tarmoqlari orqali ma'lumotlar uzatish, resurslarni taqsimlash va qo'shma ishlash imkoniyatlari yaratiladi. Tarmoqlar har xil ko'lam va geografik qamrovga ega bo'lib, ularni asosan uch turga ajratish mumkin: lokal tarmoqlar (LAN), mintaqaviy tarmoqlar (MAN) va global tarmoqlar (WAN). Har bir tur o'ziga xos texnik va ishlash xususiyatlariga ega. Ushbu maqolada tarmoqlarning bu uch turi haqida batafsil ma'lumot beriladi va ularning farqlari hamda qo'llanilish sohasi ko'rib chiqiladi.

Kompyuter tarmoqlarining rivojlanishi va keng qo'llanilishi zamonaviy jamiyatning turli sohalarida muhim o'rin tutadi. Tarmoqlar yordamida foydalanuvchilar masofadan turib ishlashlari, o'qishlari va muloqot qilishlari mumkin. Shuningdek, tarmoqlar biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tez va samarali almashish, hamkorlik qilish va boshqa ko'plab amaliyotlarni qo'llab-quvvatlash uchun foydalaniladi. Kompyuter tarmoqlarining turli turlari esa turli ehtiyojlar va talablarga mos keladigan yechimlarni taqdim etadi.

Lokal tarmoqlar (LAN) kichik geografik hududda, masalan, ofis, uy yoki kampus doirasida quriladi. Bunday tarmoqlar odatda yuqori tezlikda ma'lumot uzatish imkonini beradi va foydalanuvchilarga resurslarni, masalan, printerlar, fayllar va internetga ulanishni bo'lishish imkonini beradi. LANlar ko'pincha kichik va o'rta korxonalar, maktablar va uy sharoitida qo'llaniladi.

Mintaqaviy tarmoqlar (MAN) esa bir shahar yoki mintaqadagi bir nechta lokal tarmoqlarni bog'lash uchun ishlatiladi. Bunday tarmoqlar ko'pincha yirik korporatsiyalar, universitetlar kampuslari va davlat tashkilotlari tomonidan

qo'llaniladi. MANlar LANlarga qaraganda kengroq qamrovga ega bo'lib, bir necha kilometr masofani qamrab olishi mumkin.

Global tarmoqlar (WAN) esa eng katta geografik hududlarni qamrab oluvchi tarmoqlar bo'lib, butun dunyo bo'ylab joylashgan kompyuterlar va tarmoqlarni birlashtiradi. Internet eng katta WAN hisoblanadi va u milliardlab qurilmalarni o'zaro bog'laydi. WANlar odatda xalqaro korporatsiyalar, hukumatlar va boshqa yirik tashkilotlar tomonidan qo'llaniladi.

Tarmoqlarni tashkil etish va boshqarish murakkab texnik va tashkiliy chora-tadbirlarni talab qiladi. Har bir tarmoq turining o'ziga xos afzalliklari va cheklovlari mavjud bo'lib, ular tarmoqning qamrov hududi, tezlik, ishonchlilik va xavfsizlik talablariga bog'liq. Ushbu maqolada har bir tarmoq turi haqida batafsil ma'lumot beriladi, ularning texnik xususiyatlari, qo'llanilish sohasi va o'zaro farqlari ko'rib chiqiladi. Bu ma'lumotlar kompyuter tarmoqlari bilan ishlashda va ularni loyihalashda foydali bo'ladi.

Kompyuter tarmoqlarining turlari va ularning qo'llanilish sohalari haqidagi ma'lumotlar orqali foydalanuvchilar o'z ehtiyojlariga mos keladigan tarmoqni tanlashlari va ularni samarali boshqarishlari mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, tarmoqlarni himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tarmoq turiga xos bo'lgan xavfsizlik choralarini ko'rish orqali foydalanuvchilar va tashkilotlar o'z ma'lumotlarini himoya qila oladilar. Maqolaning asosiy qismida bu tarmoqlarning xususiyatlari va amaliy qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Lokal tarmoqlar (LAN): Lokal tarmoqlar yoki LANlar (Local Area Network) bir binoda yoki yaqin joylashgan bir nechta binolarda joylashgan qurilmalarni o'zaro bog'lash uchun mo'ljallangan tarmoqlardir. Ular odatda kichik masofalarda, odatda bir necha yuz metr doirasida ishlaydi va yuqori tezlikda ma'lumot uzatish imkonini beradi.

Xususiyatlari:

Tezlik: LANlar yuqori ma'lumot uzatish tezligi (odatda 100 Mbps dan 10 Gbps gacha) bilan ajralib turadi. Bu tezlik foydalanuvchilarga katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda uzatish imkonini beradi.

Kichik geografik qamrov: LANlar bir binoda yoki bir kampusda cheklangan masofada ishlaydi, bu esa tarmoq infratuzilmasini boshqarish va xizmat ko'rsatishni osonlashtiradi.

Oson boshqaruv: LANlar nisbatan oson boshqariladi va ulardagi o'zgarishlarni amalga oshirish ham oson. Bu tarmoqlarda oddiy kommutatorlar (switch) va marshrutizatorlar (router) yordamida tarmoqni kengaytirish va yangi qurilmalarni qo'shish mumkin.

Kam kechikish: LANlar ichidagi ma'lumot uzatish kechikishi juda past bo'lib, bu real vaqtda ishlaydigan dasturlar uchun juda muhimdir.

Arzon narx: LANlarni tashkil etish va boshqarish narxi nisbatan past bo'lib, bu kichik va o'rta korxonalar uchun juda qulaydir.

Qo'llanilish sohasi:

Ofis va korxonalar: Ichki tarmoq sifatida foydalaniladi, bu orqali xodimlar ma'lumotlarni tez va samarali ravishda almashishlari mumkin. Bu tarmoqlar ofis printerlari, fayl serverlari va boshqa resurslarni bo'lishishga imkon beradi.

Ta'lim muassasalari: Universitet va maktablarda talabalarning o'qish jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladi. LANlar orqali talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ma'lumot almashish, onlayn darslar o'tkazish va resurslardan foydalanish mumkin.

Uy tarmoqlari: Bir nechta qurilmalarni (kompyuterlar, printerlar, televizorlar) o'zaro bog'lash uchun ishlatiladi. Uy LANlari orqali internetga ulanish, o'yinlar o'ynash va media kontentlarni bo'lishish mumkin.

Mintaqaviy tarmoqlar (MAN)

Mintaqaviy tarmoqlar yoki MANlar (Metropolitan Area Network) bir shahar yoki mintaqadagi kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lash uchun ishlatiladi. Bu turdagi tarmoqlar LANDan kattaroq, lekin WANDan kichikroq qamrovga ega.

Xususiyatlari:

O'rtacha geografik qamrov: Bir shahar yoki mintaqa bo'ylab ishlaydi, odatda bir necha kilometr masofani qamrab oladi. Bu tarmoqlar bir nechta ofis binolarini yoki universitet kampuslarini o'z ichiga olishi mumkin.

O'rtacha tezlik: MANlar odatda 10 Mbps dan 1 Gbps gacha bo'lgan tezlikda ishlaydi, bu esa katta hajmdagi ma'lumotlarni uzatish imkonini beradi.

O'rtacha narx: MANlarni yaratish va boshqarish LANga qaraganda qimmatroq, lekin WANga qaraganda arzonroq. Bu tarmoqlar uchun optik tolali kabellar yoki yuqori tezlikdagi simsiz texnologiyalar ishlatiladi.

Barqarorlik va ishonchlilik: MANlar odatda yuqori ishonchlilik va barqarorlikni ta'minlash uchun zaxira yo'llar va zaxira energiya manbalari bilan jihozlanadi.

Qo'shimcha xizmatlar: MANlar odatda yuqori tezlikdagi internet xizmatlari, VoIP (Voice over IP) telefon xizmatlari va boshqa telekommunikatsiya xizmatlarini taqdim etadi.

Qo'llanilish sohasi:

Shahar infratuzilmasi: Shahar bo'ylab joylashgan ofislar, maktablar, universitetlar va boshqa tashkilotlarni o'zaro bog'lash uchun ishlatiladi. Shahar hokimiyati va boshqa davlat tashkilotlari MANlar orqali ma'lumotlarni tez va ishonchli almashish imkoniga ega.

Korporativ tarmoqlar: Yirik kompaniyalarning shahar ichidagi filiallarini bog'lashda qo'llaniladi. Bu kompaniyalarga ichki tarmoqlarini kengaytirish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

Ta'lim va tadqiqot muassasalari: Universitetlar kampuslari va tadqiqot markazlarini bog'lash uchun qo'llaniladi, bu esa ilmiy hamkorlik va tadqiqotlar uchun muhimdir.

Global tarmoqlar (WAN):

Global tarmoqlar yoki WANlar (Wide Area Network) keng geografik hududlarni, shu jumladan davlatlararo va qit'alararo bog'lamlar uchun ishlatiladi. Bu turdagi tarmoqlar Internet kabi global tarmoqlarni o'z ichiga oladi.

Xususiyatlari:

Katta geografik qamrov: Bir necha shahar, mamlakat va qit'alarni qamrab oladi. WANlar global miqyosda ma'lumot uzatish va qo'shma ishlash imkonini yaratadi.

Nisbatan past tezlik: WANlar odatda LAN va MANlarga qaraganda pastroq tezlikda ishlaydi, odatda 56 Kbps dan bir necha Gbps gacha. Tezlik pastroq bo'lishiga qaramay, WANlar katta masofalarni qamrab oladi.

Murakkab boshqaruv: WANlar murakkab infratuzilmaga ega bo'lib, ularni boshqarish va texnik xizmat ko'rsatish qiyinroq va qimmatroq. Bu tarmoqlar uchun maxsus apparat va dasturiy ta'minot talab etiladi.

Turli texnologiyalar: WANlar turli xil texnologiyalarni, masalan, optik tolali kabellar, sun'iy yo'ldoshlar, mikroto'lqinli bog'lamlar va xalqaro telefon tarmoqlarini qo'llaydi.

Xavfsizlik va shifrlash: WANlarda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun kuchli shifrlash va xavfsizlik choralarini qo'llash zarur. Bu tarmoqlar orqali uzatiladigan ma'lumotlar ko'pincha maxfiy va muhim bo'ladi.

Qo'llanilish sohasi:

Korporativ tarmoqlar: Xalqaro yoki davlatlararo korporatsiyalarning filiallarini o'zaro bog'lash uchun ishlatiladi. Bu kompaniyalarga global miqyosda hamkorlik qilish va biznes jarayonlarini birlashtirish imkonini beradi.

Internet: Eng katta WAN hisoblanadi va dunyo bo'ylab milliardlab qurilmalarni bog'laydi. Internet orqali foydalanuvchilar ma'lumotlarni almashish, onlayn xizmatlardan foydalanish va muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat va hukumat tarmoqlari: Davlat idoralari va hukumat tashkilotlari global tarmoqlar orqali xalqaro hamkorlik va ma'lumot almashishni amalga oshiradilar.

Telekom va media kompaniyalari: Xalqaro telekommunikatsiya va media xizmatlarini taqdim etish uchun WANlardan foydalanadilar. Bu tarmoqlar orqali xalqaro qo'ng'iroqlar, televizion translyatsiyalar va boshqa media kontentlar yetkazib beriladi.

Tarmoqlarni taqqoslash: Ushbu tarmoqlar turli ehtiyojlar va talablar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. LANlar yuqori tezlik va kichik geografik qamrov bilan ajralib tursa, MANlar o'rta masofalar

uchun yuqori tezlikdagi bog'lanishlarni taqdim etadi. WANlar esa katta geografik hududlarni qamrab olib, pastroq tezlikda global bog'lanishni ta'minlaydi.

Tarmoqlarni loyihalash va amalga oshirishda tashkilotlar o'z ehtiyojlarini hisobga olishlari kerak. Lokal tarmoqlar kichik korxonalar va uy sharoiti uchun mos keladi, mintaqaviy tarmoqlar shahar va mintaqa miqyosida samarali bo'lsa, global tarmoqlar xalqaro hamkorlik va keng qamrovli ma'lumot uzatishni ta'minlaydi.

XULOSA

Kompyuter tarmoqlari zamonaviy jamiyatning ajralmas qismidir. Ular orqali ma'lumot uzatish, resurslarni taqsimlash va qo'shma ishlash imkoniyatlari yaratiladi. Lokal tarmoqlar (LAN), mintaqaviy tarmoqlar (MAN) va global tarmoqlar (WAN) turli ehtiyojlar va talablar uchun mo'ljallangan bo'lib, har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

LANlar kichik hududlarni qamrab olib, yuqori tezlikda ma'lumot uzatishni ta'minlansa, MANlar shahar va mintaqa miqyosida keng qamrovli bog'lanishlarni yaratadi. WANlar esa katta geografik hududlarni qamrab olib, global bog'lanishni ta'minlaydi. Har bir tarmoq turi o'zining texnik va iqtisodiy xususiyatlariga ko'ra tanlanadi va qo'llaniladi.

Tarmoqlarni tashkil etish va boshqarish murakkab jarayon bo'lib, maxsus texnik va tashkiliy choralarini talab qiladi. Tarmoq xavfsizligi va ishonchliligi ham muhim ahamiyatga ega. Tarmoqlarning samarali ishlashi uchun ularni muntazam ravishda yangilab turish va texnik xizmat ko'rsatish zarur. Shu bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va kiberxavfsizlik choralarini ko'rish ham muhimdir.

Tarmoqlarni samarali boshqarish va ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish orqali tashkilotlar va foydalanuvchilar o'z maqsadlariga erishishlari mumkin. Ushbu maqola orqali tarmoqlarning turlari va ularning xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot olgan holda, o'z ehtiyojlariga mos keladigan tarmoqni tanlash va uni samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tanenbaum, A. S., & Wetherall, D. (2010). Computer Networks. Pearson.
2. Stallings, W. (2013). Data and Computer Communications. Pearson.
3. Forouzan, B. A. (2006). Data Communications and Networking. McGraw-Hill.
4. Kurose, J. F., & Ross, K. W. (2012). Computer Networking: A Top-Down Approach. Pearson.
5. Olifer, N., & Olifer, V. (2006). Computer Networks: Principles, Technologies and Protocols for Network Design. Wiley.

KIBERXAVFSIZLIKDA SUN'IY INTELEKTNING ROLI VA RIVOJLANISHI

Ilg'orova Dilnoza Ilg'or qizi

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali, talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasida qanday qo'llanilishi, hozirgi yutuqlari va kelajakdagi imkoniyatlarini batafsil tahlil qiladi. Kiberxavfsizlik sohasida SIning qo'llanilishi orqali kiberhujumlarni aniqlash va oldini olish, xavfsizlik tizimlarini avtomatlashtirish hamda yanada samarali himoya choralarini ishlab chiqish muhimligi ko'rsatilgan. Shuningdek, maqolada SI texnologiyalarining kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlari va yangi innovatsion yondashuvlar ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, avtomatlashtirish, kiberhujumlar, himoya tizimlari, texnologik rivojlanish, mashina o'rganish, chuqur o'rganish, anomal faoliyat, federated learning.*

KIRISH

Kiberxavfsizlik zamonaviy raqamli dunyoda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Korxonalar, hukumatlar va shaxslar tobora ko'proq raqamli tizimlardan foydalanayotganligi sababli, kiberhujumlar xavfi ham ortmoqda. Kiberxavfsizlikni ta'minlashda an'anaviy yondashuvlar ko'pincha yetarli bo'lmay qolmoqda, bu esa sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishiga turtki bermoqda. SI texnologiyalari kiberxavfsizlik sohasida yangi imkoniyatlarni ochmoqda, jumladan, avtomatlashtirilgan tahlil va qaror qabul qilish, real vaqt rejimida kiberhujumlarni aniqlash va bartaraf etish, hamda xavfsizlik tizimlarining samaradorligini oshirish. Ushbu maqola kiberxavfsizlikda SIning hozirgi qo'llanilishi va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Sun'iy intellektning kiberxavfsizlikda qo'llanilishi — Sun'iy intellekt texnologiyalari kiberxavfsizlikda bir qator sohalarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Bularga tarmoq trafikining tahlili, zararli dasturlarni aniqlash, foydalanuvchi faoliyatini monitoring qilish va xavfsizlik xodimlariga yordam berish kiradi. SI yordamida kiberxavfsizlik tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, anomal faoliyatlarni aniqlaydi va real vaqt rejimida xavfsizlik tahdidlarini bartaraf etadi.

SI yordamida hujumlarni aniqlash va bartaraf etish — Kiberhujumlar ko'pincha yashirin va murakkab bo'lib, ularni aniqlash va bartaraf etish qiyin bo'lishi mumkin. SI algoritmlari va mashina o'rganish (MO) usullari bu muammolarni hal

qilishda katta yordam beradi. Ushbu texnologiyalar hujumlar naqshini o'rganib, nojo'ya faoliyatlarni aniqlashda yuqori aniqlikka ega. MO asosida ishlaydigan xavfsizlik tizimlari tarmoqlardagi normal faoliyatni o'rganib, har qanday nojo'ya o'zgarishni aniqlashi va avtomatik ravishda xavfsizlik choralari ko'rishi mumkin. Misol uchun, MO algoritmlari zararli dasturlarni tahlil qilish va aniqlashda juda samarali bo'lib, ular orqali zararli kodlar va dasturlarni tezda aniqlash mumkin.

Avtomatlashtirilgan himoya tizimlari — SI yordamida avtomatlashtirilgan himoya tizimlari yaratish kiberxavfsizlik sohasida yangi yutuqlarga erishishga yordam beradi. Bu tizimlar kiberxavfsizlik siyosatini amalga oshirishda va himoya choralari ko'rishda inson aralashuvisiz ishlaydi. Masalan, xavfsizlik devorlarini (firewall) SI asosida boshqarish, tarmoq hujumlarini avtomatik bartaraf etish va foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish kabi vazifalarni bajaradi. Avtomatlashtirilgan tizimlar nafaqat xavfsizlikni ta'minlashda, balki xavfsizlik hodisalariga tezkor javob berishda ham katta ahamiyatga ega..

Sun'iy intellektning kelajakdagi rivojlanishi — Kelajakda SI texnologiyalari kiberxavfsizlik sohasida yanada kengroq qo'llanilishi kutilmoqda. Xususan, qo'shma o'rganish (federated learning) va chuqur o'rganish (deep learning) kabi yangi usullar kiberxavfsizlikda yanada samarali ishlatilishi mumkin. Federated learning texnologiyasi turli qurilmalar va tizimlardan ma'lumot yig'ib, ularni markaziy serverga yubormasdan o'rganish imkonini beradi, bu esa maxfiylik va xavfsizlikni oshiradi. Chuqur o'rganish esa murakkab va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bu texnologiyalar hujumlarni aniqlash va ularni bartaraf etishda yuqori aniqlik va samaradorlikni ta'minlaydi.

XULOSA

Sun'iy intellekt texnologiyalari kiberxavfsizlikda katta rol o'ynamoqda va bu sohada yangi imkoniyatlarni ochmoqda. SI yordamida avtomatlashtirilgan tizimlar kiberhujumlarni aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etishda samarali ishlamoqda. Kelajakda SI texnologiyalarining yanada rivojlanishi va kengroq qo'llanilishi kiberxavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Kiberxavfsizlikda SIning o'rni va ahamiyati ortib borayotganligi tufayli, bu sohada yangi tadqiqotlar va innovatsiyalar kutilmoqda. Ushbu maqolada keltirilgan tahlillar va tavsiyalar kiberxavfsizlik sohasida SI texnologiyalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaev, R. (2020). Kiberxavfsizlik asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
2. Karimov, A. (2021). Sun'iy intellekt va uning qo'llanilishi. Toshkent: Yangi Kitob Nashriyoti.

3. Smith, J. (2022). Artificial Intelligence in Cybersecurity: Current Applications and Future Prospects. New York: TechPress.
4. Johnson, M. (2023). Machine Learning for Cybersecurity. London: CyberTech Publishing.
5. Usmonov, H. (2021). Kiberxavfsizlik va sun'iy intellekt. Toshkent: Innovatsion Texnologiyalar Nashriyoti.
6. Williams, K. (2022). Cyber Threat Intelligence and AI. San Francisco: InfoSec Books.

MUQIMIYNING “VEKSEL” ASARIDAGI IQTISODIY QARASHLARI

Ozodbek Yo'ldoshev

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi*

Annotasiya: Barchamizga mashhur bo'lgan Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning “Veksel” asaridagi o'zining iqtisodiy fikrlarini ushbu maqolada o'rganib chiqamiz. O'sha davrdagi mamlakatning noto'g'ri siyosatini tahlil qilish orqali ko'plab bilim va tajribaga ega bo'lamiz.

Kalit so'zlar: Krizis, burjua, kapitalistik jamiyat, adoaltsizlik, paxtachilik, pul islohoti, chor amaldorlari.

KIRISH: Muhammad Aminxoja — Muqimiy lirik shoir va zabardast hajvchi sifatida XIX asming so'nggi choragi va XX asr boshlaridagi o'zbek milliy adabiyotining eng yirik namoyandasi sifatida dong taratdi. U ezilgan mehnatkash omma, bechora kosib-u hunarmandlar va xonavayron qishloq dehqonlarining otashin kuychisi bo'lib, maydonga chiqdi. Mustamlaka tuzumidagi adolatsizlik va zo'ravonlikni, joriy tartib-qoidalarni xalqona uslubda ayovsiz qoralagan shoir o'lkamiz istiqboliga ishonch bilan qaradi. “Veksel” asari ham, albatta, bunga yaqqol misol bo'ladi. Avvalo, “Veksel” so'ziga ta'rif bersak, “Veksel” nemischa “Wechsel” so'zidan olingan bolib, “ayirboshlash” degan ma'noni bildiradi. Veksel ko'rsatilgan muddatda muayyan miqdordagi pulni to'lash majburiyati qayd etilgan qarzdorlik haqidagi rasmiy hujjat, qimmatli qog'oz hisoblanadi. Veksel hisob vositasi va ayirboshlash hujjati sifatida Yevropa mamlakatlarda XVII asrda shakllandi. XIX asrning oxiridan boshlab Turkistondagi xususiy tijorat banklari savdo-sotiqda Vekselni muomalasini keng yolga qo'ygan¹.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: “Veksel” asarini tahlil qilish jarayonida, albatta, yaqin yillarda Mahmudov. N. M. va Avazov N tomonidan yaratilgan “Muqimiyning iqtisodiy qarashlari” ilmiy risolasidan ko'plab ma'lumotlar olindi. Shu o'rinda Pardayev Qo'ldoshning “Muqimiyning yangi muxammaslari tahlili” asaridan ham bir ko'plab kerakli ma'lumotlar olingan. Tadqiqot mavzusini yoritishda matniy-qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

MULOHAZA VA NATIJALAR: Aslida “Veksel” Zavqiy g'azaliga muxammas bo'lib, Veksel tushunchasi Turkistonga ayni Muqimiy yashab o'tgan davrda kirib

¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiv nashriyoti. Toshkent. “V” harfi. 94-bet.

keldi. Ma'lumki, har bir millat uchun, xalq uchun yangi kirib kelgan yangilikka ko'nikishi va undan foydalanishni o'rganishda ma'lum bir muddat talab etiladi. Ushbu muxammasda kapitalistik munosabatlarning doimiy yo'ldoshi – krizis haqida so'z boradi. Asarda Hodixo'ja Eshon obrazi orqali sanoatdagi raqobat, “sinish”lar gavdalanatiriladi, shu o'rinda, o'sha davrdagi paxtachilik hodisasi ham yoritib beriladi. Mahalliy savdogar va milliy burjuaziya paxtakor dehqon ommasini qattiq eksplutatsiya qilish evaziga katta daromadlar ola boshladi. Barchamizga ma'lumki, burjua jamiyatida har qanday jonlanish, o'z o'rnida, tushkunlik, krizis bilan o'rin almashib turadi. Qishloq xo'jaligida ham xuddi veksel bo'yicha qarz olgan, ammo zavodini bitkazaolmay “singan” Eshon – o'sha ma'lum Hodixo'janing “joni chiqqan”ligi haqida so'z ketadi:

*Mastur qolmagaykim, so'zning yo'g'oni chiqdi,
Oltiariqlari ham vekselni koni chiqdi,
Zovutni bitkazaolmay Eshonni joni chiqdi ...*

Shuni ta'kidlash kerakki, Zavqiyning g'azalining asosiy mavzusi veksel hujjatlari bo'lmagan, hatto g'azalda veksel so'zini ham also uchratmaymiz. Ijtimoiy voqeani satirik holatda tasvirlovchi Zavqiy g'azaliga Muqimiy taxmis bog'lab, g'oyaviy jihatdan uni chuqurlashtirib, tanqidiy fosh etishg'oyasini keskinlashtirgan. Zavqiy o'z g'azalida o'sha zamonda amalga oshirilgan pul islohitining mazmunini quyidagicha qisqa va aniq belgilaydi:

Har tangada miridin yaqqolziyoni chiqdi.

Muqimiy muxammasida keltirib o'tgan ushbu izohlovchi misralar esa asarda asosan pul islohoti haqida so'z borayotganligiga hech qanday shubha qoldirmaydi:

*To o'tti Rusiyog'a Frag'onaning xiroji,
Qoldi rivoj olmay Ho'qandi zarb royiji.*

Satirik va demokratik shoirlar bu mavzularda doim xalq manfaatlarini nuqtai nazaridan yondashadilar, ularni pul islohotining, avvalo, mehnatkashlar boshiga yangi kulfatlar keltirilganligi tashvishga solidi. Bu mavzu Muqimiy uchun, avvalo, zamondagi adolatsizlik va zo'ravonlikni, dehqon ommasini, oddiy xalq ahlining bu tuzumda batamom huquqsiz ekanligini yana bir bor baralla aytish vositasi ham bo'lgan. Shu ma'noda shoirning mana shu misralari, ayniqsa, juda o'rinlidir:

*Har ishki, xalqimizg'a hokimlar etsa farmon,
Qilmay iloji yo'qtur, dushvoru xohi oson!*

Muqimiyning ushbu misralari orqali o'sha davrdagi hukmron ijtimoiy tartib – qoidalarga, tuzumga qara aytilgan kuchli aybnomasini bilib olishimiz mumkin. Demokratik shoir bu satiric muxammasi voqeani bayon etish tartibi, vaznining yengilligi, tilining soddaligi, uslubning ravon hamda qofiyalarning pishiqligi, serma'noligi jihatidan ham boshqa muxammas, asaralridan ajralib turadi. Muqimiy ijtimoiy-iqtisodiy hayotda jamiyatning har bir a'zosi manfaatlariga tegishli bu katta

voqeani xalqchilik tomonidan tasvirlar ekan, nihoyatda aniqlikka e'tibor qaratadi. Bunda shoirga xalqning qo'llab quvvatlashi ham juda qo'l keladi. U muxammasida xalq iboralari, maqol-matallari, jonli sozlashuv tilidagi tayyor biriklamalardan foydalanadi hamda ular misralar mazmunini keng ochib taxmisning umumiy satiric yo'nalishining yuzaga chiqishida katta rol o'ynaydi.

XULOSA: Muqimiy ushbu durdona asarlarida "xom ashyoni", avvalo chorizm o'rnatgan mustamlakachilik tartibi, hukmron adolatsizlik va zo'rovonlik, inson haq-huquqining toptalishi, chor va mahalliy amaldorlarning o'zboshimchaligi va shafqatsizligi, aldanchilik va axloqiy tubanliklarni juda chiroyli tarzda yoritib berdi. Mehnatkash omma, hunarmandlarning og'ir iqtisodiy ahvoli, mustamlaka zulmi ostidagi shahar-qishloqlarning vayronaga aylanishi, nochor shaxs taqdiri Muqimiy hajviyotida yetakchi o'rinni egallaydi. Yuqorida tahlil qilingan "Veksel" muxammasini o'rganar ekanmiz, nafaqat muammolarni payqashni balki, ularga qanday yechim berish haqida ham o'ylab ko'ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Milliv ensiklopedivasi. Davlat ilmiv nashriyoti. Toshkent. "V" harfi. 94-bet.
2. Maxmudov N.M., Avazov N.R. "Muqimiyning iqtisodiy qarashlari". Ilmiy risola. - T.: "IQTISODIYOT", 2021. - 56 bet. 36-38 betlar
3. Pardaev Q. Muqimiyning yangi muxammaslari tahlili / / Til va adabiyot ta'limi. - Toshkent, 2015. - Ne 12. - B. 42-43.
4. Biz bilmagan Muqimiy. (Yangi aniqlangan asarlar to'plami). - Toshkent: Muharrir, 2019

О`QUVCHILARNI KASBGA YO`NALTIRISHDA PEDAGOGNING KASBIY MAHORATI

Nosirova Dilafruz Akbarovna

Fargona shahar kasb-hunar maktabi maxsus fan oqituvchisi

Rahmatova Malohatxon Murotovna

Fargona shahar kasb-hunar maktabi ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Xojaqulova Zuxra Xasanovna

ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya. Ushbu maqola o'qituvchilarning o'quvchilarni kelajakdagi kasblariga yo'naltirishdagi kasbiy mahoratini o'rganadi. Unda o'qituvchilar talabalarning akademik tajribalarini ularning martaba intilishlari bilan moslashtirish uchun foydalanadigan muhim vakolatlar, strategiyalar va metodikalar o'rganiladi. Keng qamrovli adabiyotlarni ko'rib chiqish, joriy ta'lim amaliyotini tahlil qilish va empirik ma'lumotlarni yig'ish orqali maqola ta'lim sharoitida samarali martaba yo'nalishi haqida tushuncha berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. O'qituvchi mahorati, kasbga yo'naltirish, talabalar kasbi, ta'lim strategiyalari, martaba bo'yicha maslahat, kasbiy rivojlanish, akademik maslahat, talabalarning muvaffaqiyati, martaba tayyorgarligi.

Kasb-hunarga yo'naltirish talabalarni kelajakdagi kasbiy hayotlariga tayyorlashga qaratilgan ta'lim tizimlarining muhim tarkibiy qismidir. O'qituvchilar bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi, o'quvchilarning kuchli tomonlarini, qiziqishlarini va martaba intilishlarini aniqlashga yordam beradigan bir qator ko'nikmalar va strategiyalardan foydalanadi. Ushbu maqola o'qituvchilar tomonidan talabalarni tanlagan kasblariga samarali yo'naltirish uchun talab qilinadigan kasbiy ko'nikmalarni o'rganadi, bu shaxsiy rahbarlik va dalillarga asoslangan amaliyotning muhimligini ta'kidlaydi.

Ushbu tadqiqot sifatli va miqdoriy ma'lumotlarni to'plashni birlashtirgan aralash usulli yondashuvni qo'lladi. Turli ta'lim muassasalari o'qituvchilariga kasbga yo'naltirish amaliyoti va kasbiy mahorati to'g'risida ma'lumot to'plash uchun so'rovnomalarni tarqatildi. Bundan tashqari, talabalar bilan olingan kasbga yo'naltirish samaradorligi nuqtai nazarini tushunish uchun fokus-guruh muhokamalari o'tkazildi.

So'rovlarning miqdoriy ma'lumotlari umumiy tendentsiyalar va korrelyatsiyalarni aniqlash uchun statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Fokus-guruhlarining sifatli ma'lumotlari kodlangan va talabalarning tajribalari va idroklari haqida chuqurroq ma'lumot berish uchun tematik tahlil qilingan.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda o'qituvchining roli ko'p qirrali bo'lib, kasbiy mahoratning kombinatsiyasini talab qiladi. Bu erda o'qituvchilar ishlab chiqishi va foydalanishi kerak bo'lgan ba'zi asosiy ko'nikmalar va strategiyalar:

Karyera bo'yicha maslahat va ko'rsatma:

- Individual maslahat: talabalarga kuchli tomonlarini, qiziqishlarini va martaba maqsadlarini tushunishga yordam beradigan shaxsiy ko'rsatmalar bering.

- Baholash vositalari: o'quvchilarga potentsial martaba yo'llarini aniqlashda yordam berish uchun qiziqishlar ro'yxati, qobiliyat testlari va shaxsni baholash kabi vositalardan foydalaning.

Sanoat bilimlari va tendentsiyalari:

- Yangilangan qolish: so'nggi sanoat tendentsiyalari qatorda tuting, ish bozor talablar, va rivojlanayotgan kasblar.

- Professionallar bilan bog'lanish: talabalarga turli kasblar haqida tushuncha berish uchun sanoat aloqalari tarmog'ini yaratish.

Murabbiylik:

- Rol modellashtirish: kuchli ish axloqi, uzluksiz o'rganish va mavzuga bo'lgan ishtiyoqni namoyish etish orqali professional namuna bo'lib xizmat qiling.

- Uzoq muddatli qo'llab-quvvatlash: talabalar ta'lim muassasasini tark etgandan keyin ham kasbiy safarlarida harakat qilishlariga yordam berish uchun doimiy murabbiylikni taklif eting.

O'quv Dasturining Integratsiyasi:

- Karyeraga yo'naltirilgan loyihalar: o'quv dasturiga turli kasblarga oid Real loyihalar va amaliy tadqiqotlarni kiritish.

- Malakani rivojlantirish: o'quv dasturida yumshoq ko'nikmalar (muloqot, jamoaviy ish, muammolarni hal qilish) va qattiq ko'nikmalar (texnik kompetentsiyalar, maxsus bilimlar) rivojlanishini ta'minlash.

Tajriba O'rganish Imkoniyatlari:

- Amaliyot va ish joylari: amaliy tajriba bilan ta'minlash uchun amaliyot, kooperatsiya dasturlari va ish joylarini soya qilish imkoniyatlarini osonlashtirish.

- Darsdan tashqari mashg'ulotlar: talabalarning qiziqish sohalari bilan bog'liq klublarda, musobaqalarda va ko'ngilli imkoniyatlarda ishtirok etishni rag'batlantirish.

Ta'lim yo'llari bo'yicha maslahat:

- Akademik rejalashtirish: talabalarga martaba intilishlariga mos keladigan kurslar va akademik dasturlarni tanlashda yordam bering.

- Qo'shimcha ta'lim: martaba istiqbollari oshirishi mumkin bo'lgan oliy ma'lumot, sertifikatlar va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari haqida maslahat bering.

Tarmoq Qobiliyatlari:

- Aloqalarni o'rnatish: talabalarga onlayn va shaxsan samarali tarmoqqa ulanishni o'rgating.

- Professional tashkilotlar: tegishli professional tashkilotlarga a'zolikni va sanoat konferentsiyalari va tadbirlarida qatnashishni rag'batlantirish.

Yumshoq Ko'nikmalarni Rivojlantirish:

- Muloqot qobiliyatlari: samarali og'zaki va yozma muloqotning muhimligini ta'kidlang.

- Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish: sinf mashg'ulotlari va munozaralar orqali tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Intervyu va ish qidirishga tayyorgarlik:

- Rezyume va muqovali xat yozish: samarali rezyume va muqovali xatlarni yaratish bo'yicha seminarlar o'tkazing.

- Intervyu texnikasi: soxta intervyu o'tkazish va ko'nikmalarini intervyu haqida hisobot taqdim.

Texnologiyadan foydalanish:

- Onlayn manbalar: martaba o'rganish va ish qidirish uchun onlayn platformalar va manbalardan foydalaning.

- Elektron portfellar: talabalarni o'z ishlari va yutuqlarini namoyish etuvchi raqamli portfellar yaratish va saqlashga undash.

Ushbu ko'nikmalar va strategiyalarni birlashtirib, o'qituvchilar talabalarni muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatli martaba sari samarali yo'naltirishlari mumkin.

Topilmalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning kasbga yo'naltirish bo'yicha kasbiy mahorati talabalarning martaba tayyorgarligi va qoniqishiga sezilarli ta'sir qiladi. O'qituvchilar uchun o'quv dasturlari ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishni, shu jumladan martaba baholash vositalaridan, mehnat bozorini tahlil qilishdan va samarali aloqa usullaridan foydalanishni ta'kidlashi kerak. Bundan tashqari, akademik o'quv dasturi doirasida martaba yo'nalishini birlashtirish uning samaradorligini oshirishi va barcha talabalar kerakli yordamni olishlarini ta'minlashi mumkin.

Bundan tashqari, tadqiqot ta'lim muassasalari va soha mutaxassislari o'rtasidagi hamkorlikning muhimligini ta'kidlaydi. Amaliyot, murabbiylik dasturlari va tarmoq tadbirlarini osonlashtirish orqali o'qituvchilar talabalarga akademik bilimlarini to'ldiradigan qimmatli Real tajribalarni taqdim etishlari mumkin.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchilar talabalarni kelajakdagi kasblariga yo'naltirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha zarur tayyorgarlik va resurslar bilan ta'minlash juda muhimdir. Ta'lim muassasalari o'quv dasturi doirasida kasbga yo'naltirishni birinchi o'ringa qo'yishlari va talabalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun soha mutaxassislari bilan hamkorlikni rivojlantirishlari kerak.

Kelajakdagi tadqiqotlar kasbga yo'naltirishning talabalarning martaba muvaffaqiyati va qoniqishiga uzoq muddatli ta'sirini o'rganishi kerak. Bundan tashqari, turli xil talabalar populyatsiyasining o'ziga xos ehtiyojlarini o'rganish barcha talabalarga yaxshiroq xizmat ko'rsatish uchun kasbga yo'naltirish dasturlarini moslashtirishga yordam beradi. Kasb-hunarga yo'naltirish amaliyotini doimiy ravishda takomillashtirish orqali o'qituvchilar talabalarning malakasini oshirishga va umumiy muvaffaqiyatga sezilarli hissa qo'shishlari mumkin.

Adabiyotlar:

1. Shodiyev N. Methods of introducing students of junior school age to the world of professions in primary education//SamDu scientific researches. Bulletin. 2017. No. 2-B. 140-144b
2. Sharipov Sh. S, Davlatov K, Nasriddinova G. S. Scientific-pedagogical foundations of career guidance. Study guide.-- Tashkent - 2007.-10 p.
3. Kholmatov P.Q. and the head. The method of improving the guidance of students to the profession during extracurricular activities. Methodical manual - Jizzakh--2021.-17 p.
4. Ermatova G.N. Initial pedagogical processes in vocational guidance of primary school students / Molodoy uchenyy. □ 2019. No. 21 (259).
5. Work towards extracurricular activities in Finland, Help your self in career in Finland. <https://www.finlandeducation.info/>

QISHLOQ XO'JALIGIDA SUN'IY INTELLEKT: AN'ANAVIY DEHQONCHILIK MUAMMOLARINI HAL QILISH UCHUN SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Jumabaev Ilham

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Zooinjeneriya fakulteti "Marketing" ta'lim yo'nalishi 3-kurs student*

Annotatsiya: Ushbu maqolaning asosiy mavzusi qishloq xo'jaligida sun'iy intellektning turli xil qo'llanilishini tekshirish, masalan, sug'orish, begona o'tlarni tozalash, robotlar va dronlarga o'rnatilgan va purkash orqali ishlaydi. Bu texnologiyalar suv, gerbitsidlarning ortiqcha sarflanishini tejaydi, tuproq unumdorligini saqlaydi, shuningdek, inson kuchidan unumli foydalanish, hosildorlikni oshirish va sifatni yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu maqola qishloq xo'jaligida avtomatlashtirishning joriy etilishi, robotlar va dronlar orqali o'tlardan tozalash tizimlari haqida qisqacha ma'lumot olish uchun ko'plab tadqiqotchilarning ishlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, gerbitsid, pestitsid, avtomatlashtirish, sug'orish

Qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt (AI) tashkil etish an'anaviy dehqonchilik muammolarni hal qilishda keng foydalanib kelinmoqda. Bu mavzu ko'pincha qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal qilish bilan bog'liq: suv resurslaridan oqilona foydalanish, parazitlar bilan kurashish, o'simliklarning zararli kasalligi (fungus, virus, bakteriumlar) bilan kurashish xavfsizlikni taminlash va boshqalar. Sun'iy intellekt an'anaviy dehqonchilik muammolarini hal qilish orqali qishloq xo'jaligi sanoatida katta xissa qo'shib kelmoqda. AIdan foydalanish bilan fermerlar o'z faoliyatini optimallashtirishi, hosildorlikni oshirishi, xarajatlarni kamaytirishi mumkin. Umuman olganda, sun'iy intellekt fermerlikni yanada samarali va barqaror qilish orqali qishloq xo'jaligini o'zgartirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Dunyo bo'ylab odamlar hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan sohalarda qo'llaniladigan texnologiyalarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Bunga ajoyib misol, sun'iy intellekt qishloq xo'jaligi sanoatida qanday keng qo'llanilishidir. Global oziq-ovqat va agrobiznes sanoati bugungi kunda 5 trillion dollarga baholanmoqda va u o'sishda davom etmoqda. Qishloq xo'jaligi odatda ko'pchilikka qaraganda kamroq "raqamlashtirilgan" soha deb hisoblanadi, ammo AI kabi texnologiyalar tufayli u yana qayta raqamlashtirish naqadar muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Qishloq xo'jaligi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy farovonlikka hissa qo'shadi va AI texnologiyalari fermerlarga kamroq resurslar bilan, sifatli va ko'proq mahsulot ishlab chiqarish imkonini berdi. Science Direct2 nashriga ko'ra bugungi

kunda fermalarda taxminan 75 million qurilmalar ulangani mavjud va 2050 yilga kelib, ma'lumotlarga ko'ra , o'rtacha ferma har kuni 4 milliondan ortiq ma'lumot qayta ishlanadi, deb ishoniladi . Sun'iy intellekt kiritilgan ma'lumotlarni (ob-havo, tuproq, hasharotlarga) yig'adi va uni nihoyatda tez qayta ishlaydi, shunda fermerlar tezroq va yaxshiroq dehqonchilik qarorlarini qabul qilishlari mumkin.

Qishloq xo'jaligida robotlar yordamida begona o'tlarni nazorat qilish begona o'tlarga qarshi kurash fermerlar uchun tobora ortib borayotgan ustuvor vazifadir, chunki ular begona o'tlarning ko'p turlarida gerbitsidlarga chidamlilik xavfiga duch kelishadi. Amerikaning WSSA ilmiy tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan tadqiqotda , fermerlar faqat makkajo'xori va soya ekinlarida nazoratsiz begona o'tlar tufayli yiliga 43 milliard dollar zarar ko'rishlari taxmin qilinmoqda.

Zarar kunandalarga qarshi kurashish uchun AI dan foydalanish Bugungi kunda sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan dronlar fermerlarga kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishda yordam bermoqda. Argentinada qo'llaniladigan maxsus dron kamerasi 150 gektardan ortiq bug'doyning ustidan uchib o'tib ekinlarni poya bo'ylab tekshirib, ularning yetishtirishga tahdid solishi mumkin bo'lgan turli infeksiyasi belgilarini ko'ra oladi . Sun'iy intellekt dronlari hasharot, yoki boshqa turli xavf bo'ladimi, har bir potentsial tahdidni qanday belgilashni o'rgatishi mumkin. Keling, qishloq xo'jaligida sun'iy intellektdan foydalanish ekinlarga qanday yordam berishini bilib olaylik.

Hosildorlikni oshirish uchun optimal sug'orish

Sug'orish – bu barqaror qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismidir. Sug'orishni rejalashtirish ekinlarning o'z vaqtida kerakli miqdorda suv olishini ta'minlaydi, bu esa ularning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi uchun juda muhimdir. Sun'iy intellekt (AI) va mashina o'rganish (ML) texnologiyalaridagi yutuqlar ekinlarni sug'orishni boshqarish usulini tahlil qilib, uni yanada samarali, barqaror va daromadli qiladi.

- Blinx AI tomonidan ishlab chiqilgan Irrigation Scheduler ilovasi (<https://blinx.ai/ai-appstore/artificial-intelligence-in-agriculture>) tuproq namligi darajasini, ekin turini, ob-havo sharoitini va boshqa atrof-muhit omillarini kuzatib, ekinlarga qancha suv qo'llash kerakligini aniqlaydi.

- Ilova murakkab mashina o'rganish algoritmi va Bagging klassifikatoridan foydalanadi. Bu esa, o'z navbatida, yig'ilgan ma'lumotlar asosida ekinlar uchun zarur bo'lgan suvning optimal miqdorini aniq bashorat qila oladi.

- Ushbu ilova fermerlarga hosildorlikni oshirish va suv sarfini kamaytirish maqsadida o'sishning turli bosqichlarida ekinlari uchun zarur bo'lgan suvning optimal miqdorini aniqlash orqali sug'orish jadvalini optimallashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga fermerlar ilovadan yo'l-yo'riq va maslahatlar olish uchun ham foydalanishlari mumkin.

So'ngi paytlarda agrar sohada aynan shu mavzu bo'yicha yig'ilishlar bo'lib o'tdi.

Agrar sohada sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Joriy yilning 22-24 aprel kunlari Toshkent shahrida tashkil etilgan "Innoprom. Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat ko'rgazmasi doirasida Qishloq xo'jaligi vazirligi vakillari bir qator xalqaro tashkilotlar mutasaddilari bilan o'zaro manfaatli uchrashuvlar o'tkazdi. Shunday uchrashuvlardan biri Rossiyaning nafaqat bank sohasida, balki iqtisodiyotning turli sohalari uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratish bo'yicha katta tajribaga ega "Sber" kompaniyasi rahbariyati va mutaxassislari bilan bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasini raqamlashtirish yordamida erishilayotgan yutuqlar, sohada sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash masalalari va bunda hamkorlik yo'nalishlari ko'rib chiqildi. Tadbirda agrar soha ishonchli ma'lumotlar bazasini va sun'iy intellekt uchun etalonlarni shakllantirish, tahlillar va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida foydalanishni joriy etish bo'yicha kelishib olindi. Shuningdek, Qishloq xo'jaligi vazirligi vakillari ko'rgazma doirasida tashkil etilgan "O'zbekiston va Rossiya SI (sun'iy intellekt) global transformatsiyasi paradigmasida: SI muvaffaqiyat kaliti sifatida" mavzusidagi sammitda ham ishtirok etishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rich, E. Artificial Intelligence-; McGraw-Hill: New York, 1983; ISBN 978 0070522633.
2. Cozman, F.G.; Plonski, G.A.; Neri, H. Artificial Intelligence: Advances and Trends; IEA-USP: São Paulo, 2021; ISBN 978-65-87773-13-1.
3. Russell, S.J.; Norvig, P.N. Artificial Intelligence: A Modern Approach ; Pearson series in artificial intelligence; Pearson: New York, 2020; ISBN 0134610997.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	ҚЎЗИЛАР ҲАЗМ ЖАРАЁНЛАРИГА ПАСТ ИНТЕНСИВЛИКЛИҚДАГИ ЛАЗЕР НУРЛАРНИШИ БИЛАН ТАЪСИР КЎРСАТИШНИНГ БИОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ	3
2	«AKUSTIKA» MAVZUSINI AMALIY DASRNI SIFATIDA MODUL TIZIMIDA O'TISH	9
3	ВЛИЯНИЕ КРАТКОВРЕМЕННОГО НИЗКОИНТЕНСИВНОГО ЛАЗЕРНОГО ИЗЛУЧЕНИЯ НА МЯСНУЮ РЕАКЦИЮ МОЛОДЫХ ЯГНЯТ	14
4	АНАЛИЗ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ ВИДЕОАССИСТЕНТА РЕФЕРИ В ФУТБОЛЕ НА ПРИМЕРЕ ЕВРОПЕЙСКИХ СТРАН: ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ	21
5	ПЛАВАНИЕ В ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ КУРСАНТОВ: ПРОГРАММЫ И МОТИВАЦИИ	26
6	ЭФФЕКТИВНОСТЬ АНАЛИЗА ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ В ПРЕД ИГРОВОЙ ПЕРИОД	30
7	HARNESSING THE CINQUAIN METHOD FOR ENHANCED CRITICAL THINKING AND CREATIVE WRITING IN ENGLISH CLASSES	35
8	ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССИДА ПРОКУРОР ИШТИРОКИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	39
9	ҲАДЯ ШАРТНОМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ИШЛАРНИ СУДДА КЎРИШ АСОСЛАРИ	48
10	ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛА ХУҚУҚЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ХАЛҚАРО-ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ВА МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИКНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	55
11	ISMOIL OLLABERGAN IJODIDA XORAZM SHEVASI ELEMENTLARI	63
12	OMON MATJON IJODIDA XORAZM SHEVASI ELEMENTLARI	67
13	“QO’LLAR” NI KOYASI HAQIDA	71
14	СМАРТЭНЕРГО: ГЕОИНФОРМАЦИОННАЯ ИНФРАСТРУКТУРА ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГОСИСТЕМОЙ И ЭЛЕКТРОСНАБЖЕНИЕМ	75
15	INTEGRATED SECURITY SYSTEMS FOR PROTECTING ENERGY INFRASTRUCTURE: CHALLENGES AND PERSPECTIVES IN THE CONTEXT OF SMART GRID AND NERC CIP	80
16	TRANSFORMATIVE LEARNING: EMPOWERING TOMORROW'S TELECOM SPECIALISTS THROUGH PROJECT-CONSTRUCTIVE METHODOLOGY	84
17	SHAKHRISABZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE	91
18	METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH IN PRIMERY CLASSES	95

19	THE FUNCTION OF COMPUTER TECHNOLOGY IN THE TEACHING OF LANGUAGES	98
20	FINANCIAL CONTROL AS A FACTOR OF EFFECTIVE BUSINESS	102
21	AVTOMOBIL DETALLARINI YEYILISHIGA QARSHI METODLAR	106
22	ЗДОРОВЫЙ ОБРАЗ ЖИЗНИ	109
23	MASALALARNI TENGLAMALAR SISTEMASI YORDAMIDA YECHISH	112
24	BIOLOGIYANI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	115
25	HAZRAT FAKIRI - BRIGHT CREATORS WHO APPEARED IN UZBEK LITERATURE	118
26	O'SPIRINLIK DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN PSIXOLOGIK MUAMMOLAR	123
27	BOLALARDA TEMPERAMENT XUSUSIYATLARINI SHAKLLANISHI	127
28	XAVOTIRLI BOLALARNING PSIXOLOGIK HOLATI VA ULARDAGI QO'RQUVNI BARTARAF ETISHNING DOLZARB MASALALARI	130
29	O'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	134
30	OILALARDAGI PSIXOLOGIK MUOMMOLAR DOLZARB MASALA SIFATIDA	138
31	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	144
32	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BILAN KORREKSION ISHLARNI OLIB BORISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	149
33	BUGUNGI TA'LIM –TARBIYA JARAYONIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHILARGA PSIXOLOGIK- XIZMATNING O'RNI VA AHAMIYATI	152
34	THE CONDITIONS OF BORROWINGS IN BRAND NAMES	155
35	TARMOQLARARO EKTRAN TEXNOLOGIYALARI	160
36	TARMOQLARNING TURLARI (LOKAL TARMOQLAR, MINTAQAVIY TARMOQLAR, GLOBAL TARMOQLAR)	163
37	KIBERXAVFSIZLIKDA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI VA RIVOJLANISHI	168
38	MUQIMIYNING "VEKSEL" ASARIDAGI IQTISODIY QARASHLARI	171
39	O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA PEDAGOGNING KASBIY MAHORATI	174
40	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUN'IY INTELLEKT: AN'ANAVIY DEHQONCHILIK MUAMMOLARINI HAL QILISH UCHUN SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH	178

***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*


**Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.





OPEN  ACCESS

